

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE



“Moliya” kafedrası

“MOLIYA ASOSLARI”
fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	400 000- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000- Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiyalar

Namangan-2025

“Moliya asoslari” fanidan O’quv-uslubiy majmua.
A.Ubaydullayev i.f.f.d., PhD : UBS “Moliya” kafedrası – 2025 yil.

Mazkur majmuada “Moliya asoslari” fanidan na’munaviy fan dasturi, sillabus, amaliy mashg’ulotlar uchun masalalar to’plami, nazorat turlari uchun tayyorlangan topshiriqlar variantlari, test savollari, fandan umumiy nazorat savollari, reyting mezonlari va izohli lug’at jamlangan.

Ushbu o’quv-uslubiy majmua oliy o’quv yurtlari pedagog o’qituvchilari uchun tavsiya etiladi. SHu bilan birga o’quv-uslubiy majmuadan ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar hamda “Moliya” faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

A.Ubaydullayev i.f.f.d., PhD

O’quv uslubiy majmua “Iqtisodiyot” kafedrasining 2024 yil 26 avgustdagi 1-sonli yig’ilishida muhokamadan o’tgan va fakultet kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.


Kafedra Mudiri:



A.Ubaydullayev

Uslubiy majmua “Iqtisodiy” fanlar fakultetining 2024 yil 27 avgustdagi 1-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet dekani:



N.Sotvoldiyev

Taqrizchilar:

M.G’aniyev

I. Jurayev

NamMTI “Iqtisodiyot” kafedrası
dotsenti, i.f.f.d. (DSc)
UBS, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti,
i.f.f.d (PhD)

O’quv-uslubiy majmua Iqtisodiy fanlar fakulteti Kengashining 27-avgustdagi 1-son yig’ilishida ko’rib chiqib foydalanish uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA I. O'quv materiallari

1.1 Ma'ruza mashg'ulotlar.....	5
1.2 Amaliy mashg'ulotlar.....	105
II. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mavzulari va ularni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy kursatma.....	167
III. Glossary.....	175
IV. Foydalanilgan adabiyotlar.....	186
V. Ilovalar.....	188
a. Fan o'quv dasturi	
b. Sillabus	
c. Testlar	
d. Tarqatma materiallar	
e. Baholash mezonlari	

MA'RUZALAR MATNI

1-MAVZU. КИРИШ. MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI.

Reja:

1. Кириш.
2. Moliya fanining predmeti va vazifalari.
3. Moliyaning ob'ektiv zarurligi va uning funksiyalari.
4. Moliya munosabatlarining tarkibi, shakllari va ularni boshqarish xususiyatlari.

Kirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr talabiga moslashtirish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni yanada rag'batlantirish, barqaror moliya tizimi faoliyatini tashkil etish moliya munosabatlarini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

“Moliya” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-kursda o'qitilishi rejalashtirilgan. “Moliya” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi va barcha iqtisodiy bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida ham o'qitiladi. Mazkur fan moliya tizimlarini tashkil qiluvchi pul, bank ishi, kredit, investisiyalar, aktivlar, majburiyatlar hamda moliyaviy instrumentlarni boshqarish, yaratish va o'rganishni tasvirlab beradi.

Ushbu fan moliyaviy resurslar fondlarini shakllantirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishishda ulardan samarali foydalanish, shuningdek mamlakat moliya tizimining amal qilish qonuniyatlari kabi masalalarni qamrab oladi. Mamlakat moliya tizimi rivojlanish qonuniyatlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Fanni o'qitishdan maqsad-kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun moliya munosabatlarini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirishni taqozo etmoqdaki, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining btr qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

“Moliya” fanini chuqur o'rganish orqali talabalar mamlakatimizning moliya munosabatlaridagi ishtirokini faollashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish, iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investisiya va kreditlardan samarali foydalanish borasida tegishli nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Shu bilan birga mazkur fanni o'qitish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan vazifalarni samarali hal etishda mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

“Moliya” fani zamonaviy moliyaning fundamental (tub) asoslari, moliyaviy tizim, moliyaviy hisobotlar, investision loyihalar va risklarni boshqarish hamda investision portfelni shakllantirish va korporativ strategiya modullariga asosan o'rganiladi.

2. Moliya fanining predmeti va vazifalari.

Bozor munosabatlariga o'tish – hozirgi kunda ko'pchilik davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bozor munosabatlariga o'tish insonning ijodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishga, boqimandalikni bartaraf etishga, yo'qolib ketgan egalik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina mahsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Shu borada muhim masalalardan biri: davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'li, yangi paydo bo'layotgan nodavlat, ya'ni ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan xususiy, aksionerlik, kollektiv va boshqa korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan aralash, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirishdir. Mamlakatimizda moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy ahamiyati katta. Tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni tashkil etish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bo'lib, investitsiyalarni jalb etish va boshqalar moliya munosabatlarining bevosita vazifasi hisoblanadi.

moliya va pul aynan bir narsani bildirsam, u holda savol tug'iladi: aynan bir mohiyatga nima uchun ikkita mustaqil tushuncha mavjud?

Buning uchun mazkur kategoriyaning rivojlanish tarixini ko'rib chiqamiz. «Moliya» iborasi (it. Finanzia) XII-XV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida paydo bo'lib, avvaliga har qanday pul to'lovini bildirgan. Keyinchalik bu ibora qandaydir jarayonni sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni, aniqrog'i pul munosabatlarini bildirgan va xalqaro ko'lamga yoyilgan, lekin uni ishlatish sohasi umumdavlat pul fondlariga pul to'lovlari bilangina chegaralangan.

Shunday qilib, moliyaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Pul munosabatlari, ya'ni pul moliyani mavjud bo'lishi va amal qilinishini moddiy asosi hisoblanadi (pul yo'q joyda moliya ham bo'lmaydi).
2. Islohotlarning bosh tashkilotchisi bo'lmish davlatning mavjudligi.
3. Pul munosabatlari jarayonida umumdavlat pul fondlarini shakllanish jarayoni amalga oshiriladi. Aytish mumkinki, moliyaning alohida belgisi uning fondli xarakteridir.
4. Byudjetga mablag'larning doimiy tushishi soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlarga davlatning majburiy tazyiqi xususiyatini o'z-o'zidan bermaydi va bu holat davlatning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati vositasida hamda bunga xos fiskal apparatning yaratilishi bilan ta'minlanadi.

Mazkur belgilar bo'yicha moliyani barcha pul munosabatlari yig'indisidan xatosiz ajratib olish mumkin. Misol uchun fuqarolar o'rtasida, fuqarolar va chakana savdo o'rtasidagi (hattoki, chakana narxlarni davlat tomonidan tartibga solish sharoitida ham) yuzaga keladigan pul munosabatlarini fuqarolik – huquqiy usul bilan tartibga soladi. Pul munosabatlarining boshqa guruhi – bu jismoniy shaxslar tomonidan daromad solig'ini to'lash. Bu yerda moliyaning barcha belgilari aniq ishtirok etadi: soliqni to'lanishi pul shaklida amalga oshiriladi; ikkita teng huquqli bo'lmagan sub'ektlar ishtirok etadi (jismoniy shaxs va davlat); davlat mazkur munosabatlarning barcha elementlarini aniqlab beradi, ularni qonun ko'rinishida rasmiylashtiradi, nazoratni amalga oshiradi, qonunbuzarlik uchun jazolar belgilaydi. Mazkur to'lovlar natijasi umumdavlat pul fondi – davlat byudjetining daromadlar qismi shakllanadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, moliyaga birinchi ta'rifni quyidagicha berish mumkin:

Moliya – bu davlat tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni bajarish uchun mo'ljallangan umumdavlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlarini yig'indisidir.

1. Aynan Markaziy Yevropada birinchi burjua inqiloblari natijasida umumdavlat pul mablag'lari fondi – byudjet yuzaga keldi, hech qaysi davlat hukmdori unga yolg'iz o'zi xo'jayinlik qila olmaydi.

2. Byudjetni shakllantirish va ishlatish tizimi alohida xususiyat kasb eta boshladi, ya'ni davlat daromadlari va xarajatlari tizimi tarkibiy va qonuniy birikmalari bilan yuzaga keldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, byudjetning xarajatlar qismi asosiy guruxlari bir necha yuz yilliklar deyarli o'zgarmay keldi. O'sha davridayoq xarajatlarni to'rtta yo'nalishi belgilangan edi: Xarbiy maqsadlarga, boshqaruvga, iqtisodiyotga, ijtimoiy zaruratlariga. Davlat xarajatlari strukturasidagi o'xgarishlar XX asrning ikkinchi yarmida yuz berdi. Ular ba'zi g'arbiy Yevropa mamlakatlarining xarbiy xarajatlarni sezilarli qisqartirib, ijtimoiy maqsadlarga, iqtisodiyotga xarajatlar qilishga ko'proq e'tibor berganliklarida namoyon bo'ldi.

3. Pul shaklidagi soliqlar birmuncha afzal xususiyat kasb etdilar. Avvalgi davlat daromadlari asosan natural to'lov va in'omlar hisobga shakllangan.

Shunday yo'sinda, davlatchilik va pul munosabatlarining faqat mazkur bosqichida yaratilgan mahsulotni qiymat ko'rinishida taqsimlash imkoni tug'ildi.

Taqsimlash jarayonlari – jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarining bir qismi hisoblanadi. Moliya ham iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U qiymat harakatining muhim shakllari yordamida davlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatishda namoyon bo'ladi.

Har qanday davlatning pul daromadlari va fondlarining asosiy moddiy manbai yalpi ichki mahsulot va uning asosiy qismi – milliy daromad hisoblanadi. Moliya yordamida uning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi, shu bilan birga ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkaziladi.

Moliya shu bilan birga tarixiy kategoriya ham hisoblanadi. U o'zining paydo bo'lish, rivojlanish bosqichlariga ega, ya'ni vaqt davomida o'zgarib boradi. Moliyaning rivojlanishini ikkita asosiy bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich – moliyaning rivojlanmagan shakli. U, birinchidan, moliyaning noishlab chiqarish xususiyati bilan xarakterlanadi, ya'ni pul mablag'larining asosiy qismi (2/3 qism byudjet) harbiy maqsadlarga sarflangan va deyarli moliya iqtisodiyotga hech qanday ta'sir o'tkazmagan. Ikkinchidan, bir bo'g'indan tashkil topgan byudjet va moliyaviy munosabatlarni chegaralash miqdoridan, ya'ni moliya tizimi qisqaligi va keng qamrovli emasligidan. Ularning barchasi byudjetni shakllantirish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan.

3. Moliyaning ob'ektiv zarurligi va uning funksiyalari.

Moliyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida, turli moliyaviy tizimlar amal qiladi, ba'zi hollarda mavjud iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli ob'ektiv namoyon qiladi, boshqa hollarda esa, muvaffaqiyatsizroq, biroq moliya har doim taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Moliyaning boshqa muhim funksiyasi nazoratdir. U taqsimlash funksiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Moliya munosabatlarining turli tarkibi orasida pul fondlarining shakllanishi va ishlatilishi nazorati bilan bog'liq bo'lmagan birorta ham munosabat yo'qdir. Shu bilan birga faqatgina nazorat bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabat ham yo'q.

Moliya yordamida davlat ijtimoiy mahsulotni natural-moddiy shakldagina emas, qiymat shaklida ham taqsimlashni amalga oshiradi. Shundan kelib chiqib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida qiymat va natural-moddiy nisbatlarning ta'minlanishi ustidan nazorat qilish mumkin va zarur bo'ladi.

Moliya ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni shakllantirish, taqsimlash va ishlatishning barcha bosqichlarida nazoratni amalga oshiradi. Nazoratning bosh maqsadi ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida ishning sifatini yaxshilash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlaridan oqilona foydalanishga erishishdir.

Moliyaning nazorat funksiyasi korxonalarning barcha xo'jalik faoliyatlarida namoyon bo'ladi. So'm orqali nazoart qilish ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari ustidan ustidan, bu xarajatlarning daromadlarga mos kelishi ustidan, asosiy fondlar va aylanma mablag'larning shakllanishi va ishlatilishi ustidan amalga oshiriladi. Mazkur nazorat mablag'lar aylanishining barcha bosqichlarida – moliyalashtirish va kreditlashda, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda, byudjet va moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro aloqalarda amal qiladi. So'm orqali nazorat yordamida mahsulot realizatsiyasi jarayoniga, shartnoma bo'yicha shartlarni bajarilishiga, rentabellikka, foydaga, fond qaytimiga, aylanma mablag'lar aylanishiga ta'sir o'tkazadi.

Shunday qilib, so'm orqali nazoratdaromadlar o'sishini, mablag'lar va moddiy boyliklar oqilona sarflanishini rag'batlantiriladi, korxonalarni kamchiliklarini bartaraf etishga, xo'jalik faoliyatini yaxshilashga, uning samaradorligini oshirishga, xo'jasizlik a isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka majbur qiladi. So'ng orqali nazoratning muxim xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, pul mablag'lar kelib tushishi va ishlatilishi jarayonida o'zliksiz davom etadi va maxsus tekshiruv xamda kuzatishlar Bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi, mustaqil axamiyat kasb etadi. Moliyaning nazorat funksiyasi ob'ekti-korxonalar,tashkilotlar, muassasalar faoliyatining moliyaviy ko'rsatgichlari xisoblanadi. Moliyaviy nazoratning samaradorligining oshirish ko'proq korxonada bosh hisobchi, moliya bo'limlarining xodimlari tomonidan ishni qay darajada yo'lga qo'yilganligi, moliyaviy axborotlarning xaqqoniyligi, moliyaviy nazoratning natijalari xalq xo'jaligida xolatni taxlil qilish va ob'ektiv baxolash xamda takror ishlab chikish jarayonini bo'lishini muvaffaqiyatlashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Moliyaning nazorat funksiyasi amalga oshirish shakli moliyaviy nazorat xisoblanadi, agar moliyaning nazorat funksiyasi moliyaning o'zining xususiyati bo'lsa, moliyaviy nazorat esa aloxida mazkur nazoratni amalga oshiruvchi nazorat organlarining faoliyati xisoblanadi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish sub'ektlari bo'yicha moliyaviy nazorat umumdavlat, ma'muriy , ichki xo'jalik, jamoat va mustaqil (auditorlik) nazoratlariga bo'linadi.

Umumdavlat moliyaviy nazoratini xokimiyatining qonun chiqaruvchi organi-Oliy Majlis xamda moliya, soliq, kredit muassasalari, davlat qo'mitalari, maxalliy boshqaruv organlari bo'limlari amalga oshiriladi.Bularning muxim funksiyasi moliyaning xolati ustidan davlat mablag'larining sarflanishi ustidan nazorat olib borishdir.

Ma'muriy moliyaviy nazoratni vazirliklari va boshqarmalarning nazorat taftish bo'limlari amalga oshiradi. Bu organlar quyi korxona va muassasalar moliyaviy xo'jalik faoliyatining tekshiruvini amalga oshiradilar.

Ichki xo'jalik moliyaviy nazoratini korxona, muassasalarining moliyaviy xizmatlarini (munosibat, moliya bo'limlari) tomonidan amalga oshiriladi. Ularning funksiyalariga korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini xamda uning tarkibiy bo'linmalarini tekshirish kiradi.

Jamoat moliyaviy nazoratini aloxida jismoniy shaxslar ixtiyoriy ravishda bajaradi.

Mustaqil moliyaviy nazoratni auditorlik firmalari amalga oshiriladi. Nazorat ob'ekti bo'lib barcha iqtisodiy sub'ektlarning faoliyati xisoblanadi.

Amalga oshirish muddatidan kelib chiqib, moliyaviy nazorat birlamchi, joriy va yakuniy nazorat turlariga bo'linadi.

Birlamchi moliyaviy nazorat korxonalar moliyaviy rejalarini, byudjet tashkilotlarining smetalarini, byudjetlar loyixalarini va boshqalarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash bosqichlarida bajariladi. U xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish va moddiy, mehnat xamda moliyaviy resurslar noratsional sarflanishning oldini olish va shu bilan birga faoliyatiga bevosita, bilvosita zarar yetkazilishini bartaraf qilishga yordam beradi.

Joriy moliyaviy nazorat moliyaviy rejalarning bajarilishi, xo‘jalik moliyaviy operatsiyalarning borishi jarayonida amalga oshiriladi. Uning vazifasi qilingan xarajatlar, olingan daromadlarning to‘g‘riligi, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini, byudjet bilan aloqalarning to‘laligi va muddatidaligini o‘z vaqtida nazorat qilishdan iborat. Mazkur nazorat moliya xizmatlari tomonidan xar kuni yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida o‘tkaziladi. Operativlik va moslashuvchanlik bu jarayonda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Yakuniy moliyaviy nazorat amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarning to‘g‘riligi, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish va taftish qilish shaklida tashkil qilinadi. Uning asosiy vazifasi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanishdagi kamchiliklar va xatoliklarni aniqlash, yetkazilgan zararni qoplash, aybdor shaxslarni ma‘muriy va moddiy javobgarlikka tortish, kelgusida moliyaviy intizomni buzish xllarini oldini olish bo‘yicha chora – tadbirlar qabul qilishdan iborat.

Moliyaviy nazorat mexanizmi takomillashib va rivojlanib bormoqda. Ularning oldiga iqtisodiyotni moliyaviy sog‘lomlashtirish va mamlakatdagi o‘zaro moliyaviy aloqalarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan yangi vazifalar qo‘yilmoqda.

4. Moliya munosabatlarining tarkibi, shakllari va ularni boshqarish xususiyatlari.

Moliyaviy munosabatlarning muxim tarkibiy qismi byudjet munosabatlari hisoblanadi.

Byudjet munosabatlari deb respublika, regional, va maxalliy davlat organlarining xo‘jalik sub‘ektlari, shuningdek axolii bilan markazlashgan pul fondlarini shakillantirish va ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlarga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet tizimi to‘g‘risida ” gi qonun loyixasida (Avgust, 1999 yil) davlat byudjetiga shunday ta‘rif beriladi:

Davlat byudjeti -daromad manbalari va ulardan tushadigan tushumlarni ko‘zda tutadigan, shuningdek xarajat hajmi va yo‘nalishi qaysi maqsadlarga ajratilishi va muddatini ko‘rsatuvchi davlatning markazlashgan (Oliy Majlis tomonidan shakillanish va ishlatish rejasi tasdiqlanadigan) pul fondlaridir.

Moliyaviy resurslarni byudjet orqali birlashtirish davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Byudjet orqali markazlashgan pul resurslarini to‘plash va davlat organlari tomonidan belgilangan maqsadlarga xarajatlar amalga oshiiladi.

Bu byudjet orqali milliy daromadning ma‘lum qismini to‘plash va uni qayta taqsimlashni bildiradi. Shuning bilan moliya tizimining taqsimlash funksiyasi amalga oshiriladi.

Respublika va mahalliy davlat organlari byudjet munosabatlari orqali taqsimlangan milliy daromadni o‘z ixtiyoriga oladi va aniq belgilangan maqsadlarga yo‘naltiradi.

Byudjet moliya resurslarini kerakli soha va yo‘nalishlarda jamlab davlatni iqtisodiyotni boshqarish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkoniyat beradi. Bunda davlat resurslarini daromad qismi bo‘yicha shakillanishi, undan samarali foydalanish nazorat qilinadi (moliya tizimining nazorat funksiyasi). Taqsimlash va nazorat funksiyalari orqali byudjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati yuzaga chiqadi. Shu yo‘l bilan byudjet davlat daromadlari va xarajatlarini rejalashtiruvchi moliyaviy munosabatlarni bildiradi. Byudjet ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘sir etuvchi qudratli iqtisodiy dastak sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat byudjeti moliya tizimining muxim bo‘g‘ini sifatida mamlakatning asosiy moliya rejasini tashkil etuvchi va foydalanuvchi umumdavlat pul fondidir. U mamlakatni boshqarishda ishtirok etadigan boshqa moliyaviy dastaklar ichida eng muxim o‘rinni egallaydi. Ahamiyatli tomoni shundaki, u o‘zida jamiyat daromadining ma‘lum qismini mujassamlashtiradi.

Byudjet qurilishining mohiyatining ochib berishda biz byudjet tizimining bo'g'inlarini, uni tashkil etish va boshqarish, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tarkibini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Respublika byudjeti;
2. qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va maxalliy byudjetlar;
3. Davlatning maqsadli fondlarining byudjetlari.

Davlat moliyasi davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini bajarish uchun pul mablag'lari bilan ta'minlashga undalgan moliya tizimining muxim bo'g'inidir. Davlat moliyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

Davlat byudjeti.

Byudjetdan tashqari fondlar.

Davlat krediti.

Davlat korxonalari moliyasi .

Sanab o'tilgan turli xildagi funksional vazifalarni bajaradigan zvenolar bo'yicha davlat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarmoqli va hududiy muammolarining yechimlari keng miqyosda ta'sir ko'rsatadi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan byudjetdan tashqari fondlar tegishli hukumat organlarining byudjetiga bog'liq bo'lmaydi va mustaqil yuridik shaxs hujuhiga egadirlar. Byudjetdan tashqari fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil eiladi.

Byudjetdan tashqari fondlar -umumdavlat moliyasining muximbo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan, davlat hukumatining yuqori organlarining tegishli aktlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

Byudjetdan tashqari fondlarni:

Konsolidatsiyalashgan (birlashtirilgan) byudjetga qo'shiladigan fondlar;

Konsolidatsiyalashgan (birlashtirilgan) byudjetga qo'shilmaydigan fondlarga ajratish mumkin.

Funksional jixatiga ko'ra va boshqaruv darajasiga ko'ra byudjetdan tashqari fondlar turli xil bo'ladilar. Ularni funksional jixatiga ko'ra iqtisodiy yoki ijtimoiy fondlarga bo'lish mumkin. Boshqaruv darajasiga qarab esa umumdavlat, respublika va regional fondlarga bo'lish mumkin.

O'zgarishga boy iqtisodiy sharoit ko'pincha boshqaruv qarorlarini tez qabul qilish zarurligini belgilab qo'yadi, shu qatorda moliyaviy resurslarni qayta taqsimlanishida ham. Byudjet mablag'laridan foydalanishni hukumat organlari qonun asosida qat'iy tasdiqlab bersa, byudjetdan tashqari fondlar esa ijroiya orqali belgilanadi. qonun asosida tasdiqlangan byudjet parlament tomonidan nazorat qilinadi, byudjetdan tashqari fondlar esa qonun chiqaruvchi organlar tomonidan nazorat qilinmaydi. Bu ham byudjetdan tashqari fondlarni iqtisodiy sharoitga operativ moslashishini tezlatadi.

Byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etilishining movofiqligini ta'minlovchi Yana bir muhim omil-bu byudjet taqchilligidir. Xarajatlarning daromaddan o'sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va axolidan tushgan mablag'larni qayta guruxlanishini xam talab etadi. Va nixoyat, xo'jalik yuritishning va xususiylashtirishning ko'p qirrali shakillari, byudjet shakillari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag'larni qayta taqsimlashni Yangi usullarini qo'llash zaruriyatini qat'iy talab etadi.

Shunday qilib, byudjetdan tashqari fondla-bu, jamiyatning ayrim mablag'larini moliyalashtirish va kompleks ravishda operativ mustaqillik asosida sarflash uchun, davlat orqali jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish usulidir. g'arb mamlakatlrida bnday fondlarning soni 30 dan 80 gachadir.

Byudjetdan tashqari fondlar o'z maqsadli yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiyga, boshqarish darajasi bo'yicha esa davlat va maxaliy fondlarga bo'linadi.

Bozor munosabatlariga o'tish insonning ijodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishga, boqimandalikni bartaraf etishga, yo'qolib ketgan egalik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina maxsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Shu borada muxim masalalardan biri: davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish yo'li, Yangi paydo bo'layotgan nodavlat, ya'ni ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan va axoliga xizmat ko'rsatayotgan xususiy, aksionerlik, jamoa va boshqa korxonalarning qo'llab-quvvatlash bilan aralash, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirishdir. Malakatimizda byudjetdan tashqari fondlarning ijtimoiy ahamiyati katta. Tadbirkorlikni rivojlantirishni, kichik va o'rta biznesni tashkil etish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bo'lib investitsiyalarni jalb etish va boshqalar byudjetdan tashqari fondlarning vazifasi hisoblanadi.

Sanab o'tilgan turli xildagi funksional vazifalarni bajaradigan zvenolar bo'yicha davlat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarmoqli va xududiy muammolarning yechimlari keng miqyosida ta'sir ko'rsatadi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan byudjetdan tashqari fondlar tegishli hukumat organlarining byudjetiga bog'liq bo'lmaydi va mustaqil yuridik shaxs xususiga egadirlar. Byudjetdan tashqari fondlar hukumat organlar qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi.

Byudjetdan tashqari fondlarga tushadigan mablag'larning foydalanish yo'nalishlari, bu fondlarni maqsadlariga, konkret iqtisodiy sharoitga qarab ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan rejalar asosida belgilanadi. Mablag'larning bir qismi tasis faoliyatga yo'naltiriladi, hamda qimmatli qog'ozlarni olish uchun xam yo'naltirilishi mumkin. Byudjetdan tashqari fondlar investirlar va moliyaviy bozorning qatnashchisi bo'lishi mumkin, chunki:

Birinchidan, odatda pul mablag'lari bilan foydalanish vaqti ularning vujudga kelishi bilan to'g'ri kelmaydi.

Ikkinchidan, investitsion faoliyat natijasidagi daromadlar tegishli fondlarning xarajatlarning moliyalashtirish uchun qo'shimcha manba bo'ladi.

Byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etish g'uruhiyaga respublika va maxalliy organlar ega. Respublika darajasida tashkil etilgan byudjetdan tashqari fondlar, odatda maxalliy hukumat organlar ixtiyoriga bir qismini ajratish bilan xarakterlanadi.

Bu respublika va maxalliy byudjetdan tashqari fondlarga tushadigan soliqlarning ulushini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunday yo'l bilan nafaqa fondi, davlat ijtimoiy sug'urta fondi, axolini bandlik fondi va boshqalar tashkil etiladi.

Maxalliy manbalar evaziga maxalla darajada o'z byudjetidan tashqari fondlar tashkil etiladi. Ularning ichida maxallani rivojlantirish uchun, kam ta'minlangan axolii qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, fondlarni, tabiatni saqlash fondlarni va boshqalarni ajratish mumkin.

Maqsadli byudjetdan tashqari fondlar odatda davlat hukumat organlari ixtiyorida bo'ladi, lekin ular operativ boshqarilishi turli vash u qatorda maxsus ma'muriy apparat orqali olib borilishi mumkin.

Boshqaruv tuzilmalar, fondlar bilan foydalanishi uchun qonun bilan belgilangan ma'lum huquqlarga va majburiyatlarga ega.

Byudjetdan tashqari fondlar yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Korxonalar, tashkilotlarga kreditlar, supsidiyalar berish moliyalashtirish yo'llari bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi;

Umuman, ijtimoiy infrastrukturani moliyalashtirish, supsidiya, pesiya va nafaqalar berish yo'llari axoliga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;

Chet El davlatlariga shu qatorida xorijiy partiyorlarga zayomlar berish va boshqalar.

Byudjetdan tashqari fondlarni o'zfaoliyatini amalga oshirishni tashkil etish davlat xukumat organlarining ixtiyorida bo'ladi. Ularni jamlash va foydalanish tartibi esa tegishli qonunlar bilan qat'iy belgilanadi.

Investitsiya fondi (IF)-yuridik shaxs bo'lib, u ko'pchilik kapital egalarining jamoa investitsiyalarini boshqaradi. Investitsiya fondlari kredit tizimi rivojlangan moliya muassasalarining juda muxim ko'rinishlaridan biridir.

Investitsiya fondi aksiyalarini bozordagi qiymati fondning barcha qo'yilmalari (Aktivlari) sof bozor qiymatiga (majburiyatlarni chegirib), o'zi iqargan aksiyalari miqdoriga taqsimlangan qiymatga muvofiq keladi. Boshqacha aytganda, investitsiya fondi egalik qilayotgan qimmatli qog'ozlar qiymati qanchalik o'sib borsa, investitsiya fondiga tegishli aksiyalar qiymati xam ko'tariladi va aksincha.

Davlat daromadlarini moliyaviy yo'l bilan to'plashning Yana bir turi-bu davlat zayomlaridan, ya'ni davlat kreditidan keladigan daromaddir. Davlat krediti bu shunday pul munosabatlari tartibiki, unda davlat qarzdor bo'ladiyu kreditor bo'lib esa yuridik yoki jismoniy shaxslar chiqadilar.

Davlat krediti birinchi marta kapitalning dastlabki jamg'arilishi davrida, ya'ni XVI-XVIII paydo bo'lgan edi. Yevropa yirik mamlakatlarining xarbiy yurishlari orqali davlat xarajatlari, xazinaga tushadigan soliqlardan anchagina ko'payib ketdi. Xarajatlarning daromadlar bilan tenglashtirishda davlat krediti dastak bo'lib xizmat qilgandi.

Xozirgi zamon rivojlangan davlatlarida esa davlat krediti o'zining eng yuqori darajasiga ko'tarildi, chunki xozirdavlatlarning xarajatlari o'sib bormoqda, uni qoplash uchun davlat doim soliq bilan birgalikda davlat kreditiga murojat qiladi. Ayniqsa davlat krediti kabi daromadlar xisobiga byudjet kamomatini qoplash jarayonida ko'proq muxtojlik seziladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliyaning ob'ektiv zarurligi va iqtisodiy mohiyati?
2. Moliyaning funksiyalari va vazifalari?
3. Moliyaning taqsimlash funksiyasi amal qilishidagi taqsimot ob'ektlari va sub'ektlari?
4. Moliyaning nazorat funksiyasi va uning turkumlanishi?
5. Moliya munosabatlarining tarkibiy tuzilishi va turkumlanishi?

2-mavzu. Moliyaning funksiyalari va genezisi (taraqqiyoti)

Ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sharoitlarida moliyaning rivojlanish konuniyatini taxlil qilish moliyaviy munosabatlarning mohiyatida umumiy belgilar mavjudligidan guvohlik beradi. Bu moliyani amal qilishining ob'ektiv sabablari va shartlarini saklanib kolinangligi bilan ta'riflanadi. Bularning orasida ikkitasi ajralib turadi: tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va bu munosabatlarning sub'ekti sifatida davlatning amal qilishi. Boshka kiymat kategoriyalaridan farkli ravishda, misol uchun, pul, kredit, mexnatga xak tulash fondi va boshkalar, moliya davlatning amal qilishi bilan organik boglikdir.

Birok, barcha moliyaviy munosabatlar mohiyatidagi umumiy belgilarning mavjudligi ular urtasidagi ma'lum farqlarni rad etmaydi.

Ma'lumki, moliya tizimi moliya munosabatlarining turli buginlari yigindisini bildiradi. Ularning xar biri pul mablaglari fondlarini shakllantirish va ishlatilishidagi xususiyatlari, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi rolining turlichaligi bilan xususiyatlanadi. Moliya tizimi moliya munosabatlarining kuyidagi soxalarini uz ichiga oladi: davlat byudjeti, nobyudjet fondlar, davlat krediti, mulkiy va shaxsiy sug'urta fondlari, fond bozori, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar moliyasi.

Barcha sanab utilgan moliyaviy munosabatlarni ikkita kichik guruxga bulish mumkin. Bular - makrodarajada kengaytirilgan takror ishlab chiqarish extiyojlarini ta'minlovchi umumdavlat moliyasi, xamda mikrodarajada takror ishlab chiqarish jarayonini pul mablaglaribilan ta'minlash uchun kulaniladigan xujalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. Mazkur guruxlashni shartli tarzda kuyidagi sxema orkali ifodalash mumkin.

Moliya tizimi

Umumdavlat moliyasi :

- Davlat byudjeti;
- Nobyudjet fondlar;
- Davlat krediti;
- Mulkiy va shaxsiy sug'urta fondlari;
- Fond bozori.

Xujalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi:

- Davlat korxonalari moliyasi;
- Jamoa korxonalari moliyasi;
- Xususiy firmalar moliyasi;
- Xissadorlik jamiyatlari moliyasi;
- Ijara mulki zaminidagi korxonalar moliyasi;
- Kushma korxonalar moliyasi;
- Jamoat tashkilotlari moliyasi va boshkalar.

Moliya tizimini aloxida buginlarga ajratish xar bir buginning vazifalaridagi farklanishga, xamda markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish usullaridagi farklanishga asoslanadi. Umumdavlat markazlashgan pul fondlari moddiy ishlab chiqarish soxalarida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va kayta taqsimlash yuli bilan tuziladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi davlatning bajaradigan muxim roli uning ixtiyorida moliyaviy resurslarning katta qismini markazlashtirish zaruriyatiga olib keladi. Ularni ishlatish shakllari davlat byudjeti va nobyudjet fondlari orkali namoyon buladi. Bular xisobidan davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vazifalarini xal etish extiyoji ta'minlanadi. Pul fondlarini tashkil kilish va ishlatish shakllari va usullari moliya tizimining kredit va sug'urta buginlari orkali kulaniladi. Markazlashmagan pul fondlari korxonalarini uzlarining pul daromadlari va jamgarmalari xisobidan tashkil topadi.

YAgona moliya tizimining asosi korxonalar moliyasi xisoblanadi, chunki ular moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Markazlashgan davlat fondlarining manbai moddiy ishlab chiqarish soxasida yaratilayotgan milliy daromad xisoblanadi.

Umumdavlat moliyasi xalk xujaligining barcha tarmoklari rivojlanishining ma'lum sur'atlarini ta'minlashda, moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoklari va mamlakat xududlari urtasida, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soxalari urtasida xamda mulk shakllari, axolining aloxida gurux va katlamlari urtasida kayta taqsimlashda yetakchi rol uynaydi.

Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlatning faol moliyaviy siyosati asosidagina mumkin buladi.

Moliya tizimi orkali davlat markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini, jamgarish va iste'mol fondlarini soliqlar, davlat byudjeti xarajatlari, davlat kreditini kullash bilan shakllantirishga ta'sir utkazadi.

Davlat byudjeti moliya tizimining bosh bugini xisoblanadi. U davlat boshkaruv organlari funkciyalarini ta'minlash uchun markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish shaklidir.

Davlat byudjeti mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi xisoblanadi va konuniy tarzda Oliy Majlis tomonidan tasdiklanadi. Davlat byudjeti orkali davlat xalk xujaligi tarakkiyotini, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni, mudofaani, davlat xokimiyat va boshkaruv organlarini saklashni moliyalashtiradi.

Nobyudjet fondlar - bu davlat xukumati va maxalliy xokimiyatlarning byudjetga kiritilmaydigan xarajatlarni moliyalashtirish bilan boglik bulgan mablaglaridir. Nobyudjet fondlarning shakllanishi oddiy soliq tulovchi uchun soliqlardan

xech kanday fark kilmaydigan majburiy maqsadli ajratmalar xisobidan amalga oshiriladi. Nobyudjet fondlarga ajratmalar summasining asosiy qismi tannarx tarkibiga kiritiladi va ish xaki fondiga nisbatan foizlarda urnatiladi.

Nobyudjet fondlarning maqsadga muvofik amal kilishi muxim ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirishni operativ amalga oshirish imkonini beradi. Davlat byudjetidan farkli ravishda nobyudjet fondlar mablaglarining sarflanishi xokimiyat organlari tomonidan kamrok nazorat kilinadi. Bu, bir tomondan, ularning ishlatilishini yengillashtiradi, boshka tomondan esa, bu mablaglarni tula bulmagan xajmda sarflash imkonini beradi. SHuning uchun nobyudjet fondlar mablaglari sarflanishi nazoratini kuchaytirish maqsadida nobyud-jet fondlarni ularning sarflanishi boskichida maqsadli yunalishni saklagan xolda davlat byudjetiga konsolidaciya kilindi (birlashtirildi).

Sug'urta - ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan boglikdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muxim sharti uning uzliksizligi va tuxtovsizligi xisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formaciyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda xam mavjud extiyojlarini kondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshka favkulodda xodisalarning (yonginlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy okibatlari ta'sirida tuxtasa yoki buzulsa, u xolda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular kuzlangan natijani bermasa, u xolda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini kayta tiklashga majbur buladi.

Inson va tabiiy ofatlar urtasidagi karama-karshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri birinchi navbatda, tabiiy va boshka ofatlarning salbiy okibatlarini oldini olish, bartaraf kilish va lokalizaciya kilish, xamda yetkazilgan zararni suzsiz qoplash buyicha insonlar urtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu ob'ektiv munosabatlar insonlarning erishgan xayot darajasini saklab kolishga bulgan real va mavjud extiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni aloxida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yigindisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtaviy ximoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi xisoblanadi. Ammo, moliya tulaligicha daromadlarni taqsimlash bilan boglik bulsa, sug'urta esa fakatgina kayta taqsimlash munosabatlarinigina kamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini kuyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada tusatdan, oldindan kuzda tutilmagan va yengib bulmaydigan xolatlar, ya'ni saklagan xolda davlat byudjetiga konsolidaciya kilindi (birlashtirildi).

Sug'urta - ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan boglikdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining

muxim sharti uning uzliksizligi va tuxtovsizligi xisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formaciyalarda, tu jumladan rivojlangan jamiyatda xam mavjud extiyojlarini kondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshka favkulodda xodisalarning (yonginlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy okibatlar ta'sirida tuxtasa yoki buzulsa, u xolda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular kuzlangan natijani bermasa, u xolda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini kayta tiklashga majbur buladi.

Inson va tabiiy ofatlar urtasidagi karama-karshilik bilan - asospangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, biri nchi navbatda, tabiiy va bashka ofatlarning salbiy okibatlarini oldini olish, bartaraf kilish va lokalizaciya kilish, xamda yetkazilgan zararni suzsiz qoplash buyicha insonlar urtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu - ob'ektiv munosabatlar insonlarning erishgan xaet darajasyni saklab kolishga bulgan real va mavjud extiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni aloxida xususiyatlar ajratib turadm va ularning yigindisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtavmy ximoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategori sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi xisoblanadi. Ammo, moliya tulaligicha daromadlarni taqsimlash bilan boglik bulsap, sug'urta esa fakatgina kayta taqsimlash munosabatlarinigina kamrab oladi.

Sug'urtaning. xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sugurkada tusatdan, oldindan kuzda tutilmagan va yengib bulmaydigan xolatlar, ya'ni sug'urta xolatlari ektimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi kayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.
2. Sug'urtada kurilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar urtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar kuruvchi xujaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bulish extimollogiga asoslanadi, ayniksa ishtirokchilar soni yetarlicha katta bulganda.

Zararni bunday qoplashni tashkil kilish uchun maqsadga yunaltirilgan sug'urta fondi tashkil kilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari xisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari fakatgina uni tadvkil kilgan urtasida ishlatiladi, sug'urta badalining xajmi esa xar bir katnashchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. SHuning uchun, sug'urta katnashchilarining doirasi kanchalik keng bulsa, sug'urta badalining xajmi shunchalik oz va sug'urta x,am samarali buladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa va yuz millionlab ob'ektlar sug'urtalansa, u xolda minimal badallar xisobiga maksimal zararlarni qoplash imkoni paydo buladi.

3. Sug'urta zararlarni ioplashni x;ududiy birlik va malum vakt davomida amalga oshirishni kuzda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchi xujaliklar urtasida sug'urta fondini xududlar buyicha samarali kayta taqsimlash uchun yetarlicha katta xudud va anchagina sug'urtalashga tegishli ob'ektlar talab kilinadi. Fakatgina Mazkur shartga rioya kilish bilangina katta xududlarni kamrab oluvchi tabiiy ofatlar yetkazgan, zararlarni qoplash imkoni buladi.

Zararni sururta yordamida qoplash ma'lum vav;t davomida amalga oshiriladn, chunki iktiyoriy sug'urta doimo muddat bilan chegaralanadi.

Sug'urta - bu uning katnashchilari urtasmda kurilishi mumkin bulgan zararlarni qoplashga muljallangan maqsadli sururta fondlarini badallar kisobidan shakllantirish bilan boglik bulgan kayta taqsimlash munosabatlari yigindisi.

Suturtaning iqtisodiy moxiyatiga uning funkciyalari mos keladi. Ular sug'urtani moliya tizimining bir bugini sifatida xususiyatlarini oydinlashtirishning tashki shakllari xisoblanadi.

Sug'urtaning turtta funciyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik.

2. Oldini olish.
3. Jamgarma.
4. Nazorat.

Asosiysi tavakkalchilik funkciyasi xisoblanadi, chunki sug'urtaviy tavakkal zarar extimolligi sifatida talofat kurgan xujaliklarga pullik yordam kursatish buyicha sug'urtaning asosiy yunalishi bilan bevosita boglik. Aynan tavakkalchilik funkciyasining amal kilish doirasida suturta ishtirokchilari urtasida bulishi mumkin bulgan sug'urta xodisalari okibatlari bilan boglik pul shakklidagi kiymatning kayta taqsimlanishi ruy beradi. Oldini olish funkciyasi sug'urta fondi mablaglarining bir qismi xisobidan sug'urta tavakkalchiligini kamaytirish buyicha tadbirlarni moliyalashtirishga yunaltirilgan. Xayot sug'urtasida suturta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan xayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari buyicha mablaglarni jamgarishda ancha yakinlashadi. Xayot sug'urtasi orkali pul mabpaglarini jamgarish oilaviy sharoitda sug'urtaviy ximoyaga bulgan extiyoj bilan boglikdir. SHu bilan sug'urta jamgarish funkciyasini xam bajarishi mumkin. Sug'urtaning nazorat funkciyasi sug'urta fondini kat'iy maqsadli shakllantirilishi va uning mablaglaridan tugri foydalanishdan iborat. Mazkur funkciya yuqoridagi uch specifik funkciyalardan kelib chikadi va konkret sug'urta munosabatlarida ular bilan birga namoyon buladi. Nazorat funkciyasiga mos ravishda konunchilik va instruktiv xujjatlar asosida sug'urta amallarini tugri bajarilishi ustidan moliyaviy sug'urta nazorati amalga oshiriladi.

Sug'urtani amalga oshirish jarayonida sug'urta ishtirokchilarining turlicha sug'urtaviy manfaatlarini namoyon bulishi, suturtaga tegishli ob'ektlarning turlichaligi, sug'urta xodisalarining keng kulamliligi va boshka omillar bilan boglik bulgan murakkab specifik munosabatlar yigindisi yuzaga keladi. SHu munosabat bilan u yoki bu konkret sug'urta munosabatlarini maxsus terminologiya yordamida aks ettirish zaruriyati tabiiydir.

Sug'urta terminologiyasi yordamida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar urtasida bir tilda suxbat olib borish, sug'urta shartlarini tushunish, unda ishtirok etayotgan tomonlarning xukuk va majburiyatlarini aniqlash, sheriklar bilan amaliy munosabatlarii olib borish, reklama va boshka sug'urta ishlarini amalga oshirish mumkin buladi.

Mulkiy va shaxsiy sururta fondlari baxtsiz xodisalar va tabiiy ofatlar natijasida kurulishi mumkin bulgan zararlarning qoplanishini ta'minlaydi, shuningdek ularning oldini olishga kumaklashadi. Fond bozori moliya-kredit tizimi burinlarida muxim urin egallaydi. Fond bozorini mustakil tarzda aloxida qismlarga bulish mumkip, chunki fond bozori maxsus moliyaviy aktivlar – kimmatli kogoslar savdosi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarning muxim kurinishidan iborat.

Fond bozorining vazifasi tarmoklarga yuqori daraja daromadli kapital okib kirishi jarayonini ta'minlash xisoblanadi. Fond bozori xam kredit bugini kabi vaktincha bush pul mablarlarini jalb kilish va ulardan samarali foydalanishga xizmat kiladi.

Xujalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi mamlakat yagona moliya tizimining asosi xisoblanadi.- U ijtimoiy maxsulot va milliy daromadni yaratish va taqsimlash jarayoniga xizmat kursatadi xamda markazlashgan pul fondlarini shakllantirishning bosh omili xisoblanadi. Korxonalar moliyasining xolatiga markazlashgan pul fondlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi bevosita ta'sir kursatadi. Bunda shuni aloxida ta'kidlash lozimki, korxonaldr moliyasidan maxsulot ishlab chiqarish va realizaciya kilish jarayonkka faol foydalanish bu jarayonda byudjet, bank krediti xamda sug'urtaning ishtirokini rad etmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xujalik-operativ 'a moliyaviy mustakillik asosida korxonalar uz faoliyatlarini albatta foyda olish maqsadida tijorat asosida amalga oshiradilar. Ular mustakil ravishda maxsulot realizaciyasi tushumini taqsimlaydilar, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi fondlarni shakllantiradilar va sarflaydilar, kredit resurslari va fond bozori resurslaridan foydalanib maxsulot

ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur mablaglarni topadilar. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi korxonalar mustakilligining kengayishini, arziyasini davlat daromadlarini bartaraf qilishning va shu bilan birga ishning xalqaro natijasi uchun javobgarlik xisobining oshirishini ta'minlaydi.

Byudjet muvofiqatlarini davlat, respublika, regional, va maxalliy davlat organlarining xalqaro sub'ektlari, shuningdek axoli bilan markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish bilan bogliq bulgan moliyaviy munosabatlarga aytiladi.

Uzbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi konun loyihasida (avgust, 1999Y.) davlat byudjetiga shunday ta'rif beriladi:

Davlat byudjeti - daromad manbalari va ulardan tushadigan tushumlarni kuzda tutadigan, shuningdek xarajat hajmi va yunalishi kaysi maqsadlarga ajratilishi va muddatini kursatuvchi davlatning markazlashgan (Oliy Majlis tomonidan shakllanish va ishlatish rejasini tasdiqlanadigan) pul fondlaridir.

Moliyaviy resurslarni byudjet orkali birlashtirish davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Byudjet orkali markazlashgan pul resurslarini toplash va davlat organlari tomonidan belgilangan maqsadlarga xarajatlarni amalga oshiriladi.

Bu byudjet orkali milliy daromadning ma'lum qismini toplash va uni qayta taqsimlashni bildiradi. Shuning bilan moliya tizimining taqsimlash funktsiyasi amalga oshiriladi.

Respublika va maxalliy davlat organlari byudjet munosabatlari orkali taqsimlangan milliy daromadni uz ixtirga oladi va aniq belgilangan maqsadlarga yunaltiradi.

Byudjet moliya resurslarini kerakli soxta va yunalishlarda jamlab davlatni iqtisodiyotni boshqarish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkoniyat beradi. Bunda byudjet resurslarining daromad BISHM buyicha shakllanishi, undan samarali foydalanish nazorat qilinadi (moliya tizimining nazorat funktsiyasi). Taqsimlash va nazorat funktsiyalari orkali byudjetning shtetodiy kategoriya sifatidagi muvofiqat yuzaga chikadi. Shu yul bilan byudjet davlat daromadlari va xarajatlarni rejalashtiruvchi moliyaviy munosabatlarni bildiradi. Byudjet ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi kudratli iqtisodiy dastak sifatida yuzaga chikadi.

Sug'urtani amalga oshirish jarayonida sug'urta ishtirokchilarining turlicha sug'urtaviy manfaatlarini namoyon bulishi, suturtaga tegishli ob'ektlarning turlichaligi, sug'urta xodisalarining keng kulamliligi va boshka omillar bilan boglik bulgan murakkab specifik munosabatlar yigindisi yuzaga keladi. SHu munosabat bilan u yoki bu konkret sug'urta munosabatlarini maxsus terminologiya yordamida aks ettirish zaruriyati tabiiydir.

Sug'urta terminologiyasi yordamida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar urtasida bir tilda suxbat olib borish, sug'urta shartlarini tushunish, unda ishtirok etayotgan tomonlarning xukuk va majburiyatlarini aniqlash, sheriklar bilan amaliy munosabatlarii olib borish, reklama va boshka sug'urta ishlarini amalga oshirish mumkin buladi.

Mulkiy va shaxsiy sururta fondlari baxtsiz xodisalar va tabiiy ofatlar natijasida kurulishi mumkin bulgan zararlarning qoplanishini ta'minlaydi, shuningdek ularning oldini olishga kumaklashadi.

Fond bozori moliya-kredit tizimi burinlarida muxim urin egallaydi. Fond bozorini mustakil tarzda aloxida qismlarga bulish mumkip, chunki fond bozori maxsus moliyaviy aktivlar – kimmatli kogoslar savdosi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarning muxim kurinishidan iborat.

Fond bozorining vazifasi tarmoklarga yuqori daraja daromadli kapital okib kirishi jarayonini ta'minlash xisoblanadi. Fond bozori xam kredit bugini kabi vaktincha bush pul mablarlarini jalb kilish va ulardan samarali foydalanishga xizmat kiladi.

Xujalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi mamlakat yagona moliya tizimining asosi xisoblanadi.- U ijtimoiy maxsulot va milliy daromadni yaratish va taqsimlash jarayoniga xizmat kursatadi xamda markazlashgan pul fondlarini shakllantirishning bosh omili xisoblanadi. Korxonalar moliyasining xolatiga markazlashgan pul fondlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi bevosita ta'sir kursatadi. Bunda shuni aloxida ta'kidlash lozimki, korxonalar moliyasidan maxsulot ishlab chiqarish va realizaciya kilish jarayonkka faol foydalanish bu jarayonda byudjet, bank krediti xamda sug'urtaning ishtirokini rad etmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xujalik-operativ 'a moliyaviy mustakillik asosida korxonalar uz faoliyatlarini albatta foyda olish maqsadida tijorat asosida amalga oshiradilar. Ular mustakil ravishda maxsulot realizaciyasi tushumini taqsimlaydilar, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi fondlarni shakllantiradilar va sarflaydilar, kredit resurslari va fond bozori resurslaridan foydalanib maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur mablaglarni topadilar. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlaiishi korxonalar mustakilligining kengayishini, arziyas daplat aralashuvini bartaraf kilishning va shu bilan birga ishning xakpciy natijasi uchun javobgarlik xissining oshirinishini ta'minlaydi.

Byudjet munosabatlari deb respublika, regional, va maxalliy davlat organlarining xujalik sub'ektlari, shuningdek axoli bilan markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish bilan bogliq bulgan moliyaviy munosabatlarga aytiladi.

Uzbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi konun loyihasida (avgust, 1999Y.) davlat byudjetiga shunday ta'rif beriladi:

Davlat byudjeti - daromad manbalari va ulardan tushadigan tushumlarni kuzda tutadigan, shuningdek xarajat xajmi va yunalishi kaisi maqsadlarga ajratilishi va muddatini kursatuvchi davlatning markazlashgan (Oliy Majlis tomonidan shakllanish va ishlatish rejasini tasdiklanadigan) pul fondlaridir.

Moliyaviy resurslarni byudjet orkali birlashtirish davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Byudjet orkali markazlashgan pul resurslarini tuplash va davlat organlari tomonidan belgilangan maqsadlarga xarajatlarni amalga oshiriladi.

Bu byudjet orkali milliy daromadning ma'lum qismini tuplash va uni kayta taqsimlashni bildiradi. Shuning bilan moliya tizimining taqsimlash funkciyasi amalga oshiriladi

Respublika va maxalliy davlat organlari byudjet munosabatlari orkali taqsimlangan milliy daromadni uz ixtirga oladi va aniq belgilangan maqsadlarga yunaltiradi.

Byudjet moliya resurslarini kerakli soxa va yunalishlarda jamlab davlatni iqtisodiyotni boshkarish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkoniyat beradi. Bunda byudjet resurslarining daromad BISHI buyicha shakllanishi, undan samarali foydalanish nazorat kilinadi (moliya tizimining nazorat funkciyasi). Taqsimlash va nazorat funkciyalari orkali byudjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati yuzaga chikadi. Shu yul bilan byudjet davlat daromatlari va xarajatlarni rejalashtiruvchi moliyaviy munosabatlarni bildiradi. Byudjet ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi kudratli iqtisodiy dastak sifatida yuzaga chikadi.

Davlat byudjetda moliya tizimining muxim bugini sifatida mamlakatning asosiy moliya rejasini tashkil etuvchi va foydalanuvchi umumdavlat pul fondidir. U mamlakatni boshkarishda ishtirok etadigan boshqaruvchi moliyaviy dastaklar ichida eng muxim urinni egallaydi. Ahamiyatli tomoni shundaki, u uzida jamiyat daromadining ma'lum qismini mujassamlashtiradi.

Byudjet kkkilishining mohiyatini ochib berishda biz byudjet tizimining burgshlarini, uni tashkil etish va boshkarish, Uzbekistoi Respublikasi davlat byudjetining tarkibini kurib chikamiz.

Uzbekiston Respublikasi davlat byudjeta kuyidagilarni uz ichiga oladi:

1. Respublika byudjeta; I
2. Korakalpogiston Respublikasi byudjeti va maxalliy byudjetlar;
3. Davlatning maqsadli fondlarining byudjetlari.

Davlat moliyasi davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funkciyalarini bajarish uchun pul mablaglari bilan ta'minlashga kndalgan MOLIYA tizimining muxim bo'g'inidir. Davlat moliyasi tarkibiga kuyidagilar kiradi: -

davlat byudjeti

byudjetdan tashkari fondlar.

Davlat krediti

Davlat korxonalari moliyasi.

Sanab utilgan turli xildagi funkcional vazifalarni bajaradigan zvenolar buyicha davlat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarmokli va xududiy muammolarining yechimlari keng miqyosda ta'sir kursatadi.

Davlat moliyasi tarkibida aloxida urinni egallaydigan byudjetdan tashkari fondlar tegishli xukumat organlarining byudjetiga boglik bulmaydi va mustaqil yuridik shaxs xukukiga egadirlar. Byudjetdan tashkari fondlar xukumat organlari kabul kilgan konun doirasida tashkil etiladi.

Byudjetdan tashkari fondlar — umumdavlat moliyasining muxim bogini bulib, ularning faoliyati kat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yullari kursatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yullarining tartibi aniqlab berilgan, davlat xukumatining yuqori organlarini tegishli aktlari asosida uz faoliyatini amalga oshiradilar.

-Byudjetdan tashkari fondlarni:

Konsolidatsiyalashgan (birlashtirilgan) byudjetga kushiladigan fondlar;

Konsolidatsiyalashgan (birlashtirilgan) byudjetga kushilmaydigan fondlarga ajratish mumkin. Funkcional jixatiga kura va boshkaruv darajasiga kura byudjetdan tashkari fondlar turli xil buladilar. Ularni funkcional jixatiga kura iqtisodiy yoki ijtimoiy fondlarga bulish mumkin. Boshkaruv darajasiga karab esa umumdavlat, respublika va regional fondlarga bulish mumkin.

Uzgarishga boy iqtisodiy sharoit kupincha boshkaruv karorlarini tez kabul kilish zarurligini belgilab kuyadi, shu katorda moliyaviy resurslarni kayta taqsimlanishida xam. Byudjet mablaglaridan foydalanishni xukumat organlari konun asosida kat'iy tasdiklab bersa, byudjetdan tashkari fondlar esa ijroiya organlari orkali belgilanadi. Konun asosida tasdiklangan byudjet parlament tomonndan nazorat kilinadi, byudjetdan tashkari fondlar esa konun chshkaruvchp organlar tomonidan nazorat kilinmaydi. Bu xam byudjetdan tashkari frndlarni iqtisodiy sharoitga operativ moslashishini tezlatadi.

Byudjetdan tashkari fondlarni tashkil etilishining muvofikligini ta'minlovchi yana bir muxim omil - bu byudjet takchilligidir. Xarajatlarni daromadidan usib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni fakat kidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va axolidan tushgan mablaglarni kayta guruxlanishini xam talab etadi. Va nixoyat, xujalik yuritishning va xususiy lashtirishning kup kirrali shakllari, byudjet shakllari bilan bir katorda jamiyatda pul mablaglarni kayta- ktaqsimlashni yangi usullarini kullash zaruriyatini kat'iy talab etadi.

SHunday kilib, byudjetdan tashkari fondlar - bu, jamiyatshshg ayrim mablaglarini moliyalashtirish va kompleks ravishda operativ mustakillik asosida sarflash uchun, davlat orkali jalb kilinadigan moliyaviy resurslarni kayta taqsimlash va foydalanish usulidir. Garb mamlakatlarida bunday fondlarning soni 30 dan 80 gachadir.

Davlat krediti bu shunday pul munosabatlar tartibiki, unda davlat karzdor bulib, karz beruvchi bulib esa yuridik yoki jismoniy shaxslar maydonga chikadilar.

Davlat krediti birinchi marta kapitalning dastlabki jamgarilishi davrida, ya'ni XVII-XVSH asrda paydo bulgan edi. Yevropa yirik mamlakatlarining xarbiy yurishlari orkali davlat xarajatlari, xazinaga tushadigan soliqlardan anchagina ko'payib ketdi. Xarajatlarni daromadlar bilan tenglashtirishda davlat krediti dastak bulib xizmat kilgandi.

Xozirgi zamon rivojlangan davlatlarida esa davlat krediti o'zining eng yuqori darajasiga kutarildi, chunki xozir davlatlarning xarajatlari usib bormokda, uni qoplash uchun davlat doim soliq bilan birgalikda davlat kreditiga murojaat kiladi. Ayniksa davlat krediti kabi daromadlar xisobiga byudjet kamomadini qoplash jarayonida kuprok muxtojlnk seziladi.

Zayomlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati xuddi soliqlar kabi davlatning muxim moliyalashtirish manbai xisoblanadi va davlat xazina majburiyatlarini ifodalaydi. Davlat krediti orkali olingan mablaglar rivojlangan davlatlar tomonidan fakat uzi emas, balki ularni foizlari bilan kaytarib berishi kerak ya'ni zayomlar, davlat kimmatli kogoszlari sifatida maydonga chikadi. Lekin rivojlangan mamlakatlarda kreditni kaytarish uchun ularning fakatgina bitta manbai — u xam bulsa soliqdan keladigan daromdlari mavjuddir. SHuning uchun zayomlar kanchalik kup chikarilsa, ularni kaytarish uchun shuncha kup soliq daromdlari talab etiladi.

Davlat krediti bilan xususiy kredit urtasndagi farkni tushunib olish lozim.

Davlat zayomlarn kancha kup chikarilsa, davlatnpg karzdorligi shuncha usib boradi. Rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarn usib borishi tufayli davlat kreditining axamiyati xam oshmokda.

Yuqorida kursatnlgan karzlar fakatgina markaziy davlat karzlaridir. Rivojlangan mamlakatlarda maxalliy xukumat organlari xam uz zayomlarini chikaradilar. Bu esa uz navbatida davlat karzlarini yanada oshirib yuboradi.

Xozirgi zamon tarakkiyotining xususiyatlaridan biri - yirik rivojlangan davlatlar bir vaktning uzida karzdor, kreditor va garant beruvchi, ya'ni kafil bulishi mumkin.

Davlatlarning karzdorlik faoliyatlarini biz yuqorida kurdik. Rivojlangan davlatlar yirik kreditor sifatida ishlab chiqarishga karz beradilar, berilgan karz ustama foizi bilan kaytarib olinadi. Ba'zida davlat kreditor sifatida ishlab chiqarishni kengaytirishga xissa kkshadi. Okibatda davlat krediti orkali mamlakat yalpi maxsuloti va milliy daromadini ko'payishiga ozmi-kupmi mikdorida ta'sir etadi. Rivojlangan davlat bu faoliyatini maxsus kredit tashkilotlari orkali olib boradi.

AQSHda xalk xujaligini elektrlashtirish, kishlok joylarda uy-joy kurulishiga kredit berish boshka mamlakatlarga nisbatan kengrok rivojlangan.

Xozirgi zamon rivojlangan davlatlarida davlatning kafolatchi sifatidagi faoliyati xam rivojlapayotir. Davlat kafil bulish orkali kreditning yunalishiga va xajmiga ta'sir kursatadi. Davlat krediti tarknbnni urganuvchi ayrim nktisodchilar davlat kafilligini yashirin davlat kdrzidir deb atayaptilar, chunki bu kafillik javobgarlik demakdir. Bozor nktisodisti sharoitidagi maxalliy xukut.gg organlarinipg, maxsus kredit tashkilotlari va bank kreditlari buyicha xam rivojlangan davlat javobgardir.

Moliyaviy siyosatning samaradorligini belgilash uchun jamiyatning extiyoji kanchalik kondirilganligi, qo'yilgan maqsadlar va vaznfalar amalga oshirilganligi baxolanishi lozim.

Moliyaviy siyosatga baxo berish v a unga tuzatish, kkshimchalar kiritish uchun birinchi navbatda jamiyat extiyojini kondira oladigan xoldagi ijtimoiy tarakkiyot rejasini aniq bilish zarur. U rejada bulajak va yakig kelajakda amalga oshirish vaktlari belgilangan chora-tadbirlar bulishi lozim. Fakat shundagina moliyaviy siyosatni ishlab chikish va muvaffakiyatli amalga oshirish va ob'ektiv baxolash mumkin.

Moliyaviy siyosatni asosiy yunalishlaridan biri — moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori xajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyliigi va uzluksizligini ta'minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potentsiali barcha uzgarishlarning moddiy bazasidir. SHuning uchun moliyaviy siyosatni aniqlash va uning strategik va taktik asoslarini ishlab chikish uchun davlatning moliyaviy axvoli, moliyaviy potentsiali, boshkacha kilib aytganda davlatning moliyaviy imkoniyatining ob'ektivligi xaqida aniq ma'lumotga ega bulish lozim. Xukukiy demokratik davlatda statistik moliyaviy kursatkichlar ijtimoiy, mulki bulishi kerak. SHuningdek moliyaviy xisobot ma'lumotlaridan muntazam ravishda konun doirasida uz vaktida tanishib chikishga imkoniyat yaratilishi lozim.

Moliyaviy resurslarni taqsimlash va kayta taqsimlash negizida kuyidagilarni tanlash turadi:

- moliyaviy resurslar egalarini va ularni taqsimlovchilarni;
 - moliyaviy resurslardan foydalanishda ustivor yunalishlarini;
 - moliyaviy resurslarni tashkil etish uchun manbalar va mablaglarni jalb etish usullarini;
 - davlat kulida moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasini.
 - Bu masalalar davlatning xayot mazmuniga va funkciyalariga bogli';
- xolda yechiladi va amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar

1. Moliya tizimi xaqida tushuncha.
2. Moliya tizimining institucional tarkibini tushuntirib bering.
3. Byudjetdan tashkari fondlarni sharxlab uting;
4. Sug'urta tashkilotlari xaqida umumiy tushunchalarni berib uting.
5. Xujalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi.

7-MAVZU. MOLİYAVIY YANGILIKLAR VA MOLİYAVIY BOZORLAR

Reja:

1.Moliyaviy yangiliklar va bozorning “ko‘rinmas qo‘li”

2.Moliyaviy bozorlar

1. Moliyaviy yangiliklar va bozorning “ko‘rinmas qo‘li”

Moliyaviy yangiliklar qaysidir markazlashtirilgan organlar tomonidan rejalashtirilmaydi, balki ayrim tadbirkorlar va firmalarning xarakatlari natijasida yuzaga keladi. Moliyaviy sohada innovatsiyalarning yuzaga kelishiga turtki bo‘ladigan asosiy iqtisodiy manfaatlar, to‘g‘risini aytganda, inson faoliyatining boshqa har qanday sohasida harakat qiluvchi manfaatlardan hech qanday farq qilmaydi.

A.Smit qayd qilganidek, “Har bir individ o‘zining kapitalini eng ko‘p foyda keltirishi uchun ishlatishga harakat qiladi. Uning niyatiga, qoidaga ko‘ra, umumiy manfaatlarga xizmat qilish kirmaydi, va u odatda ularni qondirishga qanchalik yordam berayotganini bilmaydi. Uni faqat o‘zining xavfsizligi va foyda tashvishiga soladi. Biroq mutloq o‘zining foydasi uchun harakat qilayotgan individ, uning maqsadiga kirmaydigan natijaga ko‘rinmas qo‘l tomonidan yo‘llanadi. O‘z manfaatlari izidan borib, u ko‘pincha haqiqatda qilmoqchi bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq jamiyatning rivojlanishiga samaraliroq yordam beradi”.

Bu holatni misollar bilan izohlash uchun, yosh yigit 1965 yilda xorijga sayohatga ketayotib tushib qolgan vaziyatidagi masalalarni hozirgi kunda zamonaviy yosh yigit qanday hal qilish kerakligi bilan solishtiring. Bir necha o‘n yilliklar oldin xorijdagi sayohatchiga hech kim uning tilida gapirmaydigan joyda pul tugab qolishi mumkinligi to‘g‘risida doimo xavotirga tushishiga to‘g‘ri kelgan. Bu holatda uyga telegramma yuborishga va o‘z mamlakatidagi bankdan mahalliy bankka telegraf orqali pul jo‘natmasini tashkillashtirishga o‘rinishiga to‘g‘ri kelgan. Bu jarayon qanchalik uzundan-uzoq va qimmat bo‘lganligini tushuntirishning zaruriyati yo‘q. Xorijiy banklar bilan kredit liniyalarini ochish to‘g‘risida oldindan kelishuvlar faqatgina eng boy sayohatchilar uchun mumkin bo‘lgan.

Bizning davrda amalda xorijda xoxlagan xaridni kredit kartochkasi yordamida to‘lash mumkin. VISA, Master Card i American Express kabi bunday kartochkalar yer sharining deyarli istalgan nuqtasida qabul qilinadi. Masalan, mehmonxona nomeriga haq to‘lash uchun siz shunchaki o‘z

kartochkangizni xizmatchiga berasiz va u telefon liniyasiga ulangan maxsus apparatga uni qo'yadi. Sanoqli soniyalarda sizning qarzni to'lay olish qobiliyatingiz (ya'ni, sizga ushbu kartochkani bergan bank to'lovni kafolatlashi holati) tekshiriladi. Shundan so'ng sizga kvitansiyaga imzo qo'yish va yana sayohatni davom ettirish qoladi, xolos.

Bundan tashqari, bu tizimda pulni yo'qotish yoki uni o'g'irlatish to'g'risida xavotir olmasangiz ham bo'ladi. Agar siz kredit kartochkangizni topolmayotgan bo'lsangiz, yo'qolgan kartochkani beruvchi bank bilan ulangan yaqinda joylashgan istalgan bankka yo'l olasiz. Bank uni bekor qiladi (undan boshqa odam foydalana olmasligi uchun) va yangisini beradi. Ko'p banklarda bu holatda hatto kredit olishingiz ham mumkin.

Xalqaro sayohatlar kredit kartochkalarining joriy qilinishi tufayli ancha qulay va arzon bo'lib qolganligiga hech kimda shubha yo'q. Ularni kashf qilish va tarqatish millionlab odamlarga foyda keltirdi va moliyani "demokratlashtirish"ga imkon tug'dirdi. Lekin bu qanday ro'y berdi? Quyida Sizlarga kredit kartochkalari misolida moliyaviy innovatsiyalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Shuni alohida qayd etish joizki, bu jarayonda texnologiya eng muhim omil hisoblanadi. Kredit kartochkalarining qo'llanilishi faqatgina telefon va kompyuter tarmoqlari, shuningdek, boshqa o'ta murakkab telekommunikatsiya tizimlari, axborotga ishlov berish uchun dasturiy ta'minot yaratilishi natijasida amalga oshdi. Biroq, kredit kartochkalari zamonaviy moliyaviy tizimning muhim qismiga aylanishi uchun, foyda olish maqsadida yangi imkoniyatlarning doimiy qidiruvida bo'lgan va moliyaviy xizmatlarni taklif qiluvchi firmalar, ushbu ilgarilab ketgan texnologiyadan foydalanishga tayyor bo'lishlari lozim edi. Bu narsa, o'z navbatida, ikkinchi tomondan uy xo'jaligi va boshqa firmalarga ushbu kartochkalarni sotib olishga tayyor bo'lishlarini taqozo etar edi.

Innovatsiyalar tarixida (moliyaviy va boshqa istalgan sohalarida) biror-bir potensial iqtisodiy foydali g'oyani ishlab chiqishda ko'pincha birinchi bo'lgan firma bundan katta foyda olmasligi holati takrorlanib turadi. Bu kredit kartochkalariga nisbatan ham adolatlidir. Xalqaro sayohatlarga kredit kartochkasini ishlatishni taklif qilgan birinchi kompaniya ikkinchi jahon urushi tugashidan so'ng darhol asos solingan *Diners Klub* bo'lgan. Ushbu firmaning muvaffaqiyati boshqa ikki kompaniyani, bular *Amerikan Express* i *Carte Blanche* edi, kredit kartochkalaridan foydalanishning o'xshash dasturlarini taklif qilishga undadi.

Kredit kartochkalaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni taklif qiluvchi firmalar, kartochkalarni qo'llagan holda tovarlar sotishni amalda qo'llayotgan chakana savdogarlar to'layotgan komission shaklida (qoidaga ko'ra, xarid narxidan ma'lum bir foiz), shuningdek, bu kartochka egalariga kreditdan foydalanganlik uchun to'lanadigan foiz shaklida foyda oladilar (hisobdagi qoldiq bo'yicha). Bunday firmalarning katta xarajatini operatsiyalarning o'tkazilishiga sarflangan xarajatlar, kartochkalarining o'g'irlanishi va ularning egalari o'z majburiyatlarini qoplash qobiliyatiga ega emasliklari natijasida ko'rilgan ziyonlar tashkil etadi.

O'tgan asrning 50-yillarida tijorat banklari birinchi bo'lib kredit kartochkalari bilan ishlashni sinab ko'rishgan. O'shanda ular o'zlarining juda yuqori ekspluatasion xarajatlari sababli shu kabi xizmatlarni ko'rsatadigan firmalar bilan raqobatlasha olmasliklari aniqlandi. Biroq 60-yillar oxirida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli ushbu xarajatlar ancha kamaydi va banklar endi bunday firmalar bilan jiddiy raqobatlasha oladigan bo'ldi. Bizning kunlarda kredit kartochkalaridan foydalanish xizmat bozorida ikkita yirik bank tizimi: *VIZA* va *Master Kard* kompaniyalari yetakchilardan hisoblanadi: *Diners Klub* va *Karte Blanche* firmalarining ulushi esa sezilarli darajada qisqardi. Shu o'rinda, Bank Americard banki qanday qilib o'zining monopoliyasini yo'qotganligini ham eslab o'tish foydadan xoli emas.

Tarixdan ma'lumki, 1958 yildan 1966 yilga qadar, ya'ni 8 yil davomida *Bank of Amerika* Kaliforniya shtatining kredit kartochkalari bozorida yakka o'zi hukmronlik qilgan edi. 1961 yildan 1966 yilga qadar bu biznes unga juda katta foyda olib kelgan. Biroq, bu umrbod davom etishi mumkin emasdi. 1966 yil boshlarida *Bank of Amerikaning* kredit kartochkalari bilan ishlash bo'yicha boshqaruv personali ularning raqobatchilari: Kaliforniyaning 4 ta yirik banki hamkorlikda bu biznesga kirish niyatida ekanliklari to'g'risida tez-tez eshitadigan bo'ldi. O'zlarining umumiy dasturini ular *Master Charge* deb nomlamog'chi bo'lishdi. Bungacha *Nyu-York banki: First National Citi Bank of Nyu-York*

(bizning kunlarda *Citibank* nomi bilan mashhur) transport xarajatlarini va ko'ngil ochish sohasidagi xarajatlarni to'lash uchun foydalaniladigan kartochkalarining savdosi bilan shug'ullanadigan *Carte Blanche* firmasini sotib olish to'g'risida so'zlashuv olib borayotganligi haqidagi keskin xabarlar ham tarqalgan edi. Bu bitim *First National Citiga* ko'p sonli savdogarlar va mijozlarni olib kelishi kerak edi. Buning natijasida esa bank umumdavlat miqyosida ishlashni boshlar edi (shu kungacha biror-bir bank bu bilan maqtana olmagan edi), va shunday qilib, *Bank of Amerikaning* yana bir jiddiy raqobatchisiga aylanishi mumkin edi.

Ayni paytda boshqa banklar *Bank of Amerikaning* o'z dasturini Kaliforniyaning tashqarisiga ham kengaytirmoqchi ekanligi to'g'risida tez-tez eshitadigan bo'lishdi. Bir necha yillik nisbatan jim-jitlikdan so'ng bank sanoati bo'lish ehtimoli bo'lgan hujumlar va potensial ishtirokchilar, kredit kartochkalari to'g'risidagi turli xil shov-shuvlar bilan portladi. Buyuk Depressiyadan so'ng amalda birinchi bo'lib banklar bir-birlari bilan ochiqdan-ochiq raqobatlashish mumkinligi to'g'risida o'ylay boshlashdi.

Bu mish-mishlar, o'z navbatida, 60-yillar oxirida butun mamlakatni qamrab olgan kredit kartalarni jo'natishning buyuk to'loqiga sabab bo'ldi. Sarosima va hasadga tushgan bankirlar, amalda u haqda hech narsa bilmasdan va mutlaqo tayyorlanmasdan turib biznesga "boshlari bilan sho'ng'ishdi". Iste'mol ssudalarini taqdim etadigan va taqdim etmaydigan barcha yirik va mayda banklar, bank konsorsiumlari va ayrim banklar yagona shiddat bilan *Everything Kards, Town & Country Kards, Midwest Bank Kards, Interbank Kards* kabi va boshqa o'nlab unutilib ketgan nomlarni eslagan holda kredit kartochkalarini berishni boshladilar. 1966 yildan 1970 yilga qadar bo'lgan davrda bankirlar mamlakatni kredit kartochkalari bilan deyarli to'ldirib tashladilar. Shu davrga qadar AQSH bu kabi holatni ko'rmagan edi.

Ushbu harakat faxriylarining ko'pchiligi hozir o'tgan asr 60-yillarining oxiri haqida banklar katta miqdorda ziyon ko'rgan, jamiyatda sarosima va federal qonunchilikda chalkashliklar avjiga chiqqan ahmoqona bir davr bo'lganligini gapirishadi. Shu bilan birga ularning hammasi, bu aqldan ozishning zaruriyat bo'lganligi to'g'risida bir xilda fikrlashar edi. O'sha yillarning tartibsizligidan elektron kredit kartochkalarining zamonaviy tizimi vujudga keldi. Usiz bank kredit kartochkalari bugundagiday: pul sohasidagi inqilobning plastik ramzi sifatida hech qachon mavjud bo'lmasligi mumkin edi.

Shunday qilib, kredit kartochkalarining yirik firma-emitentlari o'rtasidagi raqobat tufayli, mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar deyarli katta emas. Hozirgi davrda sayohat qilishga jo'nayotgan ko'pchilik odamlar uchun kredit kartochkalaridan foydalanish nafaqat qulay, balki yo'l cheklarga qaraganda foydaliroqdir. Oxirgi mulohaza bizni moliyaviy innovatsiyalarga nisbatan yana bir fikrga olib keladi. Odamlar ehtiyojining va moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlar o'rtasidagi ta'sirning tahlili, moliyaviy tizimda kelgusidagi o'zgarishlar to'g'risida bashorat qilishga imkon beradi. Masalan, to'lovning kredit kartochkalaridan foydalanish kabi usulining ulkan afzalliklarini hisobga olgan holda, yo'l cheklari kelajagi to'g'risida o'ylab ko'rish kerakmikan? Bu cheklarni ham, kalkulyator kashf qilingandan so'ng, logarifmik lineykaga kelgani kabi taqdir kutmayotganmikan?

Kredit kartochkalari – bu shunchaki oxirgi 40-50 yil ichida ishlab chiqilgan, iqtisod sohasida odamlarning faoliyat xarakterini tubdan o'zgartirgan ko'plab moliyaviy mahsulotlar misollaridan biridir, xolos. Barcha ushbu innovatsiyalar jami bo'lib, risk va daromadlilik o'rtasidagi samarali balans (muvozanat)ni topish, shaxsiy investisiyalarni to'g'ri sarflash, shuningdek, mehnatga layoqatli davrda mablag'larni yig'ish va ularni Pensiyaga chiqqanda ishlatishni qo'shgan holda, butun hayoti davomida o'zining individual ehtiyojlariga tuzatish kiritish imkoniyatlarini oshirdi(lar).

2. Moliyaviy bozorlar

Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko'rinishini quyidagi tarkibiy qismlar birligi sifatida tasavvur qilish mumkin (6.1-rasm).



6.1-rasm. Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko‘rinishi

Eng sodda tarzda aytiladigan bo‘lsa, moliyaviy bozorda moliyaviy aktivlar sotiladi va sotib olinadi. O‘z navbatida, *qarz majburiyatlari, aksiyalar va hosila qimmatli qog‘ozlar* moliyaviy aktivlarning asosiy turlaridan bo‘lib hisoblanadi. Qarz instrumentlari pulni qarzga oluvchi hamma – firmalar, hukumatlar va uy xo‘jaliklari - tomonidan chiqariladi.

Tegishli ravishda, qarz majburiyatlari bozorida korporativ va davlat obligatsiyalari, uy-joy va tijorat garovlari, shuningdek iste‘mol qarzlari kabi aktivlar bilan savdo qilinadi. Qarz instrumentlarini yana **qayd qilingan daromad instrumenti** deb ham atashadi. Zero, ular bo‘yicha kelgusida qayd qilingan summani to‘lash va‘da qilinadi. Ularni yana **qattiq foizli qimmatli qog‘ozlar** deb atash ham mumkin.

Qarz instrumentlari, shuningdek, qarzni uzish muddati asosida ham klassifikatsiyalanadi. Qisqa muddatli (qarz uzish muddati bir yildan kam bo‘lgan) qarz majburiyatlari bozori **pul bozori** nomiga ega. Uzoq muddatli qarz majburiyatlari va aksiyalar bozori esa **kapital bozori** deb nomlanadi.

Pul bozorida, asosan, yo xususiy sektorning ishonchli qarz oluvchilari tomonidan (veksellar va yirik korxonalarning boshqa tijorat qog‘ozlari) yoki davlat tomonidan (masalan, g‘aznachilik vekseli) chiqarilgan foizli qimmatli qog‘ozlar kabi instrumentlar aylanadi. Zamonaviy pul bozorlari uchun global integratsiya va **likvidlik** o‘ziga xos xarakterga ega. Aktivning likvidlik darajasi uni pulga konvertatsiya qilinish jarayonining oddiyligi, xarajatlari va tezligiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Aksiya – bu firma mulkdorlari tomonidan uning aktivlari qismiga qo‘yiladigan talabdir. Korporatsiya kapitali ulushiga egalik qilishdan dalolat beradigan qimmatli qog‘ozlar AQSHda oddiy aksiyalar, Buyuk Britaniyada aksiyalar deb ataladi. Aksiyani sotib olish va sotish fond bozorida amalga oshiriladi. Har bir oddiy aksiya boshqa aksiyadorlar bilan firmaning mulkidagi ulushda baravarligini bildiradi.

Oddiy vaziyatlarda har bir aksiyaga bir xil miqdordagi foyda va korporatsiyani boshqarish masalalari bo‘yicha qaror qabul qilish uchun bitta ovoz berish huquqi to‘g‘ri keladi. Biroq, ayrim korporatsiyalar muomalaga oddiy aksiyalarning ikki toifasini chiqaradilar. Ulardan biri aksiyadorga ovoz berish huquqini beradi, boshqasi esa bermaydi.

Oddiy aksiyalar korporatsiya aktivlariga **goldiq talablarni** ifodalaydi. Bunday aksiya egalari firmaning, u tomonidan barcha qolgan moliyaviy majburiyatlarni bajarganidan so‘ng qolgan istalgan aktivlariga huquqi bor. Masalan, agar firma biznesni to‘xtatishga qaror qilsa va o‘zining barcha aktivlarini sotayotgan bo‘lsa, u holda oddiy aksiyalarga egalik qiluvchi barcha aksiyadorlar, barcha kreditorlarga tegishli bo‘lgan summalar to‘lab bo‘lingandan keyin nima qolsa hammasini o‘zaro bo‘lishib oladilar.

Oddiy aksiyalar unga egalik qiluvchining **cheklangan mas‘uliyati** bilan tavsiflanadi. Bu, agar firma yopilayotgan bo‘lsa, va uning aktivlarini sotishdan tushgan daromad uning hamma qarzlarini yopishga yetmayotgan bo‘lsa, unda kreditorlar aksionerlardan qarz majburiyatlari bilan to‘liq hisob-kitob qilish uchun qo‘shimcha mablag‘ talab qilish huquqiga ega emasliklarini anglatadi. Bu yerda kreditorlarning korporatsiyaga talablari uning aktivlariga bo‘lgan talablari bilan cheklanib qoladi.

Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar deb, bahosi boshqa aktivlar, masalan, aksiyalar, qayd qilingan daromadga ega qimmatli qog‘ozlar, xorijiy valyuta yoki qandaydir mahsulotlar bahosiga bog‘liq bo‘lgan moliyaviy vositalarga aytiladi. Ularning asosiy funksiyasi ular hosila hisoblangan aktivlarga qo‘yilmalarning risk darajasini boshqarish uchun vosita sifatida xizmat qilishdan iborat. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning kengroq tarqalgan turlari opsionlar va forvard kontraktlari hisoblanadi. **Sotib olishga osion**, yoki **“koll”osion** – bu egasiga ma‘lum bir miqdordagi aktivlarni belgilangan narxda osion amal qilish muddatining o‘tib ketishi yoki tugaguniga qadar istalgan paytda sotib olish huquqini beradigan vositadir.

Sotishga osion, yoki **“put”osion** – bu, egasiga osion amal qilish muddatining o‘tib ketishi yoki tugaguniga qadar xohlagan paytda kontrakt bo‘yicha o‘rnatilgan narxda ma‘lum bir miqdordagi

aktivlarni sotish huquqini beradigan vositadir. Aktiv egasi ushbu aktivni sotish uchun osion sotib olar ekan, o'zini uning narxi kontraktida ko'rsatilganidan kamayib ketish xavfidan samarali sug'urta qiladi.

Forvard kontraktlar deb, kontraktida ko'rsatilgan narx va vaqt bo'yicha ma'lum bir aktivlarni bir tomon sotib olish majburiyatini, ikkinchi tomon esa sotish majburiyatini oluvchi vositalarga aytiladi. Bu xil kontraktlar sotuvchiga va xarid qiluvchiga ushbu aktivlarning kelgusida sotiladigan narxining noaniqligiga bog'lanib qolmaslik imkonini beradi.

1-nazorat uchun savol
Qarz majburiyatlari, aksiyalar va hosilaviy qimmatli qog'ozlarning asosiy xarakteristikalarini qanday?

1. Foiz stavkalari

Olingan mablag'lar bo'yicha va'da qilingan daromadlik stavkasiga foiz stavkasi deb ataladi. Olingan mablag'larning turiga qarab, turli xil foiz stavkalari mavjud. Masalan, uy sotib olish uchun qarz oluvchi kishi ushbu qarzni **garov bo'yicha foiz stavkasi** deb nomlanuvchi foiz stavkasi bo'yicha to'laydi. Bank tomonidan firmalardan undiriladigan stavka esa **tijorat krediti bo'yicha foiz stavkasi** deb ataladi.

Kreditning har qanday turi yoki qayd qilingan daromadga ega vosita bo'yicha foiz stavkasi miqdori bir qator omillarga bog'liq. Bulardan eng muhimlari **hisob-kitob pul birligi, to'lov muddati va kredit kelishuvi shartlarining qarz oluvchi tomonidan bajarilmaslik riski**, yoki **defolt riskidir**. Ushbu omillarning har birini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Hisob-kitob pul birligi to'lovlar amalga oshiriluvchi pul birligini o'z ichiga oladi. Hisob-kitob birligi bo'lib, qoidaga ko'ra, u yoki bu mamlakatning valyutasi hisoblanadi: dollar, yevro, frank, funt, rubl, so'm, peso va hokazolar. Ba'zida birlik sifatida qandaydir bir tovar qo'llaniladi, masalan, oltin, kumush yoki tovar va xizmatlarning standart "savati". Foiz stavkasi hisob-kitob pul birligiga bog'liq holda o'zgaradi.

Qayd qilingan daromadga ega bo'lgan vosita bo'yicha *to'lov muddati* – bu davomiyligida jami olingan summani to'lash lozim bo'lgan vaqt. Qisqa muddatli instrument (vosita)lar bo'yicha foiz stavkasi, uzoq muddatlilarining foiz stavkasidan yuqori, past yoki teng bo'lishi mumkin.

To'lanmaslik riski qayd qilingan daromadga ega instrument (vosita) bo'yicha qarzning asosiy summasi yoki foizning qandaydir bir qismi qarz oluvchi tomonidan to'lanmaslik ehtimolini o'z ichiga oladi. Bu riskning darajasi qanchalik baland bo'lsa, qarz oluvchi o'z investorlariga uning qimmatli qog'ozlarini sotib olishga rozilik bildirishlari uchun shunchalik yuqori foiz stavkasini va'da qilishi lozim.

Endi, keling, ushbu uch omil amalda qanday qilib foiz stavkasi darajasi (o'lchami)ga ta'sir etishini ko'rib chiqamiz.

Foiz stavkasiga hisob-kitob pul birligining ta'siri. **Qayd qilingan daromadga ega bo'lgan instrument (vosita) faqatgina aniq hisob-kitob pul birligiga muvofiq risksiz, ishonchli hisoblanadi. Uning o'zgarishi bilan foiz stavkasi ham nihoyatda jiddiy ravishda o'zgarib ketishi mumkin. Keling, bu hodisani aniqroq tushuntirish uchun, nominallari turli xil valyutalarda ko'rsatilgan obligatsiyalarni ko'rib chiqamiz.**

Faraz qilaylik, Britaniya Qo'shma Qirolliklarining davlat obligatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari Yaponiyaning davlat obligatsiyalariga qaraganda ancha yuqori va ular taxminan bir xil qoplash muddatiga ega. Mazkur toifa obligatsiyalari to'lanmay qolish riskidan ozod ekanligi inobatga olingan holda, mazkur shartlar barcha investorlar Qo'shma Qirolliklarning obligatsiyalarini afzalroq ko'rishiga olib kelmaydimi?

Mazkur holatda javob salbiy bo'ladi. Chunki ushbu obligatsiyalarning nominallari turli valyutalarda: Qo'shma Qirollik obligatsiyalari – funt sterlingda, Yaponiyaniki esa – iyenda aks ettirilgan. Ikki mamlakatning mazkur toifa (klass) obligatsiyalari ishonchli daromadlilik stavkasini ushbu mamlakatlar valyutasida taklif etishiga qaramasdan, daromadlilik stavkasi har qanday boshqa valyutada noaniq bo'ladi, chunki u kelajakda to'lovni olish paytida ushbu ikki valyutaning almashish kursiga bog'liqdir.

Keling, bu fikrga aniq misol keltiramiz. Faraz qiling, siz ma'lum bir mablag'ni bir yil muddatga investisiya qilishga qaror qildingiz. Yaponiya davlat obligatsiyalari bo'yicha yillik foiz stavkasi 3 %ni,

Qo'shma Qirollik obligatsiyalari bo'yicha esa 9 %ni tashkil etadi. Boshqa valyutaga nisbatan bir valyutaning bahosini o'z ichiga olgan **valyuta kursi**, 1 funt sterling 150 iyenaga teng.

Endi, tasavvur qiling, siz o'z kapitalingizni iyenda qaysidir ishonchli aktivga investisiya qilmoqchi bo'lgan yapon investori hisoblanasiz. Yapon obligatsiyalarini sotib olib, siz o'zingizga 3 %lik daromadni kafolatlaysiz. Agar Britaniyaning davlat obligatsiyalari sotib olinsa, iyenada daromadlilik stavkasi bir yil o'tgandan keyin iyena va funt sterlingning almashuv kursi qanday bo'lishiga bog'liq bo'ladi.

Faraz qilaylik, siz 100 funt sterlingga Birlashgan Qirollikning obligatsiyalarini sotib olishga qaror qildingiz. Buni qilish uchun, siz 15000 iyenni funt sterlingga konvertatsiya qilishingiz lozim bo'ladi, ya'ni sizning dastlabki sarflaydigan mablag'ingiz 15 000 iyenni tashkil etadi. Birlashgan Qirollik obligatsiyalarining foiz stavkasi 9 % ga teng bo'lganligi uchun bir yildan so'ng siz 109 funt sterlingni olasiz. Biroq bu pul miqdorining iyenga o'girilgan narxini oldindan bilish imkoniyati yo'q. Sababi: kelajakda valyuta kursining qanday bo'lishini hech kim bilmaydi.

Shunday qilib, mazkur operatsiya natijasida olingan real daromadlilik stavkasi quyidagicha bo'ladi:

$$D_{s(iyen)} = (109 \text{ funt sterling} \times \text{iyendagi kelajak funt sterling kursi} - 15\,000 \text{ iyen}) : 15\,000 \text{ iyen}$$

Bu yerda:

$D_{s(iyen)}$ - daromadlilik stavkasi (iyen)

Tasavvur qilaylik, bir yilda funt sterling kursi tushib ketdi va bir funt 140 iyenni tashkil etdi. Bunday holatda Birlashgan Qirollik obligatsiyalari bo'yicha iyendagi daromadlilik stavkasi qanday

$$D_{s(iyen)} = (109 \text{ funt sterling} \times 140 \text{ iyen/funt sterling} - 15\,000 \text{ iyen}) : 15\,000 \text{ iyen} = 0,017333.$$

Bu yerda:

yo

$D_{s(iyen)}$ - daromadlilik stavkasi (iyen)

bo'ladi? Yangi ma'lumotlarni yuqoridagi tenglamaga qo'yib, quyidagilarni olamiz:


Shunday qilib, sizning real daromad stavkangiz 1,73 %ni tashkil etadi. Bu esa siz aynan shunday qaytarish muddati bilan yapon obligatsiyalarini sotib olish orqali olishingiz mumkin bo'lgan 3 %dan kamroqdir.

1-nazorat uchun savol
Yuqoridagi keltirilgan misol asosida, yaponiyalik investor Birlashgan Qirollik obligatsiyalariga iyenda kapital qo'yish orqali yillik 3 % ishlashi uchun valyuta kursi bir yildan so'ng qanday o'zgarishi kerakligini tushuntirib bering.

Foiz stavkasiga to'lov muddatining ta'siri. Foiz stavkasiga to'lov muddatining qanday ta'sirini yaqqol ko'rish uchun navbatdagi betdagi 1-rasmga qarang. Unda AQSH G'aznachilik veksellarining 20 xx yil x iyun holatiga **daromadlilik egri chizig'i** tasvirlangan. Daromadlilik egri chizig'i AQSH G'aznachiligi tomonidan muomalaga chiqarilgan veksellarning belgilangan daromad bo'yicha foiz stavkalari miqdorlari (daromadlilik) va ularni qaytarish muddatlarining o'zaro nisbatini aks ettiradi.

7.1-rasm da biz bir yillik g'aznachilik majburiyatlarning daromadi hisobi yiliga 5,25 %ni tashkil etganini, bu ko'rsatkich qaytarish muddati o'sgan sari ortib borishini va qaytarish muddati 30 yil bo'lganda 6 %ni tashkil etganini ko'ramiz.

1-rasmda bu yaqqol ko'rinmasa ham, daromaddorlik egri chizig'ining shakli va darajasi vaqt o'tishi bilan juda o'zgaradi. O'tmishda, qisqa muddatli foizli stavkalar uzoq muddatlinikidan yuqori bo'lgan, shuning



7.1-rasm. AQSH G‘aznachilik qimmatli qog‘ozlari daromadlilik egri chizig‘i uchun daromaddorlik egri chizig‘i pastdan yuqoriga emas, balki yuqoridan pastga tushgan.

2-nazorat uchun savol
Oxirgi gazetalarning moliyaviy axborotlari bo‘lgan betlarini ko‘ring. Bugungi kunda AQSH G‘aznachiligi qimmatli qog‘ozlarining daromaddorlik egri chizig‘i qanday darajada va shaklda ekanligini tekshiring. Ularni Yaponiya g‘aznachiligi qimmatli qog‘ozlarining daromaddorlik egri chizig‘i bilan solishtiring.

Foiz stavkasiga to‘lanmaslik riskining ta’siri. Belgilangan daromadli instrument (vosita)lar bo‘yicha to‘lanmaslik riski qanchalik yuqori bo‘lsa, hatto boshqa barcha ko‘rsatkichlar o‘zgarishsiz qolganda ham, ushbu instrument (vosita)larning foiz stavkasi shuncha yuqori bo‘ladi. 7.1-jadvalda qarz oluvchilar tomonidan chiqarilgan va o‘z qarzlarini bo‘yicha noto‘lovlarning turli darajadagi risklari bilan xarakterlanuvchi dollar nominalidagi xilma-xil foiz stavkalari keltirilgan.

7.1-jadval

Qimmatli qog‘ozlar daromadlilik solishtirmasi (%)

Qaytarish muddati 1 yildan dan 10 yilgacha bo‘lgan AQSH G‘aznachiligi obligatsiyalari	5,70
Qaytarish muddati 10 yildan yuqori bo‘lgan AQSH G‘aznachiligi obligatsiyalari	6,21
Qaytarish muddati 1 yildan 10 yilgacha bo‘lgan korporativ obligatsiyalar	
Yuqori sifatdagi	6,45
O‘rtacha sifatdagi	6,94
Qaytarish muddat 10 yildan yuqori bo‘lgan korporativ obligatsiyalar	
Yuqori sifatdagi	7,09
O‘rtacha sifatdagi	7,56

Bu yerda AQSH G‘aznachiligi uzoq muddatli obligatsiyalari shunday riskning eng past ko‘rsatkichiga ega. Undan keyingi o‘rinlarni yuqori va o‘rta sifatli korporativ obligatsiyalar egallamoqda.

Ushbu berilgan holatdagi **turli xil qimmatli qog‘ozlar daromad-dorligi ko‘rsatkichlari farqiga** (yield spread) E’tiboringizni qarating: qaytarish muddati 10 yildan yuqori bo‘lgan AQSH G‘aznachiligi obligatsiyalari, ularning yillik daromaddorligi 6,21 %ni tashkil etadi va huddi shunday qaytarish muddatidagi o‘rtacha sifatdagi korporativ obligatsiya-larning yillik daromaddorlik ko‘rsatkichi esa 7,56 %ga teng. O‘rtadagi daromaddorlik farqi yiliga 1,35 %ni tashkil etadi.

3-nazorat uchun savol

Oxirgi gazetalarning moliyaviy axborotlari bo'lgan sahifalarini ko'ring. Bugungi kundagi AQSH G'aznachiligi obligatsiyalari va korporativ obligatsiyalar daromadliligi farqi qanday ekanligini tekshiring.

2. Riskli aktivlarning daromadlilik stavkasi

Foiz stavkalari qimmatli qog'ozlar egasi oldida emitentning shartnomaviy javobgarligi hisoblanib, belgilangan daromadli instrument (vosita)lar bo'yicha va'da qilingan daromadlilik stavkasini ifodalaydi. Biroq, hamma aktivlarga ham ma'lum bir daromadlilik stavkasi xos emas.

Misol uchun, agar siz ko'chmas mulkka, aksiyalar va san'at asarlariga kapitalni investisiya qilayotgan bo'lsangiz, kelajakda sizga hech qanday to'lovlar kafolatlanmaydi. Endi, keling, shu turdagi riskli aktivlar bo'yicha daromadlilik stavkasi qanday o'lchanishini ko'rib chiqaylik.

Agar siz qandaydir ulushbay qimmatli qog'ozlarga, misol uchun oddiy aksiyalarga mablag'ingizni investisiya qilgan bo'lsangiz, Sizning qo'ygan kapitalingizga daromad ikki manbadan tushadi. Birinchisi - mazkur qimmatli qog'ozlar emitent-firmasi aksionerlarga pul ko'rinishida to'laydigan dividendlar. Mazkur dividend to'lovlari shartnomada keltirilmaydi va shunga ko'ra, ularni foizli to'lovlar deb bo'lmaydi. Dividendlar firma direktorlar kengashining ixtiyoriga ko'ra to'lanadi.

Aksiyador aksiyalarga egalik qilgan vaqt mobaynida aksiya bozor kursining o'sishi aksiya egasi tomonidan kiritilgan kapitalning ikkinchi daromad manbai hisoblanadi. Mazkur turdagi daromadni **kapitalning o'sishi** deb aytiladi (kapital gain). Agar aksiya egasi kursning tushishi tufayli zarar ko'rayotgan bo'lsa, bu narsa **kapitalning yo'qotilishi** deyiladi. Qo'yilgan kapital daromadini aniqlash uchun aksiyalarga egalik qilish davomiyligi bir kundan bir necha o'n yillikkacha bo'lishi mumkin.

Investisiya qilingan kapitalning daromadlilik darajasini hisoblab ko'rish uchun, faraz qilaylik, Siz aksiyalarni (bir donasini 10,0 ming so'mdan) sotib oldingiz. Bir kundan keyin mazkur aksiyalarning kursi 10,1 ming so'mga o'sdi va Siz ularni sotdingiz. Bir kunda Sizning qo'yilgan kapital daromadlilik stavkangiz 1 %ni tashkil etadi - bir dona aksiyaga kapitalning o'sish ko'rsatkichi (100 so'm)ning sotib olingan aksiya narxiga (10,0 ming so'm) nisbati.

Endi tasavvur qiling, siz sotib olingan aksiyalarga bir yil davomida egalik qilmoqdasiz. Yil oxirida aksiyalar bo'yicha bir aksiyaga 500 so'm miqdoridagi dividend to'landi va aksiyaning bahosi 10,5 ming so'm bo'ldi. Shunday qilib, bir yillik qo'yilgan kapital daromadliligi (**K_d**), quyi-dagini tashkil etdi:

$$K_d = (AB_{do} - AB_b + PD) : AB_b$$

Bu yerda: K_d – bir yillik qo'yilgan kapital daromadliligi;

AB_{do} – davr oxiridagi aksiya bahosi;

AB_b – aksiyaning boshlang'ich narxi;

PD – pulli dividendlar.

Ushbu misolda biz quyidagi daromadlilikka ega bo'lamiz:

$$K_d = (10,5 \text{ ming so'm} - 10,0 \text{ ming so'm} + 0,5 \text{ ming so'm}) : 10,0 \text{ ming so'm} = 0,10 = 10\%$$

E'tibor bering, qo'yilgan kapital umumiy daromadini quyidagi komponentlar yig'indisi sifatida ko'rish mumkin: dividend ko'rinishidagi daromad va aksiyalar bahosining o'zgarishi:

$$K_d = (PD : AB_b) + (AB_{do} - AB_b) : AB_b$$

$$K_d = DD_k + BO'_k$$

Bu yerda: DD_k - dividend daromadi komponenti;

BO'_k - baholar o'zgarishi komponenti.

$$K_d = 5 \% + 5 \% = 10 \%$$

Agar siz o'z aksiyalaringizni sotmaslikka qaror qilsangiz, qanday qilib daromad stavkasini baholashingiz mumkin?

Javobni quyidagicha berish mumkin: qimmatli qog'ozlarga qilingan investisiyaning daromad stavkasi (yoki qimmatli qog'oz daromadlilik stavkasi), ularni sotib yuborasizmi yoki yo'qmi, bundan qat'iy nazar bir usul bilan aniqlanadi. Aksiya kursining 500 so'mga oshishi 500 so'm dividend singari kiritgan kapitalingizning daromad qismi hisoblanadi.

Sizning aksiyalarni sotmasdan o'zingizda qoldirish to'g'risidagi qaroringiz, yil yakunlanganidan so'ng ularni haqiqatdan 10,5 ming so'mdan sotishingiz mumkinligi faktini hech qanday o'zgartirolmaydi. Shu bois, siz qimmatli qog'ozlarni sotish orqali o'z daromadingizni kapitalingizni oshirish ko'rinishida amalga oshirishga qaror qilishingiz yoki sotmasdan reinvestisiya qilishingizdan qat'iy nazar, daromadlilik stavkasi 10 %ni tashkil etadi

4-nazorat uchun savol
Siz 50 dollarga aksiya xarid qildingiz. Yil davomida unga 1 dollar miqdoridagi dividend puli hisoblanmoqda va siz yil oxiriga mazkur qimmatli qog'ozlarning kursi 60 dollarni tashkil etishini rejalashtir-moqdasiz. Siz qanday daromadlilik stavkasini olishni mo'ljallayapsiz? Agar qimmatli qog'ozlarning kursi aslida 40 dollarni tashkil etsa, sizning haqiqatdagi daromadlilik stavkangiz qanday bo'ladi?

3. Bozor indekslari va indekslash strategiyasi

Qimmatli qog'ozlar kursini umumlashtirib ko'rsatishga imkon beruvchi mezonning mavjudligi qo'l keladigan ko'plab holatlar mavjud. Misol uchun, aksiyadorlarga investisiyalarining joriy narxini baholab beradigan indikator yoki o'z investisiyalari rentabelligini baholash imkoniyatini beradigan qandaydir etaloniy kriteriy kerak bo'ladi. 7.2-jadvalda eng muhim milliy fond birjalarida muomalada bo'lgan, qimmatli qog'ozlar uchun foydalaniladigan, odatda moliyaviy nashrlarda birinchi navbatda e'lon qilinadigan asosiy fond indekslari ro'yxati keltirilgan.

7.2-jadval

Dunyodagi asosiy fond indekslari

Mamlakatlar	Indekslar
AQSH	Dow Jones Index, Standard & Poor's 500
Yaponiya	Nikkei, Topix
Buyuk Britaniya	FT-30, FT-100
Germaniya	DAX
Fransiya	CAC 40
Shveysariya	CreditSuisse
Yevropa, Avstraliya, Uzoq Sharq	MSCI, EAFE

Investisiya qilingan kapital daromadlilik dinamikasini ma'lum bir birja (fond) indeksiga bog'lash maqsadiga asoslangan investisiya strategiyasiga *indeksatsiyalash* deyiladi. Uning asosida quyidagi oddiy haqiqat yotadi: birgalashib o'z kapitalini qimmatli qog'ozlarga qo'ygan barcha investorlar butun fond birjasi daromadlilikidan ko'proq rentabellikka erisha olmaydilar.

Indeksatsiyalash strategiyasini qo'llagan holda, menejer o'z investisiya fondida investisiya tarkibiy tuzilmasini qayta tashkil etishga o'rinadi. Bu tarkibiy tuzilma asosida mo'ljal sifatida tanlangan indeks olinadi. U o'z fondining aksiyalari paketiga barcha qimmatli qog'ozlarni mazkur indeks hisoblanadigan narxlar asosida, mazkur indekslar bazasi juda yuqori bo'lganda esa, faqat reprezentativ tanlab olinganlarinigina qo'shadi. Bunday hollarda, pul mablag'larini "aktiv" boshqarish usulini ishlatishga yoxud indeks-mo'ljaldan "o'zib ketish"ga intilib, alohida qimmatli qog'ozlarga yoki iqtisodiyot sohalariga umid qilishga o'rinishlar qilin-maydi. Shunga ko'ra, indeksatsiyalash – bu keng diversifikatsiyaga va qimmatli qog'ozlar portfeli sust savdo aktivligiga tayangan passiv investisiya strategiyasidir.


8-MAVZU. MOLIYAVIY VOSITACHILAR

Reja:

1. Banklar va boshqa depozit-jamg'arma muassasalari
2. Sug'urta kompaniyalari
3. Pensiya fondlari
4. O'zaro fondlar
5. Investision banklar
6. Venchur kompaniyalariga kapital qo'yuvchi firmalar va aktivlarni boshqaruvchi firmalar
7. Axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi firmalar

1. Banklar va boshqa depozit-jamg'arma muassasalari

Moliyaviy vositachilar shunday firmalarki, ularning asosiy vazifasi moliya bozorida mijozlarni shaxsan ular ishtirokidagi operatsiyalaridan ko'ra yuqoriroq samara beradigan moliyaviy mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat. Eng umumiy ko'rinishda ularning tarkibini quyidagicha tasavvur etish mumkin (10.1-rasm):



10.1-rasm. Moliyaviy vositachilarning eng umumiy tarkibi.

Moliyaviy vositachilarning asosiylari sifatida banklar, investisiya va sug'urta kompaniyalarini ko'rsatish mumkin. Ularning moliyaviy mahsulotlariga, boshqalar qatorida, chek hisobvaraqlari, kreditlar, ipotekalar, o'zaro fondlarning qimmatli qog'ozlari va keng ko'lamli sug'urta shartno-malari kiradi. Moliyaviy vositachiga eng oddiy misol sifatida o'zaro fondni olishimiz mumkin. U ko'pchilik mayda investorlarning moliyaviy resurslarini birlashtiradi va yig'ilgan mablag'larni qimmatli qog'ozlarga qo'yadi (joylashtiradi).

Bunday fondlar o'z operatsiyalari masshtabining kengligi tufayli qimmatli qog'ozlar hisobi va savdosida sezilarli darajada tejamkorlikka erishadi va tabiiyki, mijozlarga mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investisiya qilishning bevosita fond bozoridagi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisidan ko'ra samaraliroq usullarini taklif qiladi.

**11--MAVZU: QIMMATLI QOG'OZLAR VA ULARNING DAROMADLIGINI
BAHOLASH**

1-TOPSHIRIQ.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralarni yozing:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____
7. _____
8. _____
9. _____
10. _____

2-TOPSHIRIQ.

Ushbu savollarga javob yozing.

1.Sug'urtaning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.

2. Sugʻurta oʻziga xos pul munosabatlarining yigʻindisi.

3.Sugʻurtaning iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanish tamoyillari.

4.Sugʻurta shakllari.

5.Tijorat sugʻurtasi paydo boʻlishining bosqichlari.

6.Tijoratga asoslanmagan sugʻurtaning oʻziga xos xususiyatlari.

3-TOPSHIRIQ.

Mavzuga oid tayanch soʻz va iboralarni izohlari bilan yozing:

Tayanch soʻz va iboralar	Tayanch soʻz va iboralar izohi

4-TOPSHIRIQ.

Sug'urta tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar ro'yxatini keltiring.

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____

5-TOPSHIRIQ.

Ushbu terminlarga ta'rif bering

Sug'urta rezervlari	
Sug'urta bozori assortimenti	
Sug'urta shartnomasi	
Sug'urta mukofoti	

4-TOPSHIRIQ.

Testlarni yeching

1. Sug'urta tashkilotlari daromadlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

=====

Tashqi manbalardan olinadigan daromadlar

=====

sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadlar

=====

sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatidan olinadigan daromadlar

=====

sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlar

Sug'urta tashkilotlari xarajatlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

=====

Kunlik birlamchi xarajatlar

=====

Amalga oshirilmagan xarajatlar

=====

sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar

=====

sug'urta xizmatlarini ko'rsatish va ularni sotish bilan bog'liq xarajatlar

2. Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitali minimal miqdoriga bog'liq bo'lmagan qatorni ko'rsating

=====

sug'urta kompaniyalari daromadlari

=====

sug'urta xodisalar yuz berish ehtimoli va ularning ta'sir darajasi o'sib borayotganligi bilan bog'liq

=====

Jahon sug'urta bozorida yuzaga keladigan vaziyatlarga muvofiq kelishi

=====

sug'urta obyektlari qiymatining o'sishi muammolari

3. Sug'urtaning funksiyalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni ko'rsating

=====

sug'urta fondini tashkil etish, foydalanish bilan bog'liq funksiya, nazorat funksiyasi

=====

Taqsimlash va qayta taqsimlash, nazorat

=====

sug'urta fondini tashkil etish funksiyasi, taqsimlash va nazorat funksiyalari

=====

Nazorat funksiyasi, qayta taqsimlash

4. Mamlakatimizdagi sug'urta tashkilotlari qaysi sug'urta turini amalga oshirilmaydi?

=====

Kasbiy faoliyatni sug'urtalash

=====

Hayotni sug'urtalash

=====

Baxtsiz xodisalarni sug'urtalash

=====

Tibbiy sug'urta

5. Dastlabki sug'urta shartnomalari qayerda paydo bo'lgan?

=====

Vizantiya

=====

Xitoy

=====

Hindiston

=====

O'rtaOsiyo

6. Sug'urta zaxiralari natura shaklida shakllantirish qanday qiyinchiliklarni keltirib chiqargan?

=====

Ularni uzoq muddat saqlash imkoniyatini bermaydi

=====

Ularni hisoblash imkoniyatini bermaydi

=====

Ularni to'liq yig'ish imkoniyatini bermaydi

=====

Ularni to'liq ishlatish imkoniyatini bermaydi

7. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida noto'g'ri prinsipi keltirilgan javobni aniqlang.

=====

Sug'urta to'lovlarining majburiy xarakterga ekanligi

=====

Sug'urta riskining mavjudligi

=====

Sug'urta munosabatlarining qayta taqsimlash xarakteriga egaligi, zararlarini muayyan makon va zamonda taqsimlanishi

=====

Sug'urta mukofotlarining qaytarilish xarakteriga egaligi

8. Javoblardan qaysi biri sug'urta funksiyalari tarkibiga kirmaydi?

=====

Sug'urta mukofotini to'lash bilan bog'liq funksiya

=====

Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq funksiya

=====

Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq funksiya

=====

Nazorat funksiyasi

9. Sug'urta qanday shakllarda amalga oshiriladi?

=====

Ixtiyoriy va majburiy shakllarda

=====

Faqatgina ixtiyoriy shakllarda

=====

Faqatgina majburiy shakllarda

=====

Shakllari mavjud emas

10. Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslarga qanday tartibda ko'rsatiladi?

=====

Jismoniy va yuridik shaxslarning roziligi bilan

=====

Davlatning ko'rsatmasi bilan

=====

Jamoat tashkilotlarining talabi bilan

=====

Banklarni talabi bilan

11. Majburiy sug'urta turi ko'rsatilgan javobni ko'rsating.

=====

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi

=====

Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki sug'urtasi

=====

Hayot sug'urtasi

=====

Moliyaviy va tadbirkorlik risklari sug'urtasi

12. Majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmat haqlari kimning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi?

=====

Davlat byudjeti mablag'lari

=====

Maxsus fondlar mablag'lari

=====

Davlat organlari byudjetdan tashqari mablag'lari

=====

Homiylarning mablag'lari

13. Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish orqalifoyda olishdastlab qachon va qayerda boshlangan?

14. Xv asrda Italiyada

=====

XIV asrda AQShda

=====

XVI asrda Angliyada

=====

XI asrda Xitoyda

15. Sug'urtaga tog'ri va to'liq ta'rif berilgan javobni aniqlang.

=====

Kutilmagan noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun maqsadli pul zaxiralarini shakllantirilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarga

=====

Kutilmagan noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun qarz mablag'larini yig'ish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarga

=====

Har qanday ko'rilgan zararni qoplash uchun maqsadli pul zaxiralarini shakllantirilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarga

=====

Kutilmagan noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun davlat mablag'larini shakllantirilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarga

16. Fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar nimaga asoslanadi?

=====

Tegishli shartnoma qoidalariga

=====

Davlatning huquqiy hujjatlariga

=====

Sug'urta kompaniyalarning ichki tartibiga

=====

Sug'urta qilish bo'yicha nizomga

17. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari berilmagan javobni aniqlang.

=====

Sug'urtalovchi mikrocredit tashkilotlari

=====

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi

=====

Qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, g'urtabrokerlar va agentlari

18. Qonunchilikka binoan sug'urtalovchilar qanday faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas?

=====

Sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan

=====

Sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan

=====

Jismoniy shaxslarni mol-mulkini sug'urta qilish bilan

=====

Yuridik shaxslarning transport vositalarini sug'urta qilish bilan

19. Yuridik shaxslarning qanday mol-mulklari bilan bog'liq mulkiy manfaati sug'urta obyekti sifatida qabul qilinmaydi?

=====

Korxona rahbarlarining shaxsiy transporti

=====

Binolar, inshootlar, tugallanmagan qurilish obyektlari

=====

Ishchi mashinalar, uzatish qurilmalari, quvvat beruvchi uskunalar va inventar

=====

Tovar zaxiralari, xomashyo, materiallar, yoqilg'i va boshqalar

20. Yuridik shaxslarning mol-mulkini va boshqa asosiy vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalariga ko'ra, korxonalarga sug'urta polisi qachon beriladi?

=====

Korxonalar tomonidan sug'urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgandan keyin shartnomada kelishilgan muddatda

=====

Korxonalar bilan sug'urta tashkiloti sug'urta shartnomasi imzolagan vaqtda

=====

Sug'urta shartnomasida kelishilgan muddatda

=====

Sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda

8-MAVZU: UY XO'JALIKLARI MOLİYASI

1-TOPSHIRIQ.

Ushbu savollarga javob yozing.

14. Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi.


15. Uy xo'jaligining ta'rifi.

16. Uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan xarakterli xususiyatlar.

17. Uy xo'jaliklari moliyasining har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi va uning moliyaviy ahamiyati.

2-TOPSHIRIQ.

“NIMA UCHUN?” SXEMASI



3-TOPSHIRIQ.

To'g'ri javobni belgilang.

1. Uy xo'jaliklari moliyasi...

- A. Davlat moliyasi tizimining tarkibiy qismi
- B. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyasining bir qismi;
- C. Umumdavlat moliyasining bir qismi;
- D. To'g'ri javob yo'q.

2. Aholining shaxsiy daromadlari qaysi ko'ratkichlar yordamida o'lchanadi?

- A. Hisoblangan nominal daromadlar va haqiqatda olingan nominal daromadlar
- B. Pul daromadlari va real daromadlar
- C. Ega bo'lingan va real ega bo'lingan daromadlar
- D. Nominal daromadlar, ega bo'lingan daromadlar va real daromadlar

3. Uy xo'jaliklarining mavjud jamg'armalarini qanday aktivlarga yo'naltirish kerakligini uy xo'jaliklarining qaysi qarori asosida aniqlashimiz mumkin?

- A. Investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan investitsion qarorlar;
- B. Pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar;
- C. Moliyalashtirish to'g'risidagi qarorlar;
- D. Riskni boshqarish bilan bog'liq qarorlar;

4. Uy xo'jaligi o'z iste'molchilik va investitsion rejalarini amalga oshirish uchun qachon hamda qay tarzda qarz olingan mablag'idan foydalanishi kerakligini aniqlashda uy xo'jaliklarini qaysi turidagi qaroridan foydalanadi?

- A) moliyalashtirish to'g'risidagi qarorlar; B) investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan qarorlar;
- C) Pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar;
- D) Riskni boshqarish bilan bog'liq qarorlar;

5. Oila boyligining qaysi qismini iste'molchilik ehtiyojlariga sarflash mumkinligi, joriy daromadning qaysi qismini kelajakda sarflash uchun saqlab qo'yish va jamg'arib borishligi uy xo'jaliklarining qaysi qaroriga misol bo'ladi?

- A) Pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar;
- B) moliyalashtirish to'g'risidagi qarorlar;
- C) investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan qarorlar;
- D) riskni boshqarish bilan bog'liq qarorlar;

6. Uy xo'jaliklari tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

- A) taqsimlash to'g'risidagi qarorlar; B) investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan qarorlar;
- C) Pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar;
- D) Riskni boshqarish bilan bog'liq qarorlar;
- E)

12-MAVZU: MOLIYAVIY RISKLAR

1- TOPSHIRIQ.

Savollarga javob yozing.

1. Xalqaro moliya.

2. Xalqaro moliyaning asoslari va rivojlanish tendentsiyalari.

3. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar.

4. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar.

5. XXI asr bo'sag'asida jahon iqtisodiyotidagi asosiy tarkibiy tendensiyalar.

6. Valyuta kursi va valyuta bozorlari.

7. Valyuta kursining inflyatsiyani hisobga olishga ko'ra almashuv kurslari.

**13- MAVZU DAVLAT MOLIYASI
2-TOPSHIRIQ.**

Ushbu atamalarni izohlang.

Valyuta operatsiyalari	
To'lov balansi	
Revalvatsiya	
Opsion	
Marja	
Devalvatsiya	
Likvidlilik	

14-MAVZU XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTAR MOLIYASI MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

3-TOPSHIRIQ.

To'g'ri javobni belgilang.

1. Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlari kimlar hisoblanadi?

- A. Xalqaro institutlar,davlatlar,jahon moliya bozorlari;
- B. Pul oqimlari,kredit vositalari oqimlari;
- C. Mamlakatlar o'trasidagi barcha moliyaviy munosabatlar;
- D. Transmilliy kompaniyalar.

2. To'lov balansi nima?

- A. mamlakat tomonidan valyuta ko'rinishida haqiqatda to'langan va boshqa davlatlardan olingan tushumlarning nisbati;
- B. faqatgina haqiqatda amalga oshirilgan xalqaro kredit bilan bog'liq to'lovlar va tushumlarning nisbati;
- C. Valyuta rezervlari va oltin rezervlari bahosi o'rtasidagi nisbat.
- D. Mamlakatning xorijiy davlatlarga bo'lgan talab va majburiyatlarning nisbati.

3. Shaxsiy sug'urtaning shakllarini ko'rsating.

- A. Ixtiyoriy va majburiy;
- B. Ixtiyoriy va xususiy;
- C. Majburiy va umumiy;
- D. Xususiy va majburiy.

4.O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilindi?

- A. 2003yil 11dekabr
- B. 1993yil 7may
- C. 1996yil 25aprel
- D. 1995yil 21dekabr

5.Foizlar va boshqa daromadlar ko'rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar hamda lizing bo'yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to'lanishi zarur bo'lgan xorijiy valyutadagi to'lovlar qayday valyuta operatsiyalari tarkibiga kiradi?

- A. Joriy xalqaro operatsiyalar
 - B. Savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalari
 - C. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari
 - D. Kreditlar olish va berish,lizing operatsiyalarini amalga oshirish
- NAZORAT SAVOLLARI**

15-MAVZU XALQARO MOLIYA

- 1.Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari.
- 2.Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari.
- 1.Xorijiy iqtisodchilarning moliyaga oid nazariyalari.
- 2.Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan metodlar.
- 3.Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy bashoratlash. Moliyaviy bashoratlash ta'rifi.
- 4.Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi va boshqaruv organlari faoliyati.
- 5.Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari).
- 6.Rivojlangan xorijiy mamlakatlar davlat moliya tizimining bo'g'inlari.
- 7.Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funktsiyalari bilan belgilanishi.
- 8.Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar. Firmaning ta'rifi va unga xos bo'lgan xususiyatlar.

9. Moliyaviy siyosatning moliya tizimi orqali amalga oshirilishi va uning printsiplari.
10. Moliya vazirligi, G'aznachilik tizimi organlari, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar. Ularning moliyaviy boshqaruv sohasidagi vakolatlari va vazifalari.
11. Moliyaviy rejalashtirish turlari: strategik moliyaviy rejalashtirish.
12. Innovatsiyalar va texnologiyalarning rivojlanishi.
13. Riskni "o'tkazish" variantlari: xejirlashtirish; sug'urtalash; diversifikatsiya.
14. J.M. Keynesning yetmayotgan talabni to'ldirish formulasi.
15. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar.
16. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati.
17. O'rta muddatli (5-10 yillik) moliyaviy bashoratlash va uzoq muddatli (10 yildan ortiq) moliyaviy bashoratlash.
18. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik printsiplari, konkret metodlari va shakllari.
19. Riskni "o'tkazish" va iqtisodiy (moliyaviy) samaradorlik: mavjud riskni samarali qabul qilish; risk va resurslarni taqsimlash.
20. Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi.
21. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o'ziga xususiyatlari.
22. Korxonalar moliyasi va korporativ moliya. Jismoniy (tabiiy) va moliyaviy kapital.
23. Iqtisodiy resurslarning vaqt (davr) bo'ylab (bo'yicha), davlat chegarasi orqali va iqtisodiyotning bir tarmog'idan boshqasiga o'tish (joyini o'zgartirish) usulini ta'minlash.
24. Moliya va taqsimlash jarayonlari, darajalari. Taqsimlash va qayta taqsimlash.
25. Taqsimlash va qayta taqsimlash ob'ektlari va sub'ektlari.
26. Byudjet tizimi va davlat tuzilishi. Unitar va federativ davlatning byudjet tizimi.
27. Moliyaviy resurslarni birlashtirish va turli korxonalarda egalikning bo'linishi mexanizmini ta'minlash.
28. Strategik rejalashtirish va strategik maqsadlar. Investitsiyalarni rejalashtirish. Investitsion loyiha.
29. Moliya bozorining rivojlanishi. Moliyaviy siyosat va real moliyaviy imkoniyatlar.
30. Moliyaviy bashoratlash metodlari. Moliyaviy dasturlashtirish.
31. Moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining qamralib olinishi darajasiga ko'ra taftishlarning turlari.
32. Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati.
33. "Taklif iqtisodiyoti" nazariyasidagi yangi konservativ yo'nalishning asosiy mazmuni.

34. A.Lefferning soliq kontsepsiyasi.Post keynschilar nazariyalari.
35. Kompaniyalar duch keladigan risklarning turlari. Riskiy boshqaruvda hukumatning roli.
36. Moliyaviy nazorat tizimining bir tipliligi va uning elementlari. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar.
37. Moliyaviy rejalashtirish turlari:strategik moliyaviy rejalashtirish; joriy moliyaviy rejalashtirish, ularning funktsiyalari va o'ziga xos xususiyatlari.
38. Moliyaning funktsiyalari va moliy amexanizmi.
39. Soliqqa tortishni maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilishning A.Smit tomonidan ilgari surilgan to'rt asosiy printsiplari va u soliq kontsepsiyasining maqsadlari.
40. O'zbekistonda moliyaviy siyosatning hozirgi kundagi asosiy vazifalari.Ishlab chiqilgan davlat moliya siyosati kontsepsiyasining maqsadi.
41. Asosiy va aylanma kapitalni boshqarish sifati. Firma moliyasini umumiy boshqarish.
42. Davlat byudjetining tarkibiy qismlari.

43. Moliya yordamida ifodalanadigan pul munosabatlari. Moliya va YaIM hamda MDni taqsimlash va qayta taqsimlash.
44. Moliya strategiyasining ijtimoiy yo'naltirilganligi. Ijtimoiy himoyaning ustuvorligi.
45. Moliyaviy rejalashtirish; bashoratlash (prognozlashtirish); dasturlashtirish; moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat; moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilish; moliyaviy resurslarni jalb qilish

46. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takrori shlab chiqarishdagi roli nimalar bilan belgilanadi?
47. Notijorat asosda xo'jalik yuritishning asosiy xususiyatlari.
48. Iqtisodiyotdagi muvozanat va tebranish jarayonlarini tavsiflovchi asosiy omillarni aytib bering?
49. Qanday omillar firmaning tashqi tanlovlariga ta'sir etib uni ichki moliyaviy kapitaliga qarshi qo'yadi?
50. Korxona moliyaviy siyosatining maqsadi nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
51. G'aznachilik tizimi – Moliya vazirligining muhim bo'linmasi, uning asosiy vazifalari.
52. Sotsial-iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'siri va uning maqsadlari.
53. Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan metodlar.
54. Risk nima?

55. Risklarning tasniflanishi.
56. Asosiy daromadlar Mdn moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash jarayonida qanday guruhlariga bo'linadi?
57. Moliyaviy hisobotning mazmuni.
58. Global moliyaviy inqiroz yuzaga kelishining qanday institutsional omillarini bilasiz?
59. Sug'urta kompaniyalari. Ularning asosiy funksiyalari
60. Moliyaviy siyosat, eng avvalo, nimaga yo'naltirilgan (qaratilgan) bo'lishi kerak va nima uchun?
61. Boj siyosatining mazmuni va uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari nimalardan iborat?
62. Moliyaviy oqimlar va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
63. Anderrayting va qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish.
64. Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa davlat organlarining moliyaviy nazoratni amalga oshirish borasidagi vazifalari.
65. Aksiya narxлари va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasida qanday bog'lanish mavjud?
66. Moliyaviy aktivlarning asosiy turlari.
67. Moliyaviy yangiliklar va bozorning "ko'rinmas qo'li".
68. Aktivlarning riski qanday o'lchanadi?
69. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy printsiplari.
70. Sub'ekt xo'jalik faoliyatini qamrab olishning to'liqligiga qarab taftishning turlari.
71. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja, uning asosiy vazifalari.
72. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar.
73. Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo'nalishlaridan) biri sifatida qanday tadbirlar kompleksidan iborat bo'lishi mumkin?

74. Nima deb o'ylaysiz imtiyozli aksiya o'zlik kapitalimi yoki majburiyat? Nima sababdan?
75. Yetakchi xorijiy mamlakatlar davlat moliya tizimining muhim bo'g'inlari sifatida Davlat byudjeti, davlat krediti, nobudjet fondlar va davlat korporatsiyalari moliyasi qanday xarakterli xususiyatlarga ega?
76. Unitar va federativ davlatning byudjet tizimi.
77. Jami ijtimoiy mahsulot va yalpi ichki mahsulotning bir-biridan farqlari, ularning afzallik va kamchilik tomonlari nimalardan iborat?
78. Amalga oshirilayotgan kredit siyosatiga muvofiq foiz stavkasi asossiz darajada yuqori bo'lsa, u qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin?
79. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida davlatning baho siyosati nimalar orqali ifodalanadi?
80. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik printsiplari, konkret metodlari va shakllari.
81. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari.
82. Hisob palatasining moliyaviy nazoratni amalga oshirish borasidagi vazifalari.
83. Qimmatliqog'ozlar bozorinima? Unimani anglatadi?
84. Moliyaviy nazoratni tashkilotning tamoyillari.
85. Ichki firmaviy (korporativ) nazorat, tijorat banklari tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan nazorat, auditorlik nazoratlari.
86. Sotsial-iqtisodiy jarayonlarga davlatning ta'siri va uning maqsadlari.
3. Oliy Majlis va moliya, byudjet, soliq va bank masalalari bo'yicha Oliy Majlis har ikki palatasining tegishli qo'mitalari.
87. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo'nalishlaridan) yanabiri bo'lgan pul siyosatining o'ziga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?
88. Bank sektorida sekuritizatsiyalash (bank aktivlari ta'minoti asosida qarz qimmatli qog'ozlarni chiqarish) amaliyoti to'g'risida nimalarni bilasiz?
89. Davlat moliyasi va mahalliy moliya hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasining bo'g'inlari.
90. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida moliyaning nazorat funksiyasi nimalarga yo'naltiriladi?
91. Moliyaviy rejalashtirishning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari.
92. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida davlatning byudjet siyosati, eng avvalo, nimalarga muvofiq ravishda aniqlanadi va uning mazmuni nimalardan iborat?

**MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
MAVZULARI VA ULARNI O'ZLASHTIRISH
BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA**

1.Kirish

«Moliya asoslari» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma Iqtisodiyot yo'nalishi 2-3-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

2. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Moliya asoslari» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

«Moliya asoslari» fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – «Iqtisodiyot» kafedrası professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

«Moliya asoslari» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha mustaqil ish tayyorlash;
- Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarini mustaqil o'rganish va konspektlashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo‘yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to‘garaklarida ishtirok etish;
- ko‘rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- ilmiy maqola, tezislari va ma‘ruza matnlarini tayyorlash;
- “talaba-o‘qituvchi-kutubxona” kunida fan bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlari sharhini o‘qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo‘yicha nazariy, amaliy va statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo‘yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar turar joyidagi ma‘naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o‘qish jarayonlarida ishtirok etish;
- fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta‘lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo‘ysundirilganki, butun o‘quv jarayoni to‘laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o‘zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta‘lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e‘tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o‘qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan matn o‘qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

«Moliya asoslari» fani bo‘yicha o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan mustaqil ishlar ko‘proq mustaqil ishlar qo‘rinishida bo‘lib kelmoqda. Mustaqil ish talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o‘quv jarayonlaridan biri sifatida o‘qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o‘z

xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Agar mustaqil ish tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, mustaqil ish shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida mustaqil ishda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, Moliyani o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ish - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan mustaqil ish mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, mustaqil ishni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarining mustaqil ish ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va mustaqil ishlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarining mustaqil ish yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalarining ilmiy-nazariy konferentsiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarining konferentsiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarining ilmiy-nazariy konferentsiyalarini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Moliya fani bo'yicha talabalarining ilmiy-nazariy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlarida konferentsiyalarni o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma'ruzalarini fakultet va fakultetlararo konferentsiyaga taqdim etish va o'tkazish;

3-bosqich – fakultetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo'lgan konferentsiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma'ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

3.Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

- 1.Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.
- 2.Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.
- 3.Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:
 - talabaning o'qish bosqichi;
 - muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
 - talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
 - fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
 - talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;
 - mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
 - mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

4.Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;

- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

5. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. «Moliya asoslari» fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish yuzasidan hisobot shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Mavzuning nomlanishi	Hisobot shakli
1-bo'lim		
1.	Moliya tizimi	yozma
2.	Moliyaviy qarorlar	yozma
3.	Moliyaviy siyosat	ko'rgazmali vositalar tayyorlash
4.	Moliyaviy boshqaruv	testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
5.	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish	mavzu bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish
6.	Moliyaviy nazorat	taqdimot materiallari tayyorlash
7.	Moliyaviy risklar	keysar yechish
8.	Moliyaviy bozorlar	mavzu bo'yicha ilmiy jamiyatlar va to'garaklarida ishtirok etish
2-bo'lim		
9.	Moliyaviy vositachilar	mustaqil ish
10.	Moliyaviy muassasalar	hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish
11.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi mohiyati va funksiyalari	ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash
12.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy resurslari	mavzu bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish
13.	Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining moliyaviy jihatlar	taqdimot materiallari tayyorlash
14.	Investitsion dasturlarni moliyalashtirish	yozma
15.	Kichik biznes moliyasi	ko'rgazmali vositalar tayyorlash
16.	Davlat budjeti	testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash

3-bo`lim		
17.	Budjet tizimi va budjet tuzilmasi	mavzu bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish
18.	Davlatning budjetdan tashqari jamg'armalari	taqdimot materiallari tayyorlash
19.	Ijtimoiy ta'minot	keysarlar yechish
20.	Davlat krediti	mavzu bo'yicha ilmiy jamiyatlar va to'garaklarida ishtirok etish
21.	Uy xo'jaliklari moliyasi	yozma
22.	Sug'urta	hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish
23.	Xalqaro moliya	yozma
24.	Uy xo'jaligining ta'rifi.	mavzu bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish
25.	Uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan xarakterli xususiyatlar.	taqdimot materiallari tayyorlash
26.	Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati.	yozma
27.	Sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanish tamoyillari	yozma
28.	Sug'urtaning funksiyalari.	ko'rgazmali vositalar tayyorlash
29.	Xalqaro moliya(ning) asoslari va rivojlanish tendensiyalari.	testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
30.	Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar	mavzu bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish
31.	Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar.	taqdimot materiallari tayyorlash
32.	Sug'urta o'ziga xos pul munosabatlarining yig'indisi.	yozma

Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, mustaqil ish, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

6. Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi

Mustaqil ishlarning bajarilishi "Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi" talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari talabalarga o'quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

«Moliya asoslari» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali nazorat qilish hamda baholash tavsiya etiladi:

№	Mustaqil ish shakllari	Baholash mezonlari
1.	Mustaqil ishni mavzu asosida to'la yoritishi, ma'lumotlari yangi va tahlil etilgan bo'lishi hamda o'z ishini himoyasida a'lo javob berishi	5 baho
2.	Mustaqil ishdagi materiallar nisbatan dolzarb, tahliliy ishlar bajarilgan va talaba o'z ishi bo'yicha asosiy mavzu doirasida javob berishi	4 baho
3.	Mustaqil ish mavzu doirasida, asosiy materiallar berilgan, hamda talaba mavzu bo'yicha umumiy tushunchalarni bera olishi	3 baho
4	Mustaqil ish bo'yicha umuman qoniqarsiz ish bajarsa yoki qo'yilgan minimal vazifalarni bajara olmasa	2 baho

Talaba «Moliya asoslari» fanining ishchi dasturiga muvofiq semestr davomida kamida 1 ta mustaqil ish topshirishi kerak.

Bajarilgan mustaqil ishlarni professor-o'qituvchilar agar ishni himoya qilish talab etilsa, dars davomida, himoya talab etilmasa, ikki kun davomida tekshirib, baholarni e'lon qilishi va tegishli hujjatlarda qayd etishi lozim.

Shuningdek, professor-o'qituvchi tomonidan talabaga fanni qo'shimcha o'zlashtirish va qoldirgan darslarini qayta topshirish maqsadlarida ham qo'shimcha mustaqil ish ishlari topshirilishi mumkin, bunda ballar talaba yig'a olmagan ballar hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

GLOSSARIY

GLOSARIYLAR

MOLIYA – davlatning o'z funktsiya va vazifalarini bajarishi hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalanilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Markazlashgan pul fondlari - davlat va mahalliy hokimiyat miqyosida jamlangan pul fondlari.

Markazlashmagan pul fondlari - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va uy xo'jaliklari miqyosida jamlangan pul fondlari.

Munosabatlarning pulli xususiyati - yaratilgan qiymatni taqsimlash bilan bog'liq pul munosabatlari hamda turli xil pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar.

Munosabatlarning taqsimlash xususiyati - birlamchi taqsimlash (ish haqi fondini shakllantirish, foydani shakllantirish va boshqalar) va qayta taqsimlash (ish haqi fondini taqsimlash, foydani taqsimlash, soliqlar).

Munosabatlarning fondlilik xususiyati - markazlashtirilgan pul fondlari (davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar) va markazlashtirilmagan pul fondlari (korxonalarda shakllantiriladigan moddiy rag'batlantirish, iste'mol va boshqa fondlar).

Ijtimoiy iste'mol fondlari - maorif, sog'liqni saqlash, boshqaruv, mudofaa, sotsial ta'minot, sotsial sug'urta va boshqalar bo'lib, ularning asosiy qismi Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi.

SHaxsiy iste'mol fondlari - shaxsiy jamg'arma va iste'mol fondlarini tashkil etib, aynan shaxsiy iste'mol fondining ana shu ikki qismi tovar mexanizmining faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli sharoitni yaratadi.

Moliya siyosati – bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'luvchi tadbirlar yig'indisidir.

Moliya siyosatining muhim vazifasi – u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir.

Moliya siyosatini asosiy yo'nalishlari – moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyliigi va uzluksizligini ta'minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potentsiali barcha o'zgarishlarning bazasidir.

Moliyaviy strategiya deb korxonani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun tuzilgan asosiy rejaning tarziga aytiladi.

Asosiy moliya strategiyasi deb, korxonani faoliyatini aniqlovchi byudjetni hamma darajasida bo'ladigan o'zaro munosabatlariga, korxonani daromadlarini tashkil etib uni sarflashga, ehtiyojlik miqdorini va bir yilda moliyalashtirish manbalariga aytiladi.

Operativ moliya strategiyani, asosiy moliyaviy strategiyadan farqi, u o'z ichiga yalpi daromdlarni va mablag'larni ko'payishini (ish haqi, sotilgan mahsulot uchun sotib oluvchilar bilan hisob-kitob qilish, kredit operatsiyalaridan tushumlar) va hamma yalpi xarajatlarini (ta'minlovchilar bilan hisob-kitob, ish haqi, hamma darajadagi byudjetlar va banklar bilan majburiyatlarini uzmoq) oladi.

Moliyaviy strategiya – ijtimoiy va iqtisodiy strategiyani belgilab bergan uzoq istiqbolga muljallangan va yirik masshtabdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u moliya

rivojlanishining asosiy kontsepsiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillarini belgilashni ko'zda tutadi.

Moliyaviy taktika – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

Moliya mexanizmi – taqsimot va qayta taqsimot munosabatlarining keng tizimini amalga oshirish, daromad va jamg'armalarni tashkil qilish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini tuzishni ta'minlovchi shakl va usullar yig'indisidan iboratdir

Istiqbolni aniqlash – moliyaviy mexanizmining asosiy qismi bo'lib, u moliyaviy rejalar va balanslarni hamda moliyaviy ko'rsatkichlar, norma va normativlar tizimini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy dastaklar va rag'batlantirish vositalari – ularga foydani taqsimlash usullari, turli fondlarga to'lovlar, ajratmalar, qo'llaniladigan imtiyozlar, sanksiyalar, jarimalar, soliqlar, subsidiya, subventsia va sanatsiyalar kiradi.

Moliyani boshqarish – sub'ektlarning moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish, pul oqimi – fondlarini uyushtirish, taqsimlash va samarali ishlatishga oid faoliyatni bildiradi.

Davlat moliyasi -davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funktsiyalarini bajarish uchun pul mablag'lari bilan ta'minlashga undalgan moliya tizimining muhim bo'g'inidir.

Byudjetdan tashqari fondlar – umumdavlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan davlat hukumatining yuqori organlarining tegishli aklari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

Davlat byudjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli fondlari mablag'larining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi

davlat qarzi - davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi;

Nazorat - jamiyat iqtisodiy hayotidagi ob'ektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini bo'lib, u ko'p ming rahbar va mutaxassislar, mehnat jamoalari, jamoat va davlat tashkilotlarining sub'ektiv ijod sohasidir.

Moliyaviy nazorat tizimi sub'ektlar (nazorat qiluvchilar), ob'ektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o'z ichiga oladi.

Moliyaviy nazorat - davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir.

Nazoratning maqsadi - tuzatish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va buzish-larning oldini olishdan iborat.

Moliyaviy nazoratning sub'ektlari - nazorat vazifalarini ifodalovchi organlarlar.

Moliyaviy nazorat ob'ektlari - moliya tizimi va iqtisodiy samaradorligini tekshirish lozim bo'lgan moliya-xo'jalik-tijorat tuzilmalari paydo bo'lganida nazorat sub'ektlari (taftishchilar)ni tashkil etish zarurati paydo bo'ladi.

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi- davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish

Nodavlat moliyaviy nazoratining maqsadi - joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirish

Dastlabki nazorat taxminlash, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, xo'jalik yoki moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan avval o'tkazilib, oqilona boshqaruv yechimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Joriy nazorat - ichki xo'jalik nazoratining uzviy qismi, butun korxona va uning ichki bo'linmalari ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini tezkor boshqarish va tartibga solish jarayonining tarkibiy qismidir.

YAkuniy nazorat xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o'tkazilib, tekshirilayotgan hujjatlarni va korxonaning butun moliyaviy holatini chuqur o'rganish bilan farq qiladi.

Umumslubiy usullar: taftish, audit, tahlil, mavzuli tekshirish, tadqiq qilish, pirovard natijaga dasturiy baholash, «sansen» uslubi;

Hujjatlar asosidagi nazorat usullari: rasmiy va arifmetik tekshirish, yuridik baholash, mantiqiy nazorat, muqobil tekshirish, teskari hisob usuli, balans uyg'unligini tekshirish, qiyoslash, hisobotlarning sanoq bahosi;

Faktlar bo'yicha nazorat usullari: ro'yxatga olish, ekspertiza, ko'z bilan kuzatish, nazorat o'lchovi, nazorat tariqasida ishga tushirish, vaqtni aniq o'lchash, ish kuni taqsimlanishini o'rganish, laboratoriya tahlili.

Moliyaviy resurslar – bu YAIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlatning qo'lidagi u yoki bu vaqtda bo'lgan pul daromadlari va fondlari yig'indisidir.

Qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lar - bank kreditlar, - kreditorlik qarzlari, - aktsiya va abligatsiyalar chiqarishdan tushum.

Markazlashgan moliyaviy resurslar -xo'jalik sub'ektlari ixtiyoridagi moliyaviy resurslardir.

Markazlashgan moliyaviy resurslar - makrodarajadagi ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirib, ularga byudjet va byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari kiradi.

Real investitsiya- Ishlab chiqarishni kengaytirishga noishlab chiqarishni rivojlantirishga qilingan investitsiyalar.

Portfel - Qimmatli qog'ozga qilingan investitsiya va Boshqa korxonaning aksiyasiga kiritish .

O'z-o'zini moliyalashtirish- qo'shimcha mablag'lar manbalarini jalb qilishning eng ko'zga ko'ringan usuli, lekin uni uzoq muddatlar uchun prognoz qilish qiyin va miqdor jihatidan ham chegaralangan.

Byudjetdan moliyalashtirish - bu turli xil byudjet pog'onalaridan mablag'lar olinishini anglatuvchi, moliyalashtirishning eng qulay usullaridan biridir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro moliyalashtirish - korxonalar o'zaro xujalik munosabatlarini amalga oshirish jarayonida bir-birlariga turli xildagi mahsulotlar yetkazib berishda to'lovlarni kechiktirish hollari ham yuz beradi va buning natijasida o'zaro moliyalashtirish xolati yuzaga keladi.

Aktiv kapital- bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab iqarish quvvatidini aks ettiradi. Ular ikkita bo'lim – asosiy va aylanma kapital ko'rinishida buxgalteriya balansi aktivlarida rasmiy taqdim etiladi.

Passiv kapital – bu uzoq muddatli mablag'lar manbai bo'lib, ular hisobiga xo'jalik sub'ektining aktivlari shakllantiriladi. Ular o'z va qarz kapitalga ajratiladi.

Xarajatlar – bu aktivlarning kamayishi yoki foydani ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z zimmasiga olish orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

Foyda – bu xo'jalik sub'ektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat, hodisalar, sharoitlar kapitalining ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan badallar bundan mustasnodir.

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha boshqa operatsiyalar, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

Korxonalar moliyaviy – xo'jalik faoliyatining muhim ko'rsatkichi - uning daromadlaridir.

Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar deganda korxona ustavida belgilangan asosiy faoliyatdan olingan daromadlar tushuniladi.

Asosiy bo'lmagan faoliyatdan olingan daromadlar deganda bevosita asosiy faoliyatga taaluqli bo'lmagan faoliyat turlaridan olingan daromadlar tushuniladi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar deganda qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari, kredit va qarzlarni berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga royalti, dividendlar va foizlar, ijobiy kurch farqlari ko'rinishidagi daromadlar va boshqalar kiradi.

Favqulotdagi daromadlar deganda yuz berishi xarakteriga ega bo'lmagan, kutilmagan tasodif va hodisalardan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga davlat qonunlarini o'zgarishi, tabiiy ofatlar, revolyutsion o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan daromadlar kiradi.

Dividentlar - bu aktsiyalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar uchun hisoblangan daromad.

Foizlar ko'rinishidagi daromadlar deganda boshqa yuridik shaxslarga berilgan qarzlarni va kreditlar uchun hisoblangan foizlar tushuniladi.

Valyuta kurslari farqlaridan olingan daromadlar deganda korxonaning valyuta schyotida saqlanayotgan chet valyutasi va chet El valyutasidagi debitorlik qarzlarni bo'yicha hisoblangan ijobiy kurs farqlari tushuniladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalari bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o'tkazish orqali amalga oshirish tushuniladi.

Moliya bozori - murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, asosan kapital egasi bo'lgan mulkdorlar bilan qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalab, bu munosabatlar ma'lum moliyaviy institutlarning yordami bilan amalga oshiriladi.

Bozor infratuzilmasi - bozor aloqalarini o'rnatishda ishtirok etuvchi, ya'ni sotuvchilar va xaridorlarga xizmat ko'rsatuvchi institutlardir, ya'ni firma va turli muassasalardir.

Moliyaviy institutlar - investorlar bilan omonatchilar o'rtasida faoliyatning o'zlari mashg'ul bo'lgan turidan foyda oluvchi vositachilik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslardir. Banklar, pensiya va investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, tovar, xom ashyo va fond birjalari, aktsiyadorlar va boshqalar moliyaviy vositachi sifatida harakat qiladilar.

Moliyaviy vositachilar qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun taqsimlash va nazorat vazifasini bajaradilar, zero to'plangan fondlarni to'g'ri taqsimlashgina emas, balki ulardan jamiyat uchun nag'adar samarali, qanday foyda bilan ishlatilayotganligini nazorat qilish ham muhim

Pul bozori Markaziy bankning pul-kredit siyosatini joriy qilish ob'ekti xisoblanadi. U kredit muassasalarining aktivlari bilan savdo qilish uchun mo'ljallangan, bu aktivlar Markaziy bankda kredit muassasalarining eng muhim likvid mablag'lari zahiralar bo'lib xizmat qiladi.

Pul bozori davlat xazinasiga bevosita naqd pul tushishini ta'minlaydi va firma yoki jismoniy shaxsga o'zlarining vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan daromad olishga imkon beradi. Pul bozorisiz to'lik ma'nodagi moliya bozori bo'lishi mumkin emas.

Qimmatli qog'ozlar bozori - bozor iqtisodiyotini asosiy elementlaridan biri, moliya bozorining bir qismi hisoblanib, fondlarni yig'ib, ularni moliyaviy aktivlarga aylantirib, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarmoya sifatida yo'naltirishga xizmat qiladi.

YOpiq birja - bu birjadagi undagi savdolarida faqat uning a'zolarigina ishtirok etishlari mumkin;

Tashrif buyuruvchilarning erkin kirishi mumkin bo'lgan birjalar - undagi bitimlarni faqat maklerlarga amalga oshiradilar.

Kapital bozori. Bu bozorda jismoniy va yuridik shaxslarning uzoq muddatli omonatlarini moliyaviy vositachilar investitsion kredit sifatida ishlatadilar.

Pul bozori. Fondlar faqat uzoq muddatli investitsiyalargagina emas, balki qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar - qisqa muddatli xazina majburiyatlari, veksellar va hokazolarga qo'yilishi mumkin.

Aktsiyalar ulushga egalik qilish huquqini beruvchi qimmatli qog'oz.

Aktsiya-aktsionerlik jamiyati tomonidan chikarilgan daromad keltiruvchi qog'oz.

Aktsiyaning nominal qiymati - bu aktsiyada yozilgan pul summasidir.

Oddiy aktsiyalar shunday aktsiyaki unga tegadigan dividend foydaga qarab har xil bo'ladi.

Imtiyozli aktsiya shunday aktsiyaki, unga tegadigan dividend foydaga qarab emas, balki zayomga to'langani kabi, oldindan belgilangan qat'iy foiz miqdorida beriladi.

Obligatsiya - bu o'z qiymatiga nisbatan qat'iy belgilangan foiz shaklida daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozdir.

Bank sertifikati - bu emitent bank tomonidan uning nomiga mijozning pul mablag'lari quyilgani to'g'risida berilgan yozma guvohnoma bo'lib, u o'zining egasiga (yoki uning vorisiga) belgilangan muddat o'tishi bilan bankka quygan pul summasini va bu quyilgan pul summasi bo'yicha foiz daromadini olish huquqi borligi tug'risida guvohlik beradi.

Bank sertifikati - bu bankning qisqa muddatli qarz majburiyatidir. Uning qisqa muddatli ekanligi, inflyatsiya sur'atlari bilan ham ulchovligi, likvidligi va yuqori daromadligi benifitsiariga, agar u o'z kapitalligini ko'paytira olmagan taqdirda hech bo'lmaganda bu kapitalini dastlabki miqdori darajasida saqlab qolish imkonini beradi.

Davlat byudjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli fondlari mablag'larining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat byudjetining taqsimlash funktsiyasi- davlat byudjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlari bo'lib, u taqsimlangan yalpi ichki (milliy) mahsu-lotni qayta taqsimlash uchun foydalaniladi.

Davlat byudjetining nazorat funktsiyasi -byudjetning milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligi takror ishlab chiqarishning barcha bo'linmalarida ah-volning qandayligi to'g'risida ma'lumotlar bilan doimiy ta'min-lab turadi.

Qattiq majburiylik, imperativlik - Davlat byudjetining na-zorat funksiyasiga tegishli bo'lgan uchinchi xususiyatdir.

Davlat byudjeti - mamlakat-ning moliya tizimida markaziy o'rinni egallab, markazlash-tirilgan pul fondini shakllantirish orqali uning yordamida katta hajmdagi moliyaviy resurslar davlatning qo'lida to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi.

Byudjet tizimi - turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluv-chilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini ifodalaydigan, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuidir.

Byudjet tizimining yagonaligi printsipi huquqiy bazalar, pul tizimi, byudjet hujjatlari shakllari, byudjet jarayoni printsiplari, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun sanksiyalarning yagonaligi, mamlakat byudjet tizimi barcha darajalari byudjet-lari xarajatlarini moliyalashtirish va byudjet mablag'lari bux-galteriya hisobini yurgizish tartibining yagonaligi bilan belgi-lanadi.

Byudjeti tizimining darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarning chegaralanganligi printsipi tegishli daromad-lar turlarini (to'liq yoki qisman) va xarajatlarni amalga oshi-rish bo'yicha vakolatlarni mamlakatning hokimiyat organlari, mam-lakat sub'ektlarining hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga birlashtirilganligini ko'zda tutadi.

Byudjetlarning mustaqilligi printsipi qonunchilik va davlat hokimiyatining ijroiya organlari hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining mamlakat byudjet tizimining tegishli darajalarida byudjet jarayonini mustaqil amalga oshirish bora-sida huquqlarini bildiradi.

Davlat nobyudjet fondlari byudjetlari, byudjetlar daromadlari va xarajatlarning to'liq aks etishi printsipi byudjetlar, davlat nobyudjet fondlari byudjetlarining barcha daromad va xarajatlari hamda soliq va byudjet qonunchiligi hamda davlat nobyudjet fondlari to'g'risida qonunlarga muvofiq belgilangan barcha boshqa majburiy tushumlar byudjetlarda, davlat nobyudjet fondlarining byudjetlarida majburiy tartibda va to'liq hajmda o'z aksini topish kerakligini anglatadi.

Byudjetlarning balansliligi printsipi byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlarning hajmi byudjet daromadlari va uning defitsitini moliyalashtirish manbalaridan tushadigan tushum-larning jami hajmiga teng bo'lishi kerakligini bildiradi.

Byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va tejamliligi printsiplarining ma'no-mazmuni shundan iboratki, unga muvofiq ravishda vakolatli organlar va byudjet mablag'-larini oluvchilar byudjetlarni tuzish va ularning ijrosini ta'minlashda, eng avvalo, ko'zda tutilgan (rejalashtirilgan) maq-sadlarga erishishda mablag'larning eng kamroq hajmidan yoki ma'-lum bir hajmdagi byudjet mablag'laridan foydalangan holda, eng yuqori natijaga erishishning zarurligidan kelib chiqmog'i kerak.

Byudjet xarajatlarini qoplashning umumiyliigi (yoppasigaliligi) printsipi byudjet barcha xarajatlarining shu byudjet barcha daromadlari umumiy summasi va uning defitsitini moliyalashtirish manbalari hisobidan tushgan tushumlardan qoplanishi kerakligini anglatadi.

Byudjetning haqqoniyligi printsipi tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bashorat (prognoz) ko'rsatkich-larining ishonchli hamda byudjet daromadlari va xarajatlari hisob-kitoblarining haqqoniy bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Davlat byudjetining daromadlari - mamlakat yalpi ichki (mil-liy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayoni-ning elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega.

Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi.

Byudjetning soliqli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, ma-halliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Egri (bilvosita) soliqlar - huquqiy to'lovchisi yuridik shaxslar va haqiqiy to'lovchilari iste'molchilar bo'lgan soliq turlari (QQS, aktsizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslar-dan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq)

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i - mol-mulk va yerga ega bo'lganlik va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqlar (mol-mulk solig'i; yer solig'i; yer osti boylik-laridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq)

Byudjet xarajatlari YAIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisidir

Milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) qilinadigan xarajatlar - katta masshtablarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy in-dustrial asosda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlan-tirish, transport, aloqa va iqtisodiyot boshqa tarmoqlarining tex-nikaviy qayta qurollanishini ta'minlashga imkon yaratadi.

Davlat byudjetining mudofaa xarajatlari - davlatning o'z mudo-faa qobiliyatini mustahkamlashi kerakligi bilan bog'liqdir. Byudjet mablag'lari hisobidan Qurolli Kuchlarning barcha turlari moliyalashtiriladi.

Boshqaruv xarajatlari - boshqaruv (davlat hokimiyati or-ganlari, sud va prokuratura organlari, fuqarolarning o'z-o'zini bosh-qaruv organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliya-viy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rah-barlik qilishga imkon yaratadi.

Byudjetdan moliyalashtirish - rejada ko'zda tu-tilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'ektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim etish tizimi tushuniladi.

Byudjetdan mablag' ajratish - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari;

Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi - bu byudjet tashkilotlari tomonidan bir moliya yili davomida davlat byudjetidan mablag' olish maqsadida tuzadigan va bevosita o'zi tegishli bo'lgan moliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladigan va tasdiqlanadigan moliyaviy reja hisoblanadi.

Respublika byudjeti - Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti - Davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjetlar— O'zbekiston Respublikasi mahalliy ma'muriy-hududiy tuzilmalarining naqd va naqdsiz shakldagi pul resurslari va oqimlari yig'indisi bo'lib, mahalliy

xo'jalik ehtiyojlarini normal darajada ta'minlashga hamda mahalliy hududdagi aholiga ijtimoiy-madaniy xizmatlarni pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlar, "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlarni o'z ichiga oladi. Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet jarayoni va byudjet huquqi qonun bilan belgilangan.

O'z daromadlari – mahalliy hududdan yig'iluvchi va shu hudud byudjetiga tushuvchi mahalliy soliq va yig'img'lar

byudjet ssudasi - yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag';

byudjet subventsiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

byudjet dotatsiyasi - o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

aylanma kassa mablag'i me'yori - moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori;

Byudjet jarayoni - davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish, ijrosi yuzasidan nazoratni olib borish, ijrosi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash yuzasidan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan jarayon .

Moliya yili - birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Byudjet so'rovi - byudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov.

Byudjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Byudjet jarayoning bosqichlari - byudjet loyihasi tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ijro etish va nazorat qilish, ijrosi bo'yicha hisobot tayyorlash.

Davlat moliyasi -davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini bajarish uchun pul mablag'lari bilan ta'minlashga undalgan moliya tizimining muhim bo'g'inidir.

Maqsadli fondlar - Moliya tizimining muhim tizimlaridan biri bo'lib, markaziy va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoridagi va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan pul resurslari yig'indisidir.

Byudjetdan tashqari fondlar – umumdavlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan davlat hukumatining yuqori organlarining tegishli aklari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

Pensiya fondi – bu pensiya bilan ta'minlovchi davlat moliya boshqaruvining organi bo'lib, mustaqil moliya instituti hisoblanadi va fondning mablag'lari davlat byudjeti tarkibiga kirmaydi.

davlat maqsadli jamg'armalari - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

Byudjetdan tashqari fondlarning afzalliklari - davlat byudjetini yengillashtiradi, byudjet xarajatlari-ning bir qismini o'z zimmasiga oladi va byudjetni mablag' bilan ta'minlash muammosini ma'lum darajada hal qiladi va mablag'lardan maqsadli foydalanadi.

Ijtimoiy ta'minot – keksaygan, mehnatga laqatsiz bo'lgan va boquvchisini yoo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha dalat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir.

Ijtimoiy ta'minotning muhim elementlari - pensiyalar (keksalik bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha) va ijtimoiy nafaqalar (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg'iz nogiron va keksalarga) to'lovlari hisoblanadi.

Pensiya – mehnat stajiga ko'ra qo'lga kiritilgan huquq, ijtimoiy nafaqa esa muhtojlarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam deb belgilab qo'yildi.

Ijtimoiy nafaqa – muayyan sabablarga ko'ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan va domiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

Moddiy yordam – ishsizlar, qochoqlar va majburiy ko'chib o'tgan-larga bir martalik to'-lanmalar va boshqalar

Imtiyozli to'lanmalar, kompensatsiyalar – uy-joy-kommunal xizmatlariga, transport xizmatlari, sanatoriya-kurort davolashlari va davo-lash vositalari bilan ta'minlash xizmatlarini to'lash va boshqalar

Davlat krediti munosabatlarining asosi - munosabatlarida bo'sh turgan pul kapitallariga nisbatan davlat ehtiyojlarining mavjudligi.

Davlat krediti - davlat, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul munosabatlarining o'ziga xos alohida shaklidan iborat. Bunda davlat, asosan, mablag'larni qarzga oluvchi, shuningdek, kreditor va kafil sifatida ham maydonga chiqadi.

davlat ichki qarzlari - davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi;

davlat tashqi qarzi - davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi;

davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish - aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi;

davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish - aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi;

davlat qarzi - davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi;

Sug'urta – bu uning qatnashchilari o'rtasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi.

Sug'urtalovchi. Sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot. Tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta qonunchiligi yoki sug'urta shartnomasi asosidagi shartlarni ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar.

Sug'urtalanuvchi. O'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildirgan korxona, xo'jalik tashkiloti yoki o'z hayotini sug'urtalovchi fuqarolar sug'urtalanuvchi hisoblanadilar. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tashkiloti ro'yxatidan o'tganlar yoki ixtiyoriy sug'urta bqyicha shartnoma tuzib, sug'urta badalini to'laganlar sug'urtalanuvchilar qatoriga kiradi.

Hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bqyicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy tqlovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

Umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Majburiy sug'urta – qonun yo'li bilan o'rnatiladigan sug'urta.

Ixtiyoriy sug'urta - tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta .

Bozor iqtisodiyoti - turli – tuman sub'ektlarning bozordagi talab ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyatlarining majmuasidir.

Oila qon – qarindoshlik munosabati, demak u noiqtisodiy xarakterdagi munosabatdir. U

Uy xo'jaligi uy – joy sharoiti va umumiy, bir qator tovarlar va xizmatlarni birgalikda iste'mol etish maqsadida o'zining pul daromadi va moddiy mablag'larini birlashtirgan kishilar guruhi tushuniladi.

Oilaviy biznes- tadbirkorlik turi bo'lib, xonadon funktsiyasi hisoblanmaydi.

Uy xo'jaligi ixtiyoridagi mol-mulk - birgalikda va individual ishlatiladigan mol – mulkdan iborat bo'ladi, ular asosan iste'mol buyumlari hisoblanadi.

Uy xo'jaliklari moliyasining ijtimoiy funktsiyasi -uy xo'jaliklarining daromadlari, xarajatlari va jamg'arma-lari aholi va uning alohida guruhlari ijtimoiy-iqtisodiy holatini bevosita aks ettiradi, shaxsning shakllanishi va de-mografik jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklari daromadlari -ma'lum bir davrda uy xo'jaliklarining ixtiyoriga kelib tu-shuvchi pul mablag'lari summolari.

Uy xo'jaliklarining natural shakldagi daromadlari - tovar shakliga ega emas va ular o'z-o'zini ta'minlashga mo'ljallangan uy xo'jaligi a'zolari mehnatining na-tijasidan iborat bo'ladi

Uy xo'jaliklarini pul daromdalari - turli manbalar hisobidan uy xo'jaliklarining ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'larining barcha summasi.

Uy xo'jaligi moliya resurslarining yangi manbalari - bu mulkdan kelgan daromaddir, lekin uning ahamiyatini mulkning miqdori va uni samarali ishlatilishi belgilaydi.

Uy xo'jaliklari xarajatlari uy xo'jaliklari tomonidan iste'molga, majburiy to'lovlarni amalga oshirishga va jamg'arishga yo'naltiriladigan pul mab-lag'lari.

**TAVSIYA ETILADIGAN ASOSIY VA QO'SHIMCHA
O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT
MANBALARI**

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. R.D.Dusmuratov Moliya. Darslik-T.:” Fan va texnologiya”-2013 y.-496 b.
2. A.V.Vaxobov, T.S.Malikov Moliya Darslik-T.:”Noshir”-2011y.- 502 b
3. Malikov T.,Olimjonov O.Moliya. Darslik.–T.:“Iqtisod-moliya”,2019.-920 b.
4. Malikov T.Moliya. O‘quvqo‘llanma.–T.:“Iqtisod-moliya”,2018.-274 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Ахунова Е.Финансы. Учебник.ЧастII.–Т.:“Иқтисод-Молия”,2019.–320с.
6. Nurmuxamedova B.,Xamdamov Sh. Davlat moliyasi. Darslik.–T.: Iqtisod-moliya”, 2020. – 428 b.
7. Sultonov Sh.,Chinqulov Q., G‘ofurova U.,Safarova N. Biznes moliyasi. O‘quv qo‘llanma.–T.:“Iqtisod-moliya”,2019.–358b.
8. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma.–T.:“Iqtisod- moliya”, 2018. - 576 b.
9. Fozilchayev Sh., Xidirov N. Moliyaviy risklar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 240 b.
10. Ataniyazov J. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik.–M.:“Iqtisod- moliya”.2020. - 612 b.

Axborot manbaalari

- 11.www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
- 12.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
- 13.www.tradingeconomics.com – экономические показатели
13. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sayti)
14. www.ach.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining sayti)

ILOVALAR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
NODAVLAT OLIIY TA’LIM MUASSASASI**

“TASDIQLAYMAN”

Rektor _____

K.Boymirzayev

«___» _____ 2023-yil

Ro'yxatga olindi: №BD-

60410400 -1.10

2023yil «___»

MOLIYA ASOSLARI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000 - Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 - Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410400–Moliya va moliyaviy texnologiyalar

Namangan-2023

Fan/modul kodi MA1305		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliya		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishning maqsadi – talabalarga moliyaviy munosabatlarning nazariy asoslarini, moliya tizimi haqida tushuncha va uning funksiyalari, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, kreditning mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, muammolarni hal qilishda analitik imkoniyatlardan foydalanish, kapital bozori muvozanati va aktivlar sinfini tahlil qilish, kutilayotgan xavf va uni kamaytirish, kapital aktivlarni narxlash modeli va samarali bozor gipotezasi o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish, moliya va investisiyalar faoliyatiga oid qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish. - moliya va investisiyalarning asosiy nazariyalari va modellarini tushuntirish; - moliya va investisiyalar tizimini o'rganish; - moliya va investisiyalar tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni samaradorligi baholash; - talabalarda moliya va investisiyalar boshqaruvni amalga oshirish mexanizmi va boshqaruv strategiyalarini qo'llash, shu jumladan "aqliy hujum", iqtisodiy muammolarni hal qilish; - moliyaviy boshqaruvni o'rganish va unga xorij tajribasidagi ilg'or usul va vositalarini qo'llash; - moliya va investisiyalarning klassik va zamonaviy nazariyalar mohiyatini o'rganish; - moliya va investisiyalar faoliyatini tartibga solishning mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini o'rganish; tizimli qarorlar qabul qilish va faoliyat turlarini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish. II. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish Moliyaning mohiyati va funksiyalari Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi. Tovar-pul, taqsimlash, qayta taqsimlash munosabatlari va moliya. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarning qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli,				

jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanishi. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rif. Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o'zaro bog'liqligi.

2-mavzu. Moliyaning funksiyalari va genezisi (taraqqiyoti)

Moliyaning funksiyalari. Moliyaning taqsimlash funksiyasi. Moliyaning nazorat funksiyasi. Takror ishlab chiqarish jarayonining bosqichlarni. Iste'mol fondi. Moliya genezisi (taraqqiyoti) . Auditorlik nazorati. Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o'zaro bog'liqligi.

3-mavzu. Moliyaviy siyosat

Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari. Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanishi. Moliyaviy siyosatning moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanishi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati ekanligi. Uning davlatning u yoki bu iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilganligi. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari).

4-mavzu. Moliyaviy boshqaruv

Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati. Ta'rifi, maqsadi va vazifalari. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (ob'ektlar) va boshqaruvchi (sub'ektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik tamoyillari, usullari va shakllari.

Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar.

5-mavzu. Moliyaviy nazorat

Moliyaviy nazorat: mazmuni, nazorat sohalari, ob'ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, tamoyillari. Moliyaviy nazoratning yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy nazaratning qamrab olish sohasi. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar. Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati, nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazoratning o'z ichiga oluvchi tekshiruvlari. Moliyaviy nazorat tizimining elementlari. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar.

6-mavzu. Moliyaviy tizimi

Moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlari. Moliyaviy tizimning ta'rifi. Davlat moliyasi, mahalliy moliya, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi va ularning bo'g'inlari. Moliyaviy tizimning har bir sohasi va bo'g'inida shakllanuvchi pul fondlari hamda ularni daromad manbalari, ulardan foydalanishning o'ziga xos shakllari va metodlari. Moliyaviy tizimfunksiyalari. Moliyaviy tizimni iqtisodiyotni boshqarishdagi roli.

7-mavzu Moliyaviy bozorlar

Moliyaviy bozorlar. Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko'rinishlari: pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori. Pul bozoriga xos xarakterli xususiyatlar. Qarz instrumentlarini muomalaga chiqaruvchilar. Moliyaviy bozorda moliyaviy aktivlarning sotilishi va sotib olinishi. Moliyaviy aktivlarning asosiy turlari: qarz majburiyatlari, aksiyalar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar. Qisqa va uzoq muddatli qarz majburiyatlari. Opsionlar va forvard shartnomalari. Moliya bozori stavkalari. Moliya bozori stavkalarini shakllanishi. Fond bozori elementlari. Davlat qimmat qog'ozlarini fond bozorida joylashuvi.

8-mavzu: Moliyaviy vositachilar

Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi. Banklar. Ularning asosiy funksiyalari. Banklarning turlari. Universal banklar va tijorat banklari. Ixtisoslashtirilgan banklar. Boshqa depozit-jamg'arma tashkilotlari. Jamg'arma banklari, ssuda-jamg'arma assotsiatsiyalari va kredit uyushmalari. Sug'urta kompaniyalari. Ularning asosiy funksiyalari. Sug'urta polislari. Sug'urta turlari. Sug'urta mukofotlari. Pensiya fondlari. Pensiyani rejalashtirish dasturlari. Pensiya dasturlarining turlari. O'zaro fondlar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. O'zaro fondlarning ikki asosiy turi. Investitsion banklar va ularning asosiy vazifalari. Anderrayting va qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish.

9-mavzu: Moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tizimni tartibga solish

Moliyaviy boshqaruv organlari tizimi. Normativ-xuquqiy baza. Moliya bozori infrastrukturasi. Moliyaviy infratuzilma tarkibi. Qimmatli qog'ozlar savdosi qoidalari. Qisqa, ўрта va uzoq muddatli barqaror daromadli qimmatli qog'ozlar. Buxgalteriya hisobi tizimlari.

10-mavzu: Pulning vaqt qiymati va foiz stavkalari

Pulning vaqt qiymati. Oddiy va murakkab foizlar. Annuitetlar. Moliyaviy qaror. Uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar va ularning asosiy tiplari: pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar, investitsion qarorlar, moliyalashtirish xususidagi qarorlar, riskiy boshqaruv haqidagi qarorlar. Insoniy ehtiyojlar va moliya nazariyasiga muvofiq ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishda aks etishi. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar. Firmaning ta'rifi.

11- mavzu: Qimmatli qog'ozlar va ularning daromadligini baholash

Ulush munosabatini ifodalovchi qimmatli qog'ozlar va ularning daromadligini baholash. Qarz munosabatini ifodalovchi qimmatli qog'ozlar va ularning daromadligini baholash. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar. Qimmatli qog'ozlar bozori. Moliyaviy bozorlar. Foiz stavkasi. Foiz stavkasi miqdoriga ta'sir etuvchi omillar

12-mavzu. Moliyaviy risklar

Riskning mazmun-mohiyati. Riskni boshqarish. Riskka moyillik. Risk vamoliyaviy qarorlar. Risklarning tasniflanishi. Moliyaviy risklarning tasniflanishi. Uy xo'jaliklari duch keladigan risklarning turlari. Kompaniyalar duch keladigan risklarning turlari. Riskiy boshqaruvdahukumatning roli. Riskni boshqarish jarayoni: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni o'tkazish, riskni taqsimlash, riskiy boshqaruv usulini tanlash, tanlangan usullarni amalga oshirish, natijalarni baholash. Riskni"o'tkazish" variantlari: hedjirlash, sug'urtalash, diversifikatsiya.

13-mavzu Davlat moliyasi.

Davlat byudjeti tizimi. Davlat byudjeti tizimi prinsiplari. Davlat byudjeti tizimini boshqarish. Davlat byudjeti tizimini boshqarish organlari. Davlat byudjeti tuzilmasi. Davlat byudjeti tasnifi. Davlat byudjeti tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi. Davlat byudjeti tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifi. Davlat byudjeti defitsiti (taqchilligi)ni qoplash manbalari tasnifi.

14-mavzu. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi mohiyati va funksiyalari.

XYUSlarni isloh qilish va ular moliyaviy xo'jaligini qayta qurishning zarurligi. XYUSlarning faoliyatida sifat o'zgarishlarni amalga oshirish. XYUSlarni moliyaviy isloh qilishning asosiy vazifalari. XYUSlar, firmalar va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilishda kapitalizatsiya jarayoni. Sof foydani va aktivlarni kapitallashtirish. Kapitallashtirish jarayonining ishlab chiqarishga ilmiy yutuqlarning moddiylashganligini aks ettiruvchi ilg'or innovatsion ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalariga qo'yiladigan shakldagi kapitalning intellektuallashtirishga asoslanishi kerakligi.

15- mavzu. Xalqaro moliya

Xalqaro moliya. Xalqaro moliyaning rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. Valyuta kursining inflyasiyani hisobga olishga ko'ra almashuv kurslari. Xorijiy investitsiyalar.

Ma'ruza mashg'ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda akademik guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish Moliyaning mohiyati va funksiyalari
2. Moliya tizimi
3. Moliyaviy qarorlar
4. Moliyaviy siyosat
5. Moliyaviy boshqaruv
6. Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish
7. Moliyaviy nazorat
8. Moliyaviy risklar

- 9 Moliyaviy bozorlar
10. Moliyaviy vositachilar
11. Moliyaviy muassasalar
12. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi mohiyati va funksiyalari.
13. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy resurslari.
14. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining moliyaviy jihatlari.
15. Investitsion dasturlarni moliyalashtirish.
16. Kichik biznes moliyasi.
17. Davlat budjeti.
18. Budget tizimi va budget tuzilmasi.
19. Davlatning budgetdan tashqari jamg'armalari.
20. Ijtimoiy ta'minot.
21. Davlat krediti.
22. Sug'urta.
23. Uy xo'jaliklari moliyasi
24. Xalqaro moliya

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

1. Amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
2. O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
3. Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
4. Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
5. Amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.
6. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llaniladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Kapital bozori va kapital bozori nazariyasi
2. Moliyaviy boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari
3. Investitsiyalarni boshqarish
4. Moliya bozorlarining tasnifi
5. Pulning vaqtli qiymatining ahamiyati
6. Pul oqimlarining kelgusi qiymatini aniqlash
7. Noma'lum foiz stavkasini aniqlash
8. Teng davriy to'lovlar seriyasi sharoitida pul oqimlarining vaqtli qiymati
9. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili
10. Pul oqimini tahlili

- 11.Moliyaviy tahlilda pul oqimlarini foydaliligi
- 12.Foiz stvkalalar va daromadlarni hisoblash
- 13.Moliyaviy aktivlar va moliyaviy instrumentlar
- 14.Moliyaviy xizmatlar bozori
- 15.Moliyaviy vositachilik faoliyati
- 16.Moliya tizimi regulyatorlari
- 17.Foiz stavkasini aniqlash nazariyalari
- 18.Moliya tizimi va foiz stavkalarini aniqlash
- 19.Foiz stavkasi, tuzilmasi
- 20.Foiz stavkalarini muddatli tarkibi
- 21.Fyuchers va forvard shartnomalari
- 22.Option, shartnomalari
23. Svop shartnomalari
- 24.Kelishuv bosqichlari
- 25.Qarzlarning reytingi
- 26.Dividend diskont modellari yordamida oddiy aksiyalarni baholash
- 27.Almashtiriladigan obligatsiyalarni baholash
28. Kreditlarga foiz hisoblash
- 29.Aktivlarni baholash modelining xususiyatlari
- 30.Kapital aktivlarni baholash modeli
- 31.Arbitraj baholarni shakllantirish modeli
- 32.Tadbirkorlik faoliyati shakllari
- 33.Moliyaviy boshqaruvning maqsadi
- 34.Sherikchilik munosabatlari
- 35.Dividendlar va dividend siyosati
- 36.Strategiya va qiymat
- 37.Moliyaviy rejalashtirish va budjet
- 38.Moliyaviy rejalashtirish ahamiyati
- 39.Budjet jarayoni

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qiladilar.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

Moliya va investitsiyalar nazariyasi, moliyaviy matematika, moliya asoslari va tahlil, kapital bozori va uning nazariyasi, foiz stavkasini aniqlash va uning tuzilmasi, xosilaviy moliyaviy vositalar asoslari, aktivlarni baholash: obligatsiyalar va aksiyalarni baholash uchun asosiy modellar, aktivlarni baholash va aktivlarni narxlash nazariyasi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy strategiya va moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish mexanizmi va boshqaruv strategiyalarini qo'llash, to'g'risida ***tasavvur va bilimga ega bo'ladi;***

Tavakkalchilikni oldini olish, riskli aktivlar uchun riskni kamaytirish va kapital ajratish tartibi hamda optimal xavfli portfel va ulardan foydalanish

ko'nikmalariga ega bo'ladi;

Narxlash nazariyasi hamda multifaktor modellari, samarali bozor gipotezasi va moliya qiziqishlari, qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar daromadi hamda ularning samaradorligini aniqlash bilan bog'liq muammolarni yechish bo'yicha qarorlar qabul qilish malakasiga ***malakasiga ega bo'ladi.***

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

1. ma'ruzalar;
2. real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
3. esse, tezis va maqolalar yozish;
4. vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
5. jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
6. muhokamalarda ishtirok etish;
7. kichik guruhlarda ishlash;
8. loyiha ishi bajarish;
9. mustaqil ishlarni bajarish;
10. taqdimot tayyorlash;
11. turli darajadagi testlarni yechish;
12. so'rov o'tkazish.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

O'qitish jarayonining joriy, oraliq va yakuniy baholash (nazorat) haftalarida yozma nazorat ishlarini bajarishlari, mustaqil ta'lim mavzularini professor-o'qituvchilar yordamida doimiy ravishda o'rganib borishlari, mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari va muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Nuritdinova V. Sh., Sharapova M. A. Moliya. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2022
2. L.D. Petrenko, B.Sh. Safarov, A.B. Taniyev, I.I. Ayubov. Moliya va soliqlar // Darslik //. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. - 428 b.
3. Ismailova N. K., Sharapova M. A. Moliya. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2022
4. T. Malikov, O. Olimjanov. Moliya. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. N.G'. Karimov, A.S. Axmedov. Moliya asoslari: Moliya va investitsiyalar. O'quv qo'llanma. "Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" – 2021. – 290 b.
6. V.SH. Nuritdinova, M.A. Sharapova. Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma. T.: 2014 – 380 b.
7. Li A. N.. Upravlenie gosudarstvennymi finansami Respubliki Uzbekistan : uchebnoe posobie. - Tashkent : Moliya, 2016. - 319 s.
8. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

	Axborot manbalari www.gov.uz; O`z.R. xukumat portali  <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>; O`z.R. Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi  <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a>; O`z.R. Oliy va o`rta mahsus ta`lim vazirligi portali www.ziynet.uz.
7	Mazkur o`quv dasturi</b> universitet ilmiy kengashining _____- yil  _____ - sonli yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan (1-sonli bayonnoma)
8	Fan/modul uchun ma`sullar:</b>  A.Ubaydullayev - University of Business and Science, “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, PhD.  G.Mamajonova – University of Business and Science, “Iqtisodiyot” kafedrası o`qituvchisi
9	Taqrizchilar: K.I.Sirojiddinov – NamDU, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi Q.Umarqulov - UBS “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASASI**

“TASDIQLAYMAN”
Prorektor _____
B.K.Sattarov
«_____» _____ 2024-yil

**MOLIYA
FANI BO‘YICHA
SILLABUS**

Kunduzgi bo‘lim uchun (2-bosqich)

Bilim sohasi:	400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410 000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo’nalishi:	60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar

Namangan-2024

Modul /FAN SILLABUSI

Iqtisodiyot fakulteti

60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi

Fan nomi	Moliya
Fan turi	Majburiy
Fan kodi	M1509
Yil	2
Semestr	4
Ta'lim shakli	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar	120
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	30
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	
Mustaqil ta'lim	60
Kredit miqdori	4
Baholash shakli	Imtixon (Yozma ish, test, og'zaki)
Fan tili	O'zbek

FAN MAQSADI (FM)

<i>M 1</i>	Moliya fanini o'qitishning maqsadi talabalarga moliyaviy munosabatlarning nazariy asoslarini, moliya tizimi haqida tushuncha va uning funksiyalari, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, kreditning mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.
------------	--

Fanni o'zlashtirish uchun boshlang'ich bilimlar

1.	<i>Iqtisodiyot nazariyasi</i>
2.	<i>Informatika va axborot texnologiyalari</i>
3.	<i>Pul, kredit va banklar</i>

Ta'lim natijalari (TN)

Bilimlar jihatidan	
	Talaba bilishi kerak:

N1	Moliyani mohiyati, predmeti, metodi va usullari;
N2	Moliyani tashkil etish va yuritishning me'yoriy-huquqiyasoslari;
N3	Moliya, hisob turlari va ularning jamiyatni boshqarishdagi ahamiyati;
N4	Moliya jarayonlari va moliyamuomalalarining tavsifi;
N5	Moliya metodining ta'rifi, tarkibi, predmeti va metodining o'zaro bog'liqligi
Ko'nikma jihatidan	
N6	Moliya, moliya nazariyasi, moliyaviy matematika, moliya asoslari va tahlil, kapital bozori va uning nazariyasi, foiz stavkasini aniqlash va uning tuzilmasi, xosilaviy moliyaviy vositalar asoslari, aktivlarni baholash: obligatsiyalar va aksiyalarni baholash uchun asosiy modellar, aktivlarni baholash va aktivlarni narxlash nazariyasi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy strategiya va moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish mexanizmi va boshqaruv strategiyalarini qo'llash, tavakkalchilikni oldini olish, riskli aktivlar uchun riskni kamaytirish va kapital ajratish tartibi hamda optimal xavfli portfel va ulardan foydalanish

Fan mazmuni		
<i>Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)</i> <i>IV-smestr</i>		D ars soatlari hajmi
1	Moliyaning mohiyati va funksiyalari.	2
2	Moliya tizimi. Moliyaviy qarorlar.	2
3	Moliyaviy siyosat. Moliyaviy boshqaruv	2
4	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish.	2
5	Moliyaviy nazorat. Moliyaviy risklar	2
6	Moliyaviy bozorlar	2
7	Moliyaviy vositachilar	2

8	Moliyaviy muassasalar	2
9	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi.	2
10	Kichik biznes moliyasi.	2
11	Investitsion dasturlarni moliyalashtirish	2
12	Davlat budjeti. Davlatning budjetdan tashqari jamg'armalari	2
13	Davlat krediti. Ijtimoiy ta'minot	2
14	Sug'urta	2
15	Uy xo'jaliklari moliyasi. Xalqaro moliya	2
	Jami:	30

Mashg'ulotlar shakli: Amaliy mashg'ulotlari (A)

<i>IV-smestr</i>		D ars soatlari hajmi
1	Moliyaning mohiyati va funksiyalari.	2
2	Moliya tizimi. Moliyaviy qarorlar.	2
3	Moliyaviy siyosat. Moliyaviy boshqaruv	2
4	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish.	2
5	Moliyaviy nazorat. Moliyaviy risklar	2
6	Moliyaviy bozorlar	2
	Moliyaviy vositachilar	2

7		
8	Moliyaviy muassasalar	2
9	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi.	2
10	Kichik biznes moliyasi.	2
11	Investitsion dasturlarni moliyalashtirish	2
12	Davlat budjeti. Davlatning budgetdan tashqari jamg'armalari	2
13	Davlat krediti. Ijtimoiy ta'minot	2
14	Sug'urta	2
15	Uy xo'jaliklari moliyasi. Xalqaro moliya	2
	Jami:	30

Mustaqil ta'lim (MT)

(MT)	Mustaqil ta'lim	Soati	Bajarish shakli	Topshirish muddati
MT1	Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.	2	test (20 ta)	o'quv semestri davomida
MT2	Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida.	2	glossariy(15 ta)	o'quv semestri davomida
MT3	Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o'zaro bog'liqligi.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT4	Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT5	Moliya va YAIM hamda MDni taqsimlash, qayta taqsimlash.	2	ma'ruza	o'quv semestri davomida
MT6	Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasi. Taqsimlash va qayta taqsimlash ob'ektlari va sub'ektlari.	2	test (20 ta)	o'quv semestri davomida
MT7	Moliya genezisi (taraqqiyoti).	2	test (20 ta)	o'quv semestri davomida

MT8	Moliya tizimi, iqtisodiyotda uning ahamiyati.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT9	Moliya tizimining bo'g'inlari. Notijorat asosida xo'jalik yuritishning asosiy xususiyatlari.	2	munozarali savollar	o'quv semestri davomida
MT10	Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati ekanligi.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT11	Moliyaviy siyosat turlari. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT12	Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (ob'ektlar) va boshqaruvchi (sub'ektlar) tizimlar yagonaliigidan iboratligi.	2	glossariy (15 ta)	o'quv semestri davomida
MT13	Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik tamoyillari, usullari va shakllari. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari.	2	glossariy (15 ta)	o'quv semestri davomida
MT14	Yalpi ichki mahsulot qiymati va milliy daromadining taqsimlanishi hamda qayta taqsimlanishida davlat moliyasining ahamiyati.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT15	Davlat moliyasining bo'g'inlari: davlat byudjeti; byudjetdan tashqari fondlar; davlat korxonalari moliyasi; davlat krediti.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT16	O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati.	2	amaliy topshiriq	o'quv semestri davomida
MT17	Davlat byudjeti daromadlari va harajatlari.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT18	Moliyaviy qaror. Uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar va ularning asosiy tiplari.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT19	Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar. Firmaning ta'rifi. Firmaga xos bo'lgan xususiyatlar. Korxonalar	2	ma'ruza	o'quv semestri davomida

	kapitalini boshqarish.			
MT20	Moliyaviy rejalashtirish. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan asosiy usullar.	2	glossariy (15 ta)	o'quv semestri davomida
MT21	Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari. Moliyaviy rejalashtirishning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT22	Moliyaviy tartibga solish. Moliyaviy tartibga solishning huquqiy asoslari.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT23	Moliyaviy nazorat: mazmuni, nazorat sohalari, ob'ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, tamoyillari.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT24	Moliyaviy nazoratning yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligi.	2	tezis (20 ta)	o'quv semestri davomida
MT25	Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati, nodavlat moliyaviy nazorati.	2	ma'ruza	o'quv semestri davomida
MT26	Moliyaviy nazoratni tashkil etish tamoyillari. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari.	2	esse	o'quv semestri davomida
MT27	Riskning mazmun-mohiyati. Risklarni boshqarish.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT28	Risk va moliyaviy qarorlar. Uy xo'jaliklari duch keladigan risklarning turlari. Riskiy boshqaruvda hukumatning roli.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
MT29	Riskni "o'tkazish variantlari": xedjirlash, sug'urtalash, diversifikatsiya. Moliyaviy bozorning mohiyati va ahamiyati	2	amaliy topshiriq	o'quv semestri davomida
MT30	Birlamchi va hosilaviy qimmatli qog'ozlar. Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi.	2	taqdimot yaratish	o'quv semestri davomida
	Jami:	60		

Mustaqil ta'limni tashkil qilish: «Moliya» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda
quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: 2 ta.

1-2-oraliq nazorat yozma ish shaklda o'tkaziladi.

Moliya fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari Moliya fani mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 30 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 90 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishni baholash mezonlari: Talaba 3 ta savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Og'zaki nazoratni baholash mezonlari: Talaba 3 ta savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat: Moliya fani bo'yicha har bir talabaga 3 ta savoldan iborat variant topshiraladi. Savollarni ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 30 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 90 daqiqa vaqt beriladi. Yozma variant savollari topshirish jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Yakuniy nazorat

e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishni baholash mezonlari: Talaba 3 ta savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob yozgan bo'lsa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob yozgan bo'lsa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob yozgan bo'lsa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob yozgan bo'lsa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

Mustaqil ta'limni baholash mezonlari:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari:

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharhlay bilsa;

b) 4 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

v) 3 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
 - fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
 - fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
 - fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
 - fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

Asosiy adabiyotlar	
1.	Nuritdinova V. Sh., Sharapova M. A. Moliya. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2022
2.	L.D.Petrenko, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev, I.I.Ayubov. Moliya va soliqlar //Darslik//. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. - 428 b.
3.	Ismailova N. K., Sharapova M. A. Moliya. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2022
4.	T.Malikov, O.Olimjanov. Moliya. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2019.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1.	N.G'.Karimov, A.S.Axmedov. Moliya asoslari: Moliya va investitsiyalar. O'quv qo'llanma."Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" – 2021. – 290 b.
2.	V.SH. Nuritdinova, M.A.Sharapova. Moliyaviy nazorat: O`quv qo`llanma. T.: 2014 – 380 b.
3.	Li A. N.. Upravlenie gosudarstvennymi finansami Respubliki Uzbekistan : uchebnoe posobie. - Tashkent : Moliya, 2016. - 319 s.
4.	Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O`quv qo`llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

“MOLIYA ASOSLARI” FANIDAN TEST SAVOLLARI

Savol	Javob 1	Javob 2	Javob 3	Javob 4
“Moliya” so’zi lug’aviy ma’nosi nimani anglatadi?	“daromad” yoki “to’lov”	“to’lov” yoki “foйда”	“talab” yoki “taklif”	Barcha javoblar to’g’ri
Moliya so’zini ona tilimizda ishlatilishining qanday ko’rinishlari mavjud?	biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag’lari	moliya ishlari bilan shug’ullanuvchi davlat organi	maqsadli pul fondla-rini hosil yetish, jam-lash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo’ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui	pul mablag’larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi
Moliyaning qanday funksiyalari mavjud?	Taqsimlash	pul fonndlarini shakllantirish va nazorat	Nazorat	Tartibga solish
Moliyaning taqsimlash funktsiyasi nimalarga shart-sharoit yaratib beradi?	xo’jalik sub’ekti va davlat darajasida zahiralarni yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg’arishni amalga oshirishga	xo’jalik sub’ektlari, aholi, davlat va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag’lari fondlarini shakllantirishga	shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlarini o’rtasida qayta taqsimlashni sodir yetishga	xo’jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo, qayta taqsimlashni sodir yetishga
Xorijlik iqtisodchilarning qarashlariga ko’ra moliyaning qanday funksiyalari mavjud?	xo’jalik yuritish jarayonini pul mablag’lari bilan ta’minlash	pul fonndlarini shakllantirish	nazorat	Barcha javoblar to’g’ri
Moliya -	MDni yaratish va undan foydalanishni bog’lovchi bo’g’in	Pulli munosabatlarni ifodalaydi	Pulli munosabatarini tartibga soladi	Pul fondlarini ifoda yetib, mamlakatning moliyaviy resurslarini tashkil yetadi
Markazlashtirilgan fondlar deb qanday fondlarga aytiladi?	xo’jalik sub’ektlari darajasida tuzilgan pul fondlari	davlat va maxalliy o’z o’zini boshqarish darajasida tuzilgan pul fondlari	barcha byudjetdan tashqari fondlar	hamma javob to’g’ri
Markazlashmagan pul fondlari nima uchun kerak?	Korxona faoliyatini davom ettirish uchun	Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun	Korxona faoliyatini rivojlantirish uchun	Barcha javoblar to’g’ri
Qaysi sub’ektlar o’rtasida moliyaviy munosabatlar vujudga keladi?	Korxonalar o’rtasida	Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar bilan aholi va yuridik shaxslar o’rtasida	Sug’urta kompaniyalari bilan yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasida	Barcha javoblar to’g’ri
QUyidagilardan qaysi biri moliyaviy munosabat hisoblanmaydi?	sug’urta badallarini to’lash va zararlarini qoplash paytida aholi, korxonalar hamda sug’urta organlari o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari	Kredit olish paytida aholi, korxonalar hamda kredit tashkilotlari o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari	korxona fondlarining doimiy doiraviy aylanishiga xizmat qiluvchi pul munosabatlari	solliqlar va boshqa ixtiyoriy to’lovlarni to’lash jarayonida davlat va fuqarolar o’rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari

Qaysi javobda moliyaning o'ziga xos belgilari namoyon bo'ladi?	pul mablag'lari xarakatining bir tomonlama yo'nalishga yega yekanligi	real pullar xarakatiga bog'liq bo'lgan huquqiy me'yorlar yoki biznesni yuritish yetikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlash xarakteri	markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini yaratish	Barcha javoblar to'g'ri
Takror ishlab chiqarish jarayoni qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?	ishlab chiqarish va almashinuv	ishlab chiqarish, almashinuv, taqsimlash, iste'mol.	almashinuv, ishlab chiqarish va iste'mol	ishlab chiqarish, taqsimlash va qayta taqsimlash
Moliyaning xususiyatli belgilari qaysilarni o'z ichiga oladi?	munosabatlarning pulli xususiyati	munosabatlarning taqsimlash va fondlilik xususiyati	munosabatlarning tartibga solish xususiyati	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy resurslarning manbalari bu:	MD, TIF tushumlari, Milliy boyliklarning bir qismi, sof daromad.	Soliq tushumlari. Qarzga olingan mablag'lar	MD, TIF tushumlari, Milliy boyliklarning bir qismi, qarzga olingan mablag'lar	to'g'ri javob yo'q
Moliyaviy munosabatlar bu:	- korxonalar va byudjetdan tashqari fondlarga barcha turdagi to'lovlar, ajratmalar va ulardan moliyalashtirish	- korxonalar va byudjetlar o'rtasidagi barcha turdagi to'lovlar turlari - korxonalar bilan korxonalar o'rtasidagi barcha turdagi to'lov munosabatlar	- kreditlar bo'yicha foizlar to'lash vositasidagi pul munosabatlari	-ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi pulli munosabatlar
Milliy daromad qanday taqsimlanadi?	Hududlar o'rtasida	Sohalar o'rtasida	Turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida	YUridik va jismoniy shaxslar o'rtasida
Ijtimoiy pul fondlari qanday maqsalarda shakllantiriladi?	milliy xo'jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish	Byudjet tashkilotlarini xarajatlarini moliyalashtirish	mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash	aholining moddiy va madaniy yeh-tiyojlarini qondirish
Quyidagilardan qaysi biri moliya mexanizmining tarkibiga kirmaydi?	moliya va moliya tizimini boshqarish shakllari	milliy xo'jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmui	moliyaviy rejalashtirish metodlari	Moliyaviy nazoratning turlari
Milliy daromad qanday qismlarga bo'linadi	Iste'mol fondi	Jamg'arish fondi	Rag'batlantirish fondi	Zaxira fondi
Turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda moliyaning farqlanishi sabablarini ko'rsating	har qanday ijtimoiy formatsiyaga jamiyatning o'z sinfiy tuzilmasi mos kelgan holda moliya MD ni taqsimlash munosabatlarini hisobga olib, ularning davlat foydasiga qayta taqsimlanishini tashkil qiladi	har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada (tuzumda) moliya hukmron sinfning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatning maqsadlari va vazifalariga bo'ysunadi	agar davlat boshqaruv organi sifatida tarkib topgan ishlab chiqarish munosabatlari va sinfiy tuzumning vazifalariga xizmat qilsa, shu vazifalarga moliya ham xizmat qiladi	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy siyosat -	Moliyaviy boshqaruv tizimida yeng asosiy bo'g'in hisobladi	Markazlashgan va markazlashagan pul fondlarini taqsimlashga xizmat qiladi	Davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir	Iqtisodiy siyosatga bog'liq siyosat

Moliyaviy siyosatning ta'rifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan	Moliyaviy munosabatlarni tartibga solishning shakl va usullari majmui	Vazifalarni yechish uchun kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan bog'liq metodlar mjmui	Moliyadan foydalanishning metodlari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va metodologik printsiplarining majmui	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari	Davlat daromadlar manbasini bir maromda ushlab turishga yo'naltirilganligi	Mamlakat ishlab qiaruvchi kuchlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilganligi	Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining iqtisodiy muvaffaqiyatlariga uzluksiz ta'sir ko'rsatishi	To'g'ri javob yo'q
Moliyaviy siyosatni amalga oshirish printsiplari qaysilar?	Moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish	Moliyaviy muassasalar funktsiyalarining umumiyliigi	Quyi organlarning ishtirokida markazdan umumiy boshqarish	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning metodologik printsiplari	Pirovard maqsadga bog'liqlik	Xo'jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy balanslashtirilganligi	Reja asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy siyosatning mazmuni nimalarda namoyon bo'ladi?	Jamiyat taraqqiyotida davlatning roli to'g'risidagi fanning rivojlanish darajsig muvofiq	Iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokining darajasini aniqlaydigan tegishli nazariy kontseptsiyalar orqali	Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning alohida instrumentlaridan foydalanish tufayli	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari	Pul- kredit siyosati yemissiya siyosati	Pul siyosati, baho siyosati, investitsiya siyosati	Boj siyosati, sotsial moliyaviy siyosat	Byudjet siyosati, soliq siyosati, kredit siyosati
Sotsial moliyaviy siyosat qanday siyosatlarni o'z ichiga oladi?	Pensiya siyosati, immigratsion siyosat	Moliyaviy siyosat	Ayrim sotsial guruxlarga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati	Hech qanday siyosatni o'z ichiga olmaydi
Byudjet siyosatidan qanday holatlarda foydalaniladi?	Byudjetda kontsentratsiya qilinadigan YAIM hissasini aniqlashda,	Turli darajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlashda	Moliyaviy siyosatni amalga oshirishda	Barcha javob to'g'ri
Soliq siyosatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?	Soliq yukini kamaytirish	Soliqlarni unifikatsiya qilish	Soliq imtiyozlarini joriy yetish	Soliq turlarini kamaytirish

Pul siyosati orqali qanday vazifalar amalaga oshiriladi?	muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga mos kelmagan sharoitda pul massasining yetmagan qismini qog'oz pullar hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan to'ldirish	agar pul massasi unga bo'lgan talabdan ortiq bo'lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishini oldin olish	mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bo'lishiga ruxsat bermaslik	To'g'ri javob yo'q
Quyidagilardan qaysi biri pul siyosatining tarkibiy qismi hisoblandi?	Emissiya siyosati	Inflyatsiyani oldini olish siyosati	milliy valyutaning barqarorligi	Xorijiy valyutani ko'paytirish
Kredit siyosati natijasida kreditning arzonlashuvi nimalarga olib keladi?	Iqtisodiyotni izdan chiqishiga	Byudjet daromadlarini ko'payishiga	takror ishlab chiqarish jarayoni sub'ektlari daromadlarining oshishiga	Kredit inqirozini yuzaga kelishiga
Moliya tizimi bu:	moliyaviy munosabatlarning turli bo'g'inlari yig'indisidir.	moliyaning funktsiyalarini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar majmuidir.	moliya sub'ektlari va moliya siyosatini o'z ichiga qamrab oluvchi munosabatlar yig'indisidir	moliya sub'ektlari, moliya siyosati hamda moliya mexanizmini o'z ichiga qamrab oladigan munosabatlar majmuidir.
Moliya tizimining funk tsialari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	-rejalashtirish –nazorat – taqsimlash -rivojlantirish	-rejalashtirish; -tashkillashtirish.	-nazorat;-rag'batlantirish.	-nazorat -taqsimlash-rivojlantirish
Moliya tizimining asosiy bo'g'inlari qaysilardan tashkil topgan?	-korxonalar moliyasi-umumdavlat moliyasi; -sug'urta moliyasi.	-xo'jalik sub'ektlari moliyasi;-	-umumdavlat moliyasi;-sug'urta moliyasi; -xonadon moliyasi ;	- umumdavlat moliyasi.
Umumdavlat moliyasini tarkibi:	davlat byudjeti, davlat korxonalari moliyasi, BTF, fond bozori.	BTF, davlat krediti,	davlat byujeti,	davlat korxonalari moliyasi,
Byudjet tizimining mohiyati	Byudjet daromadlari va xarajatlarining yig'indisi;	Markaziy byudjet va maxalliy byudjetlar yig'indisi	Moliya tizimining markaziy bo'g'ini;	Iqtisodiy munosabatlar va huquqiy me'yorlarga asoslangan hamda o'zaro qonuniy bog'liqlikda va aloqadorlikda bo'lgan mamlakatning barcha byudjetlari yig'indisi.
O'zbekiston Respublikasi Moliya tizimi necha sohaga bo'linadi	1	2	3	4
Moliyaviy boshqaruvning shakllari quyidagilardan qaysi biri?	Moliyaviy rejalashtirish	Bashoratlash va dasturlashtirish	Moliyaviy nazorat	Tashkillashtirish
Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi qaysi?	Prezident devoni	Vazirlar mahkamasi	Oliy majlis	Markaziy bank
Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi qaysi?	Moliya vazirligi	Vazirlar mahkamasi	Oliy majlis	Hisob palatasi
Moliya bozorining moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi qanday kichik funktsiyalarga bo'linadi?	narh va moliyaviy risklarni oldini olish funktsiyasi.	moliyaviy resurslarni tarmoqlar va bozor faoliyati sohalari (sferalari) o'rtasida taqsimlash va qayta	jamg'armalarni, ayniqsa aholi jamg'armalarini, noishlab chiqarish shaklidan ishlab	noinflyatsion asosda davlat byudjetini moliyalashtirish, ya'ni qo'shimcha pulni muomalaga

		taqsimlash;	chiqarish shakliga o'tkazish	chiqarmasdan;
Moliya bozorining segmentlari bo'yicha turlarini ko'rsating	pul-kredit bozori; qimmatli qog'ozlar bozori; valyuta va unga tenglashtirilgan avuarlar bozori; sug'urta va pensiya fondlari bozori,	Pul bozori, kapital bozori, investitsiya bozori	Valyuta bozori, fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori	Pul bozori, kredit bozori, valyuta va unga tenglashtirilgan avuarlar bozori, investitsiya bozori
Moliya bozori iqtisodiyotda qo'yidagilardan qay biri mavjud bo'lgandagina samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin:	effektiv (samarali) mulkchilik tizimi	bozor qonunlari, tamoyillari va qonunchiligini xukm surishi	talab va taklifning nomutanosibligi	moliya bozori infratuzilmasini samarali faoliyati;
Moliya bozorining bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?	iqtisodiyotning real sektoriga investitsion moliya resurslarni samarali jalb qilinishida	davlatning kredit-pul siyosatini tatbiq yetishda	inflyatsiya sur'atlari (templari) va valyuta kurslari o'zgarishiga operativ ta'sir ko'rsatilishi	Barcha javoblar to'g'ri
Moliyaviy nazorat necha turga bo'linadi?	3	2	5	6
Moliyaviy nazorat sub'ektlari-bu...	Oliy Majlis, Prezident devoni	Vazirlar Maxkamasi	Bojxona qo'mitasi Markaziy bank	To'g'ri javob yo'q
Moliyaviy nazorat usullarini aniqlang	tahlil,	Tekshiruv,	To'g'ri javob yo'q	Taftish
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat necha turga bo'linadi?	5	2	3	6
Moliyaviy nazorat o'tkazish shakliga ko'ra kuyidagicha bo'ladi.	majburiy (tashki) moliyaviy nazorat	ixtiyoriy (tashki) moliyaviy nazorat	majburiy (ichki) moliyaviy nazorat	barcha javoblar
Nazorat organlarining yillik reja jadvali qaysi hukumat organi tomonidan ishlab chiqiladi.	Respublika nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash.	Hisob palatasi	Oliy majlis	Vazirlar mahkamasi
Taftish natijalari qaysi xujjatlar bilan rasmiylashtiriladi?	Dalolatnoma	ma'lumotnoma	Bildirishnoma	Xabarnoma

70-yillarida iqtisodiy nazariyaning neoklassik yo'nalishi moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan qanday xususiyatlarini belgilab berdi.	davlatning tartibga soluvchi rolikdan voz kechdi	Davlatni iqtisodiyotga va sotsial sohaga aralashuvi darajasini biroz chekladi	Davlatni iqtisodiyotga va sotsial sohaga aralashuvi darajasini biroz kuchaytirdi	Barcha javoblar to'g'ri
Nima uchun korxonalar moliyasi moliya tizimining asosiy sohasi hisoblanadi?:	CHunki ularda jami ichki mahsulot yaratiladi	CHunki ularda jami ichki mahsulot taqsimlanadi va ishlatiladi	CHunki ularda katta hajmdagi moliyaviy resurslar harakatda bo'ladi	CHunki ulardagi moliyaviy mablag'larning yaratilishi va sarflanishi JIMga bog'liq bo'ladi
Korxonalar va tashkilotlar moliyasi-bu	Xo'jalikning pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishdagi pul munosabatlari yig'indisi	Xo'jalikning ish haqi va sug'urta fondlarini shakllantirish va ularni ishlatishdagi pulli munosabatlar	Xo'jaliklar va davlat moliya organlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar	Hamma javoblar to'g'ri
Korxonalar va tashkilotlar moliyasi qanday funksiyalarga yega?	Taqsimlash va qayta taqsimlash	Taqsimlash va nazorat	Tartibga solish va nazorat	Taqsimlash va ijtimoiy funktsiya
Faoliyat yuritish maqsadiga ko'ra xo'jalik subektlari qanday turlarga bo'linadi?	Byudjetdan moliyalashtiriladigan va o'z-o'zini moliyalashtiradigan korxonalarga	Ochiq turdagi va yopiq turdagi	Tijorat va notijorat asosida faoliyat yuritadigan	Davlat va xususiy korxonalar
Korxonalar moliyasi tamoyillariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?	Xo'jalik mustaqilligi	O'z-o'zini moliyalashtirish	Moddiy manfaatdorlik	Moliyaviy barqarorlik
Quyidagilarni qaysi tijarat asosida faoliyat yuritadi?	Korxonalar	Bank	AJ	Hamma javoblar to'g'ri
Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasini tashkil yetish tamoyillarini ko'rsating	Oshkoralik	Moddiy javobgarlik	Moliyaviy zaxiralar tashkil yetish	O'z-o'zini moliyalashtirish
Notijorat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy manbalarini ko'rsating	Byudjetdan ajratmalar	Tashkilotning foydasi	Ta'sischi-lardan tushumlar	Tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar
Notijorat asosida xo'jalik yuritishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?	Bozor xo'jaligining iqtisodiy samardorligiga va faoliyatning sotsial samaradorligini birgalikda qo'shib olib borish	Faoliyatning foyda olishga yemas, ma'lum bir missiyaga yerishishga yo'naltirilganligi	Qilingan maqsadlarga yerishish uchun olingan foydadan vosita sifatida foydalanish	Barcha javoblar to'g'ri
Notijorat faoliyatni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash shakllarini aniqlangin	Bevosita moliyalashtirish	Bilvosita moliyalashtirish	Soliqli imtiyozlar taqdim yetish	Nosoliq imtiyozlar taqdim yetish
Tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi nimalarda nomoyon bo'ladi?	Ularning xarajatlari o'z daromadlari hisobidan qoplanishi kerak	Ishlab chiqarish faoliyat turi bilan shug'ullanadilar	Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z faoliyatlarini tijoriy hisob asosida amalga oshiradilar	Barcha javoblar to'g'ri
Notijorat faoliyatni qo'llab-quvvatlashning bilvosita shakli qanlay ko'rinishlarga yega?	Aloqa xizmatlari va kommunal xizmatlarni to'lashda imtiyozli tariflardan foydalanish	Xamkorlikda moliyalashtirish	Byudjet investitsiyalari taqdim yetish	Hadya yetuvchi va xomiylik qiluvchilar uchun imtiyozlar

Tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi	O'zlarining ixtiyoriga ko'ra foydadan foydalanadilar	Real ravishda mustaqillikka yega	Investitsiyalashtirish uchun zarur moliyaviy mablag'larni qidirib topadilar	Barcha javoblar to'g'ri
Iqtisodiy mazmuniga ko'ra korxonaning jami pul harajatlari qanday turlarga bo'linadi?	Foyda olish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar	Foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan chiqimlar	Joriy chiqimlar	Majburiy chiqimlar
Mahsulot ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga qarab xarajatlar:	Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari	To'g'ri va yegri xarajatlar	Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar	Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari
Ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab xarajatlar	Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari	To'g'ri va yegri xarajatlar.	Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar.	Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari
Tannarxga o'tkazish usuliga qarab:	Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari	To'g'ri va yegri xarajatlar.	Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar.	Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari.
Mahsulot ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga qarab xarajatlar:	Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari	To'g'ri va yegri xarajatlar	Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar	Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari
Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda:	bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi	bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi;	mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi	Barchasi to'g'ri
... jami aktivlar summasidan tashqi majburiyatlar summasining ayirmasidan iborat	Korxonaning ustav kapitali	Korxonaning o'z kapitali	Korxonaning asosiy kapitali	Korxonaning moliyaviy qo'yilmalari
Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda korxonaning o'zidagi asosiy manba nima?	Amortizatsiya	Aylanma kapital	Korxona ixtiyorida qoladigan foyda	Bank kreditlari
Rentabellik nima?	Foydadan farqli holda tadbirkorlik faoliyati samarasini ko'rsatadi	Faoliyatning samaradorligini ko'rsatadi	Korxonaning daromadliligi darajasini aks yettiradi.	Hamma javoblar to'g'ri
Reinvestitsiya qilish bu-	Korxonaning oladigan foydasini xodimlarga berish	Korxonaning oladigan foydasini soliqa tortish	Korxonaning oladigan foydasini korxona ishlab chiqarishga rivojlantirish	To'g'ri javob yo'q
Korxonalarda obligatsiyalar orqali shakllantirilgan resurslar qaysi resurslar tarkibiga kiradi	O'z mablag'ri	Qarz mablag'lari	Jalb qilingan mablag'lar	Barcha javoblar to'g'ri
Asosiy kapital ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?	Hisob-kitob raqamidagi mablag', asosiy vositalar	Tugatilgan qurilish, uzoq muddatli kapital qo'yilmalar	Moddiy aylanma mablag'lar nomoddiy aktivlar	Asosiy vositalar
Passiv kapital qanday turlarga bo'linadi?	O'z va qarz kapitali	Asosiy kapital	Aylanma kapital	Jalb qilingan mablag'lar
Investitsiyalash portfelini shakllantirishda qo'llaniladigan qaysi printsiplardan foydalaniladi?	Diversifikatsiyalash printsiplari	Konservativ printsiplari	Me'yordagi likvidlik printsiplari	Adolatlik printsiplari

darajadagi foyda olishni ta'minlaydi?				
Yo'naltirish sohasi va ob'ekti bo'yicha investitsiyalarning qanday turlari mavjud?	Kapital	innavatsion	ijtimoiy	Xususiy investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar
"Investitsiya" atamasiga berilgan to'g'ri ta'rifni toping?	Lotincha so'z bo'lib "qarz" manosini anglatadi	YUnoncha so'z bo'lib "tenglik" manosini anglatadi	Lotincha so'z bo'lib "qo'yish", "mablag'ni safarbar yetish" manosini anglatadi	Inglizcha so'z bo'lib "olish", "mablag'larni sarflash" degan manoni anglatadi
Quyidagilarni qaysi biri korxonadagi real investitsiyalar tarkibiga kiradi?	Qiimatli kog'ozlarga qilingan investitsiyalar	Ishlab chiqarishni kengaytirishga qilingan investitsiyalar	Boshqa korxona aksiyalarini sotib olishga qilingan investitsiyalar	Venchur kapitaliga qo'yilgan investitsiyalar
Xalqaro valyuta fondining tasdig'iga ko'ra xorijiy investor AJ ustav kapitalining yeng kamida 25% ga yegalik qilsa bu qanday investitsiya deyiladi?	Real investitsiya	Portfel investitsiya	To'g'ridan-to'g'ri investitsiya	Uzoq muddatli investitsiya
Qaysi javobda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar guruxlari berilgan?	Oddiy ichki investitsiyalar	Transkontinental va transnatsional investitsiyalar	Xususiy va davlat investitsiyalari	Adolatlilik printsiplari
Qarzga olingan va jalb qilingan investitsiyani ko'rsating.	Aksiya va obligatsiyalarni chiqarishdan tushum	Ortiqcha mulkni sotishdan tushum	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	Asosiy vositalarni ijaraga berishdan foyda
Quyidagilarni qaysi biri korxonadagi portfel investitsiyalarga kiradi?	Boshqa ishlab chiqarish tashkiloti aktiviga qo'yilgan mablag'lar	Korxonadagi noishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga qo'yilgan mablag'lar	YAshash joylarini tashkil qilishga qo'yilgan investitsiyalar	Innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun qo'yilgan investitsiyalar
Quyidagilarni qaysi biri korxonadagi real investitsiyalar tarkibiga kirmaydi?	Qiimatli kog'ozlarga qilingan investitsiyalar	Ishlab chiqarishni kengaytirishga qilingan investitsiyalar	Boshqa korxona aksiyalarini sotib olishga qilingan investitsiyalar	Venchur kapitaliga qo'yilgan investitsiyalar
Asosiy aktivlar yoki uzoq muddatli aktivlar aylanma aktivlardan nimasi bilan farklanadi?	Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapital aylanma mablag'lardan farqli o'laroq o'zining qiymatini asta sekinlik bilan bir necha takror ishlab chiqarish jarayonida amortizatsiya fondi shaklida tiklab boradi.	Asosiy aktivlar o'zining qiymatini tovar shaklidan pul shakliga to'liq o'tkazadi.	Asosiy aktivlar va aylanma aktivlar o'zlarining funktsional rolga qarab ishlab chiqarish jarayonida bir xil xususiyat kasb yetadi.	Barcha javob to'g'ri.
Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilishdan	Respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlaridan	Qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobidan	Hamma javoblar to'g'ri
Byudjet tizimining tamoyillari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?	YAgonalik, balanslilik, mustaqillik	Haqqoniylik, oshkoralik	Tejamlilik va samaradorlik,	adresli va maqsadlilik
Davlat byudjeti qanday funktsiyalarni bajaradi?	Qiymat o'lchovi va muomila vositasi funktsiyasi	Nazorat va vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash funktsiyalari	YAIM ni qayta taqsimlash va nazorat funktsiyalari	Moliyaviy va tartibga solish funktsiyalari
Byudjet daromadlarini shakllantirishda qaysi metolardan foydalaniladi	Soliqlar va davlat krediti	Soliqsiz daromadlar	Pul yemissiyasi	Barcha javoblar to'g'ri

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonining printsiplari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?	Sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratish	Sub'ektlarning xatti xarkatiga bog'liq bo'lmagan daromadlarni ular ixtiyorida qoldirish	Korxonaning rejalashtirilgan yextiyojidan ortgan qismini rivojlantirishi uchun qoldirish	Barcha javoblar to'g'ri
Byudjet daromadlarini to'g'ri va o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish davlatning qaysi vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladi?	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ,O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi	O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
2010 yil O'zbekistonda ishlab chiqarilgan aktsizosti tovarlar soni nechta qilib belgilangan?	12 ta	14 ta	13 ta	10 ta
Hozirgi amaliyotda davlat byudjetining daromadlari qanday tartibda klassifikatsiya qilinyapti?	To'g'ri soliqlar, yegri soliqlar, Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i, ustama foydadan olinadigan soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq, boshqa daromadlar	To'g'ri soliqlar va yegri soliqlar, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	Soliqli daromadlar va soliqsiz daromadlar	Biriktirilgan daromadlar va tartibga soluvchi daromadlar
Foydalanilishi bo'yicha soliqlar qanday soliqlarga bo'linadi.?	Progressiv soliqlar, regressiv soliqlar, proportsional soliqlar	Umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar	Umumiy soliqlar va maqsadli soliqlar	Resurs soliqlari, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar
Ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra byudjet daromadlari qanday guruhga bo'linishi mumkin	Soliqli daromadlar	xo'jalik yurituvchi sub'-ektlardan olinadigan daromadlar	Axolidan tushumlar	Soliqsiz daromadlar
Mulkchilik shakliga ko'ra byudjet daromadlari qanday ko'rinishlarda bo'lishi mumkin	Nodavlat sek-tordan olinadi-gan daromadlar	Davlat xo'ja-liklaridan olinadigan daromadlar	xo'jalik yurituvchi sub'-ektlardan olinadigan daromadlar	Axolidan tushumlar
Byudjetlarning barcha daromadlari u yoki bu byudjetlarga biriktirilishiga qarab qanday bo'linishi mumkin	Byudjetning o'z daromadlari	Byudjetning tartibga keltiruvchi daromadlari	Respublika byudjeti daromalari	Mahalliy byudjet daromadlari
YUridik nuqtai nazardan byudjet daromadlari qanday guruhga ajratilishi mumkin	Davlat byudjeti daromadlari	Respublika byudjeti daromadlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlari	Federatsiya byudjeti daromdalari
O'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra byudjet harajatlari qanday harajatlarga bo'linadi?	Transfert harajatlar, joriy subsidiyalar	Iqtisodiyotga harajatlar, harbiy harajatlar, boshqaruv harajatlar	Mudofaa harajatlari, ijtimoiy harajatlar, boshqaruv harajatlari	Kapital harajatlar, joriy harajatlar
Byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan, qaytarilmaydigan pul	Byudjet dotatsiyasi	Byudjet subvensiyasi	Byudjet so'rovi	Byudjet transferti

mablag'lari nima deb yuritiladi?				
Quyida keltirilgan harajat guruhlaridan qaysi biri mahalliy byudjetlarning harajatlari hisoblanadi?	Mudofaa harajatlari	Aholini ijtimoiy himoya qilish harajatlari	Davlat zahiralari vujudga keltirish bilan bog'liq harajatlar	Davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha harajatlar
Byudjet tashkilotlari harajatlari tarkibida qaysi harajatlardan yeng ko'p salmoqqa yega?	Administratsiya harajatlari	Oziq-ovqat harajatlari	Ish haqi harajatlari	Kommunal xizmat harajatlari
O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining kassa ijrosini g'aznachilik tizimiga o'tilishi nechanchi yildan amalga oshirila boshlandi?	2004 yildan	2006 yildan	2007 yildan	2005 yildan
«Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorining soni va qabul qilingan sanasini ko'rsating?	2003 yil 13 may 495-son	2003 yil 25 dekabr 567-son	2002 yil 31 dekabr 455-son	1999 yil 3 sentyabr 414-son
Pedagogik stavka nimaga nisbatan aniqlanadi?	Bir sinfga to'g'ri kelgan o'qituvchilar soniga	Sinflarning o'rtacha yillik soniga	Bir xaftalik o'quv soatlari soniga	Sinf guruxlarining o'rtacha yillik soniga
Smetaga ta'rif bering?	Smeta - bu byudjet tashkilotlari daromad va xarajatlardan rejasi;	Smeta – bu byudjet muassasalari va tashkilotlarining moliyaviy rejasi	Smeta – bu kredit muassasalarining moliyaviy rejasi	Smeta – bu byudjet muassasalari xarajatlari rejasi
Ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari tarkibidagi qaysi xarajatlardan yuqori ulushga yega?	Ijtimoiy-ximoya xarajatlari	Maorif xarajatlari	Madaniyat xarajatlari	Mudofaa harajatlari
Mahalliy byudjetning tarkibiga bevosita qaysi byudjet kirmaydi?	Tuman byudjeti	Respublika byudjeti	Viloyat byudjeti	SHahar byudjeti
Mahalliy byudjetning tartibga soluvchi daromadlari nima?	Quyidagilardan qaysi biri mahalliy byudjetning daromadlari tarkibiga kiradi?	Soliq daromadlari va tushumlar	To'g'ri (bevosita) va yegri (bilvosita) soliqlar	Rejalashtirilganga nisbatan ortiqcha tushgan daromadlar
Quyida keltirilgan harajat guruhlaridan qaysi biri mahalliy byudjetlarning harajatlari hisoblanadi?	Mudofaa harajatlari	Aholini ijtimoiy himoya qilish harajatlari	Davlat zahiralari vujudga keltirish bilan bog'liq harajatlar	Davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha harajatlar
